

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UDK

Mamadiyeva Sarvinoz Suyunqulovna

**HOZIRGI O'ZBEK TILIDA TAQLIDIY SO'ZLARNING
LEKSIKOGRAFIK TALQINI**
(O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATLARI MISOLIDA)

5A220102 - Lingvistika (O'zbek tilshunosligi) mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.

Ilmiy rahbar :
dots. G'afforov A.A. _____

O'zbek tilshunosligi kafedrası mudiri
prof.Abdusaidov.A. _____

M.O'.

Samarqand- 2011

MUNDARIJA	
Tadqiqotning umumiy tavsifi	3-5
Kirish	6-14
Birinchi bob. Taqlidiy soʻzlarning oʻzbek tili soʻz turkumlari tizmida tutgan oʻrni.	15-26
Ikkinchi bob. Taqlidiy soʻzlarning oʻzbek tili izohli lugʻatlarida berilishi masalasi.	27-82
Xulosa.	83-85
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.	86-88
Ilova	89-97

TADQIQOTNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Xalqimizning necha yuz yillik orzusi bo'lgan mustaqillik ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi, tilshunoslik sohasida ham katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ona tilimizning lug'at boyligi har jihatdan boyidi va takomillashdi. «Xuddi shu bebaho boylikning tarkibini jamiyatimizning har bir a'zosiga tushunarli tarzda ta'riflash va tavsiflashga ulkan ehtiyoj tug'ilgani uchun hukumatimiz qabul qilgan dasturga muvofiq Til va adabiyot instituti olimlari besh jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati»ni (2006-2008) yaratdi. Bu lug'at ming yillik o'zbek lug'atchiligi an'analari va dunyo lug'atchiligi tajribalaridan unumli foydalangan holda tuzilgan fundamental nashrdir»¹. Tilimiz lug'at boyligining ana shu leksikografik manbada aks etish darajasini tahlil etish ma'lum daraja ona tilimizning boyligi darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda unda berilgan taqlidiy so'zlarni ushbu lug'atga qadar nashr etilgan izohli lug'atlar bilan qiyoslagan holda o'rganish ham ilmiy ahamiyat kasb etadi. Masalaning ana shu jihati mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tilshunosligida alohida so'z turkumi sifatida taqlidiy so'zlarning grammatik xususiyatlari R.Qo'ng'urov tomonidan tadqiq etilgan va olim tomonidan 1962-yilda «Изобразительные слова в современном узбекском литературном языке» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan hamda «O'zbek tilida taqlidiy so'zlar» (Toshkent: Fan, 1966) nomli monografiyasi, «O'zbek tilida o'zgarmaydigan so'zlar. II qism» (Samarqand, 1980) kitobi nashr etilgan. Shuningdek, «O'zbek tili grammatikasi» akademik nashrining (Toshkent: Fan, 1975) «Taqlidiy so'zlar» qismi ham shu muallif tomonidan yozilgan. R.Qo'ng'urov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar va turli yillarda turli olimlar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmalari va darsliklarda taqlidiy so'zlarga oid berilgan nazariy materiallar ham mazkur dissertasiya uchun tanlangan mavzuni yoritishga zamin bo'lib xizmat qiladi.

¹ Махмудов Н. Ўқтам ва ўлмас тилимиз // Тафаккур, 2010, № 4, 5-бет.

Ishning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida 2010 - yilgacha o'rganilgan «O'zbek tili lug'at tarkibida semantik-uslubiy siljishlar» mavzusining tarkibiga kiradi va u o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2009-yil _____ da bo'lib o'tgan yig'ilishida tasdiqlangan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbek tili leksikografiyasida erishilgan yutuqlarga tayangan holda izohli lug'atlarda berilgan taqlidiy so'zlarni qiyosiy talqin etish va shu asosda mazkur so'z turkumining o'zbek tili lug'at boyligida tutgan o'rnini belgilash.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- «O'zbek tilining izohli lug'ati»ning birinchi va ikkinchi nashrlarida, Sh.Rahmatullayevning «O'zbek tilining etimologik lug'ati»da berilgan taqlidiy so'zlarni to'plash;

- to'plangan leksikografik materialni qiyosiy tahlil etish.

Tadqiqot metodlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy til va milliy madaniyatimizni o'rganish borasidagi qarashlari, dialektikaning bilish nazariyasi tadqiqot uchun metodologik asos vazifasini o'taydi. Shuningdek, ishda qiyosiy va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Dissertatsiyada birinchi marta -o'zbek tilida alohida turkum sifatida qaraladigan taqlidiy so'zlarning izohli lug'atlarda berilish tamoyillari o'rganildi.

- izohli lug'atning ikki nashrida berilgan taqlidiy so'zlar qiyosiy tahlil etildi.

- bu nashrlarda taqlidiy so'zlarning berilishidagi yutuq va kamchiliklar aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Taqlidiy so'zlarning lingvistik tabiatini ochishda, semantik-stilistik ma'nolarini farqlashda, nutqda qo'llanish jihatlarini belgilashda, o'zbek lug'atchiligida erishilgan yutuqlarni ko'rsatishda, kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilashda,

shuningdek, ta'lim tizimida so'zlarning ushbu alohida guruhining leksik-grammatik va semantik-stilistik ahamiyatini o'rganishda foydalanish mumkin bo'ladi.

Ishning joriylanishi. Mavzu doirasida 2010 va 2011 - yillarda Samarqand davlat universiteti talabalarining an'anaviy konferensiyalarida ma'ruzalar qilingan hamda maqolalar yozilgan va to'plamlarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 100 betdan iborat bo'lib, u ishning umumiy tavsifi, kirish, ikki bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

KIRISH

Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbusi bilan ta'lim sohasida olib borilayotgan barcha islohotlar va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning amalga oshirilishi yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko'tarish, o'sib kelayotgan avlodni jismonan sog'lom va ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgandir. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «mamlakatimizda hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdirida, odamlar dunyoqarashining o'zgarishida, buyuk davlat barpo etishdek oliyjanob orzumizning ro'yobga chiqishida zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi».¹

Yurtboshimiz kadrlar tayyorlash ishida ona tilimizning rolini ham alohida ta'kidlaydilar: «Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda».²

Masalaning muhimligidan kelib chiqib, Prezidentimiz tilshunoslar oldiga vazifalar qo'yadi: «Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur».³

Shu vazifalardan kelib, zamon talablariga mos lug'atlar yaratish zarur. Bu masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchidan, mavjud lug'atlarda so'zlarning berilish usullarini, yutuq va kamchiliklarni tahlil etish, ulardan o'quv jarayonida foydalanish yo'llarini belgilash ham ma'lum ahamiyatga ega.

¹ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида.-Тошкент: «Ўзбекистон», 1998, 262-б.

² Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: «Маънавият», 2008, 86-бет.

³ Каримов И.А. Юқоридаги асар, 87-бет.

Ma'lumki, leksikografiya tilshunoslikning lug'atlar tuzishni o'rganuvchi sohasi hisoblanadi. Ammo lug'at tuzish tilda mavjud bo'lgan so'zlarni alfavit tartibida berish degani emas. Avvalambor lug'atlarning turlarini aniqlash, har bir lug'atning o'z tuzilish prinsiplarini yaxshi bilib olish lozim bo'ladi. Masalan, har qanday tildagi lug'atlar dastlab ikkiga – qomusiy (ensiklopedik) va lingvistik lug'atlarga bo'linishini bilishimiz lozim. Bu lug'at turlarining o'ziga xos farqlovchi belgilari bor. Qomusiy lug'atlar sohasi so'z emas. Bunday lug'atlarda til birligi haqida emas, balki ular bildirgan narsalar, tarixiy voqealar, tabiiy va ijtimoiy hodisalar, shaxslar, geografik nomlar haqida ma'lumotlar beriladi. Lingvistik lug'atlar esa muayyan bir tilning barcha lug'aviy birliklarini (leksik, frazeologik) o'z ichiga oladi va ularning ma'nosi, grammatik va boshqa xususiyatlari haqida ma'lumot beradi.⁴

Lingvistik lug'atlar o'z navbatida umumiy va maxsus lug'atlarga bo'linadi. Umumiy lug'atlarning so'zligida adabiy tilning barcha sohadagi qatlamlariga oid leksikasi aks etadi. Shuning uchun bu lug'atlarning nomlanishi biron jihatdan chegaralanishni aks ettirmaydi. Kuzatilgan maqsadga ko'ra nomlanadi. Maxsus lug'atlar so'zligi esa biron sohaga oid so'zlar bilan chegaralangan bo'ladi. Lug'at nomining o'zi bu chegaralanganlikni anglatib turadi: «O'zbek tilining frazeologik lug'ati», «Yuridik terminlar lug'ati» kabi.

Biz o'rganish obyekti qilib olgan izohli lug'atlar «Umumiy lug'atlar» turkumiga kiradi. Lug'atning ushbu turi haqida «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»da shunday deyilgan: «Izohli lug'at – lingvistik lug'at turlaridan biri. Unda, birinchidan, lug'atga kiritilgan har bir so'zning (bosh so'zning) ma'nosi, ko'p ma'noli bo'lsa, ma'nolari belgilanadi va qayd etiladi. Ikkinchidan, bu ma'no (ma'nolar) izohlanadi, ya'ni tushuntiriladi – tavsifiy yo'l bilan qayd etiladi. Xuddi shu xususiyatiga ko'ra «izohli lug'at» deb ataladi».⁵

⁴ Нурмонов А., Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1994, 52-бет.

⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4 том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2002, 101-бет

O'zbek tilining nisbatan mukammal izohli lug'ati birinchi marta O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida tayyorlangan va 1981-yilda Moskvada nashr etilgan. Mazkur lug'at 2 jildli bo'lib, 60000 so'z va so'z birikmasini qamrab olgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishib, madaniy va milliy qadriyatlarga e'tibor kuchayganligi munosabati bilan o'zbek tilining so'z boyligi yanada kengroq qamrab olingan yangi izohli lug'atlar tayyorlash zarurati paydo bo'ldi. Bu haqda O'zR FA Til va adabiyot instituti direktori Nizomidin Mahmudov shunday deydi: «Mustaqillik sharofati bilan hayotimizning, hech bir istisnosiz, barcha sohalarida ulkan o'zgarishlar, yangilanishlar yuz berdi. Jumladan, bu yillarda o'zbek tili ham, tilshunosligi ham jiddiy taraqqiyot yo'liga tushib oldi. Ma'lumki, tilning lug'at boyligi jamiyatdagi o'zgarishlarning o'ziga xos ko'zgusi hisoblanadi. Xalqimizning ko'p asrlik orzusi bo'lmish istiqlol jamiyatning negizini yangiladi, yangi-yangi qadriyatlarni yaratdi, unut bo'lgan tushunchalarni tikladi, xalqning ruhi va tafakkurini tiriltirdi. Ana shu bois tilimizning lug'at boyligi yanada zanginlashdi, har jihatdan ranginlashdi. Xuddi shu bebaho boylikning tarkibini jamiyatimizning har bir a'zosiga tushunarli tarzda ta'riflash va tavsiflashga ulkan ehtiyoj tug'ilgani uchun hukumatimiz qabul qilgan dasturga muvofiq Til va adabiyot instituti olimlari besh jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati»ni (2006-2008) yaratdi. Bu lug'at ming yillik o'zbek lug'atchiligi an'analari va dunyo lug'atchiligi tajribalaridan unumli foydalangan holda tuzilgan fundamental nashrdir, shuning uchun ham uning yaratilishi nafaqat o'zbek tilshunosligi yutug'i, balki respublikamiz madaniy-ma'rifiy hayotidagi jiddiy voqea sifatida baholanishga loyiq».⁶

Ammo bunday lug'atlar o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, albatta. Tilning semantikasi, grammatikasi, stilistikasi, dialektlari va tarixini qamrab oladigan bilim sohiblarigina bunday lug'atlar tuzishga jur'at qilishi mumkin. Buning ustiga, lug'atning har bir turining o'ziga xos tuzilish tamoyillari bo'ladi. Masalan, izohli

⁶ Махмудов Н. Ўқтам ва ўлмас тилимиз / Тафаккур, 2010, №4, 5-бет.

lug'atlarni olaylik. Ularda so'zlik va ketidan grammatik belgilar beriladi. Maqola qismi asosiy hisoblanib, unda so'z ma'nolari izohlanadi, tavsiflanadi va hokazo. Shu so'z qatnashgan turg'un birikmalar berilib, ular izohlanadi. Maqolaning romb bilan ajratilgan qismida frazeologizmlar, ularning izohlari va illyustrativ misollar qayd etiladi.⁷

Izohli lug'atning mazmuni haqida M.Mirtojiyev quyidagilarni yozadi: «Izohli lug'atning yaratilishi til haqidagi bilimning eng rivojlangan davriga to'g'ri keladi. Bunday lug'at yaratish uchun mazkur tilning adabiy til me'yorlari aniq belgilangan, leksikasi to'liq hisobga olingan, fonetik va grammatik qonuniyatlari ishlab chiqilgan bo'lishi zarur. Aks holda, o'sha tildagi yaratilgan izohli lug'at mukammal bo'la olmaydi. Masalan, 1960-yilda mukammal izohli lug'at yaratib bo'lmasdi. Chunki hali terminlar ma'lum sohaga xos tor tarmoqlar bo'yicha hisobga olib ulgurilmagan edi. Bu bilan faqat o'rtacha hajmli izohli lug'at yaratish imkoni bor edi».⁸

Garchi o'zbek lug'atchiligi tarixi uzoq davrlarga borib taqalsa-da,⁹ izohli lug'atlar tuzish tilshunosligimizda XX asrning II yarmiga to'g'ri keladi. Bunga O.Usmonov va R.Doniyorovlarning «Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati» (1959), Sh.Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» (1978), Sh.Rahmatullayev, N.Mamatov, N.Shukurovlarning «O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati» (1980), A.Hojiyevning «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» (1974) kabi lug'atlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Mana shu lug'atlarni tuzish jarayonida to'plangan tajriba ham «O'zbek tilining izohli lug'ati»ning yaratilishida ma'lum darajada qo'l keldi.

Keng xronologik doirada o'zbek tilining butun so'z boyligini emas, balki hozirgi zamon o'zbek tilining keng iste'moldagi so'z boyligini to'plash va tavsiflashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yangi «Izohli lug'at» XX asrning II

⁷ Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. Ўқув қўлланмаси. — Тошкент: «Университет», 2000, 64-бет.

⁸ Миртожиев М. Юқоридаги асар, 72-бет.

⁹ Ҳамидов З. Луғатшунослик тарихи ва қўлёзма луғатлар. — Т.:Адолат, 2004.

yarmida, xususan, keyingi o'n yilliklarda o'zbek tili yangi-yangi so'zlar, so'z shakllari va ifoda vositalari bilan boyiganligi va sifat jihatgan o'zgarganligini, yangi me'yorlar, yangi xususiyatlar shakllanib va rivojlanib borayotganligini hisobga olgan holda tuzildi. Chunki, til taraqqiyotini yaxlit tizim sifatida o'rganishning hozirgi bosqichida leksik birliklarni ham yangi asoslarda talqin qilish masalasi o'rta qo'yilmoqda. Ular tabiatidagi milliylikni, me'yoriy jihatlarni til va nutq dialektikasi, ayni paytda, dixotomiyasi, semantik va sintaktik valentlik nuqtayi nazaridan o'rganish hamda ularni turli mavqedagi lug'atlarda aks ettirish davr talabi ekanligi aytilmoqda.

Ana shu aytilganlarni hisobga olgan holda o'zbek tilidagi muayyan bir semantik guruh doirasiga kiruvchi til birliklarining izohli lug'atda berilish xususiyatlarini o'rganish ham ilmiy ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham ushbu magistrlik dissertatsiyasi doirasida hozirgi o'zbek tilida mavjud bo'lgan taqlidiy so'zlarning berilishini tahlil qilish maqsad qilib qo'yildi.

Shu bilan birga, o'zbek tilshunosligida lug'atchilik sohasidagi ishlarni takomillashtirib borishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Yurtboshimizning «fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz»,¹⁰ degan fikrlari bu borada tilshunos olimlar uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Muayyan til elementlarining izohli lug'atlarda berilishiga doir tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan. Shulardan biri Sh.Bobojonovning

¹⁰ Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч, 87-б.

«Semema, uning nutqiy voqelanishi va izohli lug'atdagi talqini» (2005) mavzusida yozgan nomzodlik dissertatsiya¹¹.

Mazkur ish o'zbek tilshunosligining semasiologiya va leksikografiya sohasida leksema sememasi va uning nutqiy voqelanishi, sememaning nutqqa xoslanishi va xoslovchi vositalar, nutqiy ma'no turlari, nutqiy ma'noda zotiy va tajalli jihatlarni ajratish, bosh va hosila sememalarni farqlash va shu asosda o'zbek milliy leksikografiyasini yaratish, tilshunoslikning eng so'nggi yutuqlari asosida milliy izohli va o'quv lug'atlari tuzish kabi masalalarning yechimiga bag'ishlangan.

Tadqiqot sememaning lingvistik tabiatini o'rganish, uning tushunchaga, nutqiy ma'nolarga munosabatini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligi bilan diqqatga sazovordir.

Ishning birinchi bobi «*Semema va uning so'z semantik strukturasiga munosabati*» deb nomlanadi. Bu bobda semema va uning mohiyati, sememaning lisoniy zot sifatidagi maqomi, uning nutqiy ma'noga munosabati, semema va tushuncha munosabati, shuningdek, sememaning leksikografik talqini masalalari to'g'risida mulohazalar bildirilgan.

Sh.Bobojonov ushbu bobda «semema qonuniyat sifatida nutqiy ma'nolarda yashaydi. Ammo har bir nutqiy ma'noda semema tugal va bus-butun holda voqelana olmaydi, aks holda semema o'ziga xos sifatlardan mahrum, nutqiy ma'nolar esa o'ziga xos bo'lmagan belgilarga ega bo'lib qolar edi», «semema bitta nutqiy ma'noning emas, balki ko'plab nutqiy ma'nolar va ular munosabatlarining yagona ichki asosi sifatida yashaydi», degan muhim fikrlarni ilgari suradi.

Dissertatsiya muallifining ta'kidlashicha, til jamiyat a'zolari ongida tayyor holda mavjud bo'lishi sememaning asosiy xususiyati sanaladi. U nutqiy ma'no sifatida namoyon bo'lishi uchun kishi ongida tayyor holda bo'lishi lozim. Ayni paytda, u nutqiy lug'aviy va grammatik ma'no sifatida voqelanadi. Semema nutqqa

¹¹ Бобожонов Ш.Х. Семема, унинг нутқий воқеланиши ва изоҳли луғатдаги талқини: Филол.фан.номз. ...дис.автореф. – Тошкент, 2004. –23 б.

xoslanadi va xoslovchi vositalar mavjud bo'ladi. Ekstralingvistik omillar ta'sirida sememalar sifat o'zgarishga uchraydi. Bu o'zgarishlar uslubiy omillar hamda ayrim lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchilarning ta'siri natijasida yuz beradi. Leksema ko'chma ma'noda qo'llanar ekan, uning sememasi tarkibidagi atash semalari so'nib, nutqiy voqelikka mos ravishda ifoda va vazifa semalari kuchayadi. Natijada nutq jarayonida sememalarning ma'no anglatish doirasi kengayib boradi, vazifaviy jihatdan nutqiy xoslanishga sharoit yaratadi.

Dissertatsiyaning «*Leksema semalarining izohlanishi*» deb nomlangan ikkinchi bobi bevosita bizning ishimizga daxldor deyishimiz mumkin.

Bobda bundan chorak asr muqaddam yaratilgan «O'zbek tilining izohli lug'ati» (1981) o'zining tarixiy vazifasini uddalagani qayd etilgan, ayni paytda, o'tgan davr mobaynida o'zbek sistem tilshunosligi erishgan yutuqlar asosida uni takomillashtirish masalasi o'rta qo'yilgan.

Dissertatsiya muallifining «Nutqiy hodisalar cheksizlik va rang-baranglik tabiatiga ega bo'lganligi bois leksikografik talqinlarning obyekt bo'la olmaydi. Lug'atlar so'zlarga xos barqaror jihatlarnigina qamrab olish imkoniyatiga ega» degan fikrlaridan ishimizda foydalanamiz.

Sh.Bobojonov «Leksikografik talqinlarda to'g'ridan to'g'ri leksemalar lisoniy mohiyatini tavsiflash bilan cheklash ham lug'atning o'z funksiyasini mukammal ado etish imkonini yo'qqa chiqaradi. Chunki bunday holda lug'at maqolasi soni bilan leksema sememalari miqdori tenglashtirib qo'yilgan bo'lur edi», degan fikrni bayon qilgan va undan quyidagi to'g'ri xulosani chiqargan: «Demak, lug'atda bir so'zning, deylik, 20-30 talab nutqiy ma'nolarini izohlash, uning empirizmga asoslanganligini ko'rsatsa, faqat sememalarga tayanish lug'atning sememik tahlil doirasidan tashqariga chiqa olmaganligidan dalolat beradi. Bu esa o'z-o'zidan lug'atda sememaga va undan quyida turuvchi, biroq lisoniy tabiatga ega bo'lgan oraliq lug'aviy ma'nolariga e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi».

Shuningdek, ishning ushbu bobida mustaqillik davri talablarida lug'atlar yaratish masalasi o'rta qo'yilgan. Ish muallifining «...leksemalarni izohli lug'atda berishda ularning tizimdoshlari bilan leksik-semantik munosabatlarni ham aks ettirish bugungi kunda shakllanayotgan sistem leksikografiyaning muhim vazifalaridan biridir», degan fikri ahamiyatlidir.

Ushbu bob oxirida izohli lug'atlarda leksemalarning sememalari, lisoniy oraliq ma'nolari talqin qilinishi, talqinda paradigmatic va sintagmatik munosabatlarga ham tayanilishi lozimligi, til birliklarining mohiyati, uning tizimdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda reallashishi to'g'risida xulosaga kelingan.

Ishning uchinchi bobi «*Ko'p ma'noli so'zlarning leksikografik va nutqiy ma'nolarini sememalarga birlashtirish*» deb nomlangan va ikki qismdan iborat bu bob amaliy xarakterda bo'lib, ishning oldingi qismlarida aytilgan nazariy xulosalarning amaliyotdagi ko'rinishlari berilgan. Sememalar ma'nosining reallashuvida nutqiy qurshovning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Muallifning ushbu bob oxiridagi xulosalari ham e'tiborga loyiq. Unda lug'atdagi ko'pchilik birliklar birdan ortiq sememaga ega bo'lib, nutqda morfologik va sintaktik vositalar hamda uslubiy rang-barangliklar ularning ma'no doirasini jiddiy kengaytirib yuborishi qayd etiladi. Bob oxirida «Biroq voqelangan bu ma'noni tegishli leksemaning bosh sememasi bilan bog'lovchi «ip» mavjud bo'lib, bu atash semalaridan biri bo'lganligi sababli uni yangi leksema deb emas, balki ko'p sememali leksemaning ma'lum bir sememasi sifatida qaralishi lozim», degan xulosa bayon qilinadi.

Yakuniy xulosadagi «Har qanday nutqiy hodisada qorishgan boshqa hodisalar tajallilari (jilolari), bir tomondan, ularning zotiy mohiyatini qorong'ilashtirishi bilan birgalikda, ikkinchi tomondan, uni nutqiy sharoit va matnga xoslaydi. Bu qonuniyat leksema sememasining voqelanishida ham to'liq amal qiladi. Leksema sememasini nutqqa xoslovchi vositalar derivatsion, morfologik, sintaktik va uslubiy omillardir. Leksema sememasi lisondan nutqqa

tushar ekan, ana shu vositalar «elagidan» o'tadi» tarzidagi fikrlari ham katta ahamiyatga egadir.

Mazkur dissertatsiya ishida bildirilgan mulohazalarni izohli lug'atlarda taqlidiy so'zlarning berilishiga ham bimalol tadbiq etish mumkin bo'ladi.

Birinchi bob

**Taqlidiy so'zlarning o'zbek tili so'z turkumlari
tizmida tutgan o'rni**

Turkologiyada taqlidiy¹² so'zlarni o'rganishga bag'ishlangan maxsus ishlar o'tgan asrning yigirmanchi yillaridan keyin yuzaga kelgan va turkiy tillarning ko'pchiligida taqlidiy so'zlar kategoriyasi u yoki bu darajada ishlangan. O'zbek tilshunosligida esa bu masala 60-yillargacha alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan emas. O'sha paytgacha o'zbek tili bo'yicha yozilgan grammatikalarda va qo'llanmalarda taqlidiy so'zlarga juda kam o'rin berilgan va ularning ko'pchiligida taqlidiy so'zlar undov so'zlarning ajralmas qismi sifatida ko'rsatilar edi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab taqlidiy so'zlar masalasi olimlarimiz e'tiborini o'ziga tortdi. Ular mavzu ustida ma'lum darajada kuzatishlar olib borib, u yoki bu holatdagi o'z fikrlarini o'rta tashladilar. Jumladan, A.N.Kononov «O'zbek tili grammatikasi»¹³ asarida taqlidiy so'zlarni undovlarning bir ko'rinishi deb ko'rsatsa, 1956-yili nashr qilingan «Hozirgi turk adabiy tilining grammatikasi»¹⁴ asarida ularni alohida so'z turkumi qilib ajratadi. Demak, A.N.Kononov oldingi asarlarida tasviriylar so'zlarni undovlarning bir turi sifatida ko'rsatsa ham, 1956-yili ularni mustaqil so'z turkumi qilib ajratish kerak, degan xulosaga keladi va «Hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasi» asarida bu xulosasini qat'iy bayon qiladi.¹⁵

A.G'ulomov o'zining maktablar uchun tuzgan darsliklarida, «O'zbek tili morfologiyasiga kirish» asarida taqlidiy so'zlarni undovlarning bir turi sifatida ko'rsatsa-da, 1957-yil avgustida maktablarda o'zbek tilini o'qitishni yaxshilash masalalari bo'yicha o'tkazilgan respublika konferensiyasida qilgan ma'ruzasida

¹² У айрим адабиётларда *таъсирий* деб ҳам номланади ва ҳар икки атама барабар ишлатилаверади.

¹³ Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка.- Ташкент, 1948.

¹⁴ Кононов А.Н. Грамматика современного турецкого литературного языка.- М.-Л., 1956.

¹⁵ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка.- М.-Л., 1960.

taqlidiy so'zlarni ayrim tur qilib ajratish lozimligini alohida qayd qiladi¹⁶. U.Tursunov va J.Muxtorov¹⁷, S.Mutallibov¹⁸, S.Usmonovlar¹⁹ o'z asarlarida tasviriyl so'zlarni undovlardan ajratib, alohida so'z turkumi sifatida qaraydilar.

S.Mutallibov 1956-yili «O'qituvchilar gazetasi»da taqlid so'zlar to'g'risida maqola e'lon qildi. Bu maqolada tovushga taqlid so'zlar ham, obrazli so'zlar ham tovushga *taqlid so'zlar* termini bilan ataladi. Ishda ancha chalkash fikrlar ham aytilgan. Ammo S.Mutallibov keyinroq nashr qilgan ocherklarida²⁰ bu masalaga aniqliklar kiritdi. Lekin har ikkala ishda ham tasviriyl so'zlarga oid ayrim misollarni izohlashda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilgan. Masalan, ko'proq tovushga taqlid so'zlarni harakat va holat tasvirini bildiruvchi so'zlar bilan aralashtirib yuborish hollari uchraydi. Uning maqolasida *yaltiroq, yalt-yult, lim-lim, g'imir-g'imir* so'zlarini, ocherklarida esa *dikillamoq*²¹ kabi so'zlarni tovushga taqlid deb atashi fikrimizning isbotidir. Keltirilgan so'zlarni tovushga taqlid so'z emas, holatga taqlid (obrazli) so'zlar deb hisoblash kerak.

S.Mutallibov tovushga va holatga taqlid so'zlarni birlashtirib, ularga quyidagicha ta'rif beradi: «Hayvonlar, jonivorlar, qush-qurtlar va odamlar, narsalar harakatidan paydo bo'lgan tovushlarga shartlicha taqlid qilib yasalgan so'zlar tovushga *taqlidiy so'zlar* deb ataladi»²².

Bu ta'rif taqlidiy so'zlarning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtira olmaydi. Bu ta'rifda holatga taqlid so'zlarga fikr bildirilmagan.

Muallifning taqlidiy so'zlar yasalishi to'g'risidagi fikri ham e'tirozdan xoli emas. Eng avvalo taqlidiy so'zlarning yasalishi bilan ulardan boshqa so'z turkumlarining yasalishlarini farqlash kerak, ya'ni ularga bir hodisa sifatida qarash yaramaydi.

¹⁶ Ғуломов А. Ўзбек тилшунослигининг ҳозирги аҳволи ва мактабда тил ўқитишнинг вазифалари //«Ўзбекистон маданияти», 1957 йил 28 август.

¹⁷ Турсунов У., Мухторов Ж. Ҳозирги замон ўзбек тили. Морфология. - Самарқанад, 1960.

¹⁸ Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк.- Тошкент, 1959.

¹⁹ Усмонов С. Междометия в современном узбекском языке.- Ташкент, 1952.

²⁰ Муталлибов С. Юқоридаги асар, 210-219-бетлар.

²¹ Муталлибов С. Юқоридаги асар, 212-бет.

²² Муталлибов С. Юқоридаги асар, 210-бет.

Tadqiqotchi tovushga taqlid soʻzlar morfologik yasash xususiyatiga ega deb taʼkidlaydi-yu, lekin koʻproq ishda taqlidiy soʻzlardan feʼl, ot, sifat kabi boshqa soʻz turkumlarining yasashi toʻgʻrisida gapiradi.

S.Mutallibov taqlidiy soʻzlarning turlari haqida gapirib shunday yozadi: «Tovushga taqlidiy soʻzlar tuzilishi asosiga koʻra ham ikkiga ayriladi:

a) eshitgan tovushga shartlicha taqlid qilib yasalgan soʻzlar: *pish-pish uxlamoq, taq-taq yurmoq*;

b) narsalar va hodisalar koʻrinishiga shartlicha taqlid qilib yasalgan soʻzlar: *yalt-yult, lim-lim*.²³

Tasnifdan obrazli soʻzlar tovushga taqlid soʻzlarning bir turi, uning bir koʻrinishi ekan, degan xulosaga kelish mumkin. Bu yerda termin qoʻllashdagi yanglishlik sezilib turibdi.

Soʻngra muallif taqlidiy soʻzlarning semantik guruhlarini nima uchundir tuzilishiga koʻra deb hisoblaydi. Turkologlardan N.A.Kononov, N.A.Baskakov, L.N.Xaritonovlar taqlidiy soʻzlarni anglatgan maʼnolariga qarabgina yuqoridagi kabi ikki guruhga ajratadilar.

S.Mutallibov taqlidiy soʻzlarning takrorlanishini, juftlashgan shakllarini «qoʻshma taqlidiy soʻzlar» sifatida talqin qiladi. Bu oʻrinda ham yanglishlik mavjud. Aslida takror, juft soʻzlar bilan qoʻshma soʻzlar orasidagi farq bularni bir terminga birlashtira olmaydi.

«Hozirgi zamon oʻzbek tili»²⁴ asarida taqlidiy soʻzlar «mimemalar» termini ostida, qisqa boʻlsa-da, alohida kategoriya sifatida ajratilib koʻrsatiladi. Ammo asarning baʼzi boblarida u undovlar sifatida qarayverilgan.

U.Tursunov, J.Muxtorovlarning «Hozirgi zamon oʻzbek tili. Morfologiya»²⁵ qoʻllanmasida taqlidiy soʻzlar qisqa boʻlsa-da, alohida kategoriya sifatida oʻrganilgan. Mualliflar taqlidiy soʻzlarga quyidagicha taʼrif beradilar: «Taqlidiy soʻzlar shaxs, predmet va turli jonivorlar tovushining, harakat va holat obrazining

²³ Ўша асар, 214-бет.

²⁴ Ҳозирги замон ўзбек тили.-Тошкент: «ЎзФА нашриёти», 1957.

²⁵ Турсунов У., Мухторов Ж. Ҳозирги замон ўзбек тили. –Самарқанд, 1960. 189-191-бетлар.

tashqi olamdan olgan taqlidi-kopiyasidir. Taqlidiy soʻzlar turli xildagi ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz tovush va qichqiriqlarni, harakat va holat obrazini bildiradi»²⁶.

Mualliflar taqlidiy soʻzlarni ikkiga: tovushga taqlidiy soʻzlar va obrazli soʻzlarga boʻlib, ularga taʼrif beradilar va misollar bilan izohlaydilar.

Taqlidiy soʻzlarni tuzilishi jihatidan esa yakka va juft taqlidiy soʻzlarga boʻladilar. Bu oʻrinda taqlidiy soʻzlarning takroriy shakli ham juft shakli ichida koʻrib oʻtilgan, yaʼni juft va takroriy taqlidiy soʻzlar aralash holda izohlangan.

Shuningdek, ishda taqlidiy soʻzlarning undovlardan farqi haqida qisqa oʻrinda boʻlsa-da, munosabat bildirilgan. Shu bilan birga, taqlidiy soʻzlardan boshqa soʻz turkumlari yasaliishi va ularning sintaktik vazifalari haqida ham fikr bildirilgan.

U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar tomonidan nashr etilgan «Hozirgi oʻzbek adabiy tili»²⁷ asarida ham taqlidiy soʻzlar haqida yuqoridagi kabi fikrlar bildirilgan.

Gʻ.Abdurahmonovning umumiy tahriri ostida chop etilgan, E.Begmatov tomonidan yozilgan «Hozirgi oʻzbek adabiy tili»²⁸ asarida taqlidiy soʻzlar «Tasviriy soʻzlar» termini ostida berilib, nisbatan kengroq maʼlumotlar berilgan. Unda tasviriy soʻzlarga quyidagicha taʼrif beriladi: «Obyektiv olamdagi xilma-xil tovushlar hamda narsa va hodisalar harakatining obrazli holatlariga taqlid qilish orqali paydo boʻlgan soʻzlar tasviriy soʻzlar deb ataladi»²⁹.

Ishda tasviriy soʻzlar maʼno jihatidan ikkiga: taqlidiy soʻzlar va obrazli soʻzlar; tuzilishiga koʻra uchga: sodda, takroriy va juft tasviriy soʻzlarga boʻlib oʻrganilgan. Shuningdek, tasviriy soʻzlarning baʼzi fonetik xususiyatlari, tasviriy soʻzlarning soʻz yasash tizimidagi oʻrni, ulardagi otlashish (*shov-shuv+i* kabi) hodisasi va ularning muhim sintaktik vazifalari haqida fikr yuritilgan.

²⁶ Юкоридаги асар, 189-бет.

²⁷ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент, 1965, 119-121-бетлар.

²⁸ Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. -Тошкент, 1966, 375-387-бетлар.

²⁹ Юкоридаги асар, 375-бет.

Ishda tasviriy soʻzlar boshqa soʻz turkumlari hisobiga boyimasligi, yangi tasviriy soʻzlar ularning oʻzidan maʼlum grammatik shakllar vositasida hosil qilinishini (*shir-t-shirt*, *shir-q-shirq*, *shiq-ir-shiqir*, *shar-t-shart* kabi) tasviriy soʻzlarning morfologik belgisi sifatida talqin qilingan.

Oʻzbek tilshunosligida tasviriy (taqlidiy) soʻzlarni oʻrganish borasida R.Qoʻngʻurovning xizmatlari katta.

R.Qoʻngʻurovning tasviriy soʻzlar borasidagi ilmiy kuzatishlari natijasida «Oʻzbek tilida taqlidiy soʻzlar haqida baʼzi mulohazalar»³⁰, «Oʻzbek adabiy tilida tasviriy soʻzlarning fonetik xususiyatlari haqida»³¹, «Oʻzbek tilida taqlidiy soʻzlarning oʻrganilishi haqida»³², «Tasviriy soʻzlarning leksik xususiyatlari haqida»³³, «Hozirgi zamon oʻzbek tilida tasviriy soʻzlarning semantik klassifikatsiyasi»³⁴ kabi qator maqolalari yuzaga keldi. U bu boradagi, yaʼni, oʻzbek tilshunosligida tasviriy soʻzlarning umumiy tavsifi, qurilish, soʻz yasash tizimidagi oʻrni, fonetik, leksik, grammatik, sintaktik xususiyatlarini umumlashtirib, 1962-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va 1966-yilda «Oʻzbek tilida tasviriy soʻzlar»³⁵ nomli monografiyasi nashr etildi. Bu ish soʻnggida tasviriy soʻzlarning qisqacha lugʻati ham berilgan.

R.Qoʻngʻurov monografiyaning «Tasviriy soʻzlarning oʻrganilish tarixidan» deb nomlangan qismida turkologiyada tasviriy soʻzlarning oʻrganilishi haqida toʻxtalib, turkolog olimlarning tasviriy soʻzlar borasidagi qarashlariga u yoki bu darajada fikr bildiradi.

³⁰ Kўнғуров Р. Ўзбек тилида тақлидий сўзлар ҳақида баъзи мулоҳазалар // Самарқанд ун-тининг асарлари, Янги серия, 102-чиқариш. Ўзбек тилшунослиги кафедраси.-Самарқанд, 1960.

³¹ Кўнғуров Р. Ўзбек адабий тилида тасвирий сўзларнинг фонетик хусусиятлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1961, 4-сон, 44-48-бетлар.

³² Кўнғуров Р.Ўзбек тилида тақлидий сўзларнинг ўрганилиш ҳақида // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. 2-китоб. –Тошкент, 1961.

³³ Кўнғуров Р. Тасвирий сўзларнинг лексик хусусиятлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1962, 3-сон, 32-35-бетлар.

³⁴ Кўнғуров Р. Ҳозирги замон ўзбек тилида тасвирий сўзларнинг семантик классификацияси // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. 3-китоб. –Тошкент, 1961.

³⁵ Кўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. Тошкент, 1966, -154 бет.

«Tasviriy soʻzlarning umumiy xarakteristikasi» qismida tasviriy soʻzlar haqida umumiy fikrlar bildirib, taqlid soʻzlar borasida quyidagicha xulosaga keladi:

- a) oʻzlarining leksik maʼnolariga ega;
- b) kishida umumiy taassurot hosil qilish darajasiga koʻtara oladi. Bir tilda gapiruvchi hamma kollektiv asosan ularni bir xilda tushunadi;
- v) oʻzlariga xos qurilishga, formaga ega;
- g) sodda holda asosan yordamchi feʼllar bilan keladi;
- d) gapda maʼlum boʻlak vazifasini bajarib, boshqa gap boʻlaklari bilan munosabatga kirisha oladi. Mana shu xususiyatga ega boʻlgan taqlidni soʻz deb hisoblash mumkin³⁶.

Shuningdek, bu qismda undovlar bilan tasviriy soʻzlarning bir-biriga yaqin, oʻxshash xususiyatlarini oʻzbek tili materiallari asosida quyidagicha:

1. Tasviriy soʻzlar va undovlar harakat obrazi, tovush va emotsiyaning nomini koʻrsatmaydi, balki ularning bevosita ifodalanishi hisoblanadi.

2. Undov va tasviriy soʻzlar (yasovchi affikslarsiz) oʻzagi ism sifatida qabul qilinadi. Masalan, *oh, uh, shart, gurs, milt, yalt-yalt, jildir-jildir* va boshqalar.

3. Har ikki kategoriyada ham nominativlik xarakterining yoʻqligi ularni boshqa kategoriyalardan, turkumlardan ajratib turadi.

4. Oʻxshash affektiv boʻyoqqa, ekspressivlikka ega va boshqalar³⁷ deb koʻrsatsa, ularning faqat oʻziga xos, bir-biridan ajratib turuvchi xususiyatlarini quyidagicha izohlaydi:

a) Semantik tomondan undovlar soʻzlovchining koʻproq ichki kechinmasini, his-hayajonini, buyruq, xitob va iltimosini bildiradi. Tasviriy soʻzlar esa kishilar va boshqa predmetlarning tovushlari va harakatlarini kopya qilgandek tovush yoki harakat obrazi sifatida ifodalaydi. Emotsionallik, buyruq, iltimos tasviriy soʻzlar uchun xos emas.

³⁶ Қўнғуров Р. Юқоридаги асар, 22- бет.

³⁷ Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар, 33- бет.

b) Undovlar nutqda modal ma'no ifodalab, bu xususiyati bilan yuklamalar hamda modal so'zlarga yaqin turadi. Tasviriy so'zlar predmetning harakatini va tovushga taqlidini bildirib, ravish va sifatlarga yaqin turadi, ular uchun modallik xos emas.

v) Tasviriy so'zlarda substantivlashish kuchli, undovlarda esa bu xususiyat taraqqiy etmagan. Tasviriy so'zlarda takroriy forma tovush yoki harakatni kuchaytirishdan tashqari, harakatning birdan ortiq bo'lganligini, davomlilikini ham bildiradi. Undovlarda esa takror ko'proq emotsionallikni oshiradi, his-hayajonni kuchli qilib beradi.

g) Tasviriy so'zlar so'z yasash sistemasida juda aktiv qatnashadi. Undovlarda, *pish-pish//pisht-pisht*, *voy-voy//voy-voyla* tipidagi bir necha holatdan tashqari, so'z yasalishi hodisasi yo'q darajada.

d) O'zbek tilida undovlar faqat demoq yordamchi fe'li bilan birika oladi. Tasviriy so'zlar esa, *etmoq*, *demoq* ba'zan *qilmoq* hamda boshqa mustaqil fe'llar bilan birika oladi.

ye) Tasviriy so'zlar gapning mustaqil bo'laklari (ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) vazifasida kela oladi. Undovlar esa odatda gapning boshqa bo'laklari bilan bog'lanmay, «mustaqil gap» prepozitiv yuklama (S. Usmonov) vazifasida keladi, xolos.

yo) Tasviriy so'zlarni ma'lum bir formulaga solish mumkin (undosh+unli+undosh yoki undosh+unli+undosh+undosh)³⁸.

Yuqoridagi xususiyatlar asosida muallif undovlar bilan taqlidiy so'zlarni bir turkumga birlashtirish noto'g'ri ekanligini, ularni alohida-alohida so'z turkumi sifatida o'rganish kerakligini ta'kidlaydi.

«Tasviriy so'zlarning ba'zi bir leksik va fonetik xususiyatlari» qismida taqlidiy so'zlarning tarixiy kategoriya ekanligini, davrlar o'tishi bilan tasviriy so'zlarning badiiy asar matnida ko'proq uchrashi misollar asosida ko'rsatib berilgan. Shuningdek, ularning fonetik xususiyatlari, tasviriy so'zlardagi bo'g'in

³⁸ Кўнгулов Р. Юқоридаги асар, 34-35-бет.

tuzilishi va ulardagi epinteza (*epinteza* (grek.kiritish). Soʻz ichida (yoki boshida) tovush orttirilishi: *ing /g'ing, apil/tapil* kabi), geminasiya (ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi: *g'ijir-g'ijir// g'ijilla* kabi) hodisalari izohlab berilgan.

«Tasviriy soʻzlarning strukturasi» qismida esa taqlidiy soʻzlarni tuzilishiga koʻra: 1) sodda tasviriy soʻzlar 2) reduplikatsiyalashgan (*reduplikatsiya* (lot.ikkilanish) soʻzni takror formada qoʻllash, takroriy soʻz hosil qilish usuli: *taq-taq, piq-piq* kabi) tasviriy soʻzlar 3) juft tasviriy soʻzlarga boʻlib oʻrganadi.

«Tasviriy soʻzlarning oʻzbek tili soʻz yasash sistemasidagi roli» qismida taqlidiy soʻzlardan yasalgan otlar, sifatlar, feʼllar va ravishlar alohida-alohida oʻrganiladi.

«Tasviriy soʻzlarning sintaktik funksiyalari» qismida esa taqlidiy soʻzlarning gapda ega, kesim, aniqlovchi, izohlovchi, hol vazifalarida kela olishi misollar yordamida asoslab berilgan.

Ishning xulosa qismida tadqiqotchining ilmiy kuzatishlari natijasida yuzaga kelgan umumiy xulosalari bayon qilingan.

Demak, oʻzbek tilshunosligida taqlidiy soʻzlar tadqiqi R.Qoʻngʻurov nomi bilan uzviy bogʻliq. Olimning bu borada olib borgan izlanishlari tilshunosligimizda ilmiy qimmatga ega.

«Oʻzbek tili grammatikasi» (1975) ning «Taqlid soʻzlar» qismi ham R.Qoʻngʻurov tomonidan yozilgan va bu asarda olimning ushbu soʻzlar turkumiga oid asosiy qarashlari oʻz ifodasini topgan.

Taqlidiy soʻzlar kishilar, boshqa jonli va jonsiz predmetlar va hodisalar chiqargan tovushlar taqlidni – ularning turli xil koʻrinishi, holat, harakatlari tasavvurini ifodalovchi birliklar sifatida izohlangan hamda tovushga taqlid va obrazga taqlid soʻzlar tarzida guruhlangan. Oʻz navbatida, har bir guruh yana maʼlum semantik maydonlarga birlashtirilgan. Masalan, tovushga taqlid soʻzlar – jonli predmetlar tovushiga taqlid asosida: kishilarning harakatlaridan paydo boʻlgan va turli hayvon, jonivorlar tovushlariga; jonsiz predmetlar tovushiga taqlid

asosida: qattiq jismlar; har xil mexanizmlar, motorlar, transport kabilarning harakatidan va qurollardan o'q uzish paytida paydo bo'lgan; gazsimon predmetlar va suyuqliklar harakatidan paydo bo'lgan tovushlarga taqlid so'zlar tarzida umumlashtirilgan.³⁹ Ayni paytda bu semantik maydonga kirmaydigan *g'arj-g'urj*, *chip-chip*, *jiz-biz*, *chirt-chirt* singari taqlidiy so'zlar ham borligi ta'kidlab o'tilgan.

Obrazga taqlid so'zlar esa harakatni va uning tavsifini bildiruvchi; kishi va boshqa predmetlarning holati, tashqi ko'rinishi tasvirini ifodalovchi, yorug'lik tasvirini ifodalovchi semantik guruhlariga birlashtirilgan. Ularning ma'nolari matnda o'zgarishi mumkinligi ham ta'kidlab o'tilgan: «Bir tasviriy so'z ma'lum o'rinda tovushga taqlidni bildirsa, boshqa o'rinda unga omonim sifatida narsa va hodisalarning harakat-holat obrazini ifodalaydi. Bu ma'no esa kontekstda oydinlashadi. Chog'ishtiring: *Devor gup etib quladi* (tovushga taqlid so'z) – *gup-gup qor yog'moqda* (obrazli so'z); *Osh burq-burq qaynamoqda* (tovushga taqlid so'z) – *Burq-burq tutun tarqaladi* (obrazli so'z)».⁴⁰

1978-1980 yillarda R.Qo'ng'urovning «Hozirgi o'zbek tilida o'zgarmaydigan so'zlar» asari nashr etildi. Asarning ikkinchi qismi taqlidiy va modal so'zlar tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, muallifning bu boradagi avvalgi qarashlari yangiliklar bilan to'ldirildi va material o'quv jarayoniga moslab bayon qilindi.

Jumladan, asarda taqlidiy so'zlarning fonetik shakllanishi, ma'no turlari, tuzilishi, so'z yasalishidagi roli, gapdagi vazifalari singari bo'limlar mavjud. Shu bilan birga, unga «Tasviriy so'zlarning stilistik xususiyatlari» degan qism kiritilgan.

Asar muallifining qayd etishicha, tasviriy so'zlar gapda ifodalangan mazmunga aniqlik, tasviriylik kiritish uchun ishlatiladi. Ularning boshqa vazifasi yo'q. Gapning mazmuniga boshqa bir o'zgartirish kiritmaydi. Shu sababli gap tarkibidagi tasviriy so'zni tushirib qoldirsak, uning ma'nosida katta bir o'zgarish

³⁹ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975, 602-603-бетлар.

⁴⁰ Юқоридаги асар, 605-бет.

yuz bermaydi, balki tasviriylik yo'qoladi, xolos. Xuddi shuning o'zi, birinchi navbatda, tasviriy so'zlarning stilistik kategoriya ekanligini ko'rsatadi.⁴¹

Shuningdek, bu tushirib qoldirishni tasviriy so'zlar qo'llanishining hamma holatlariga tegishli, deb xulosa chiqarish ham to'g'ri emasligi ta'kidlanadi va misollar asosida fikr tasdiqlanadi. Masalan: *Maysara. O'g'ridan qochirib qo'ydim, deyman. Lekin kelib bundoq quyrug'ingizdan ushlasa, «moo» deb qo'yasizda, shattalaysiz* (Hamza) - *O'g'ridan qochirib qo'ydim, deyman. Lekin kelib bundoq quyrug'ingizdan ushlasa, ... deb qo'yasizda, shattalaysiz.*

Funksional stilistik nuqtayi nazardan tasviriy so'zlar, asosan, og'zaki so'zlashuv nutqi va badiiy nutq uchun xosdir. Rasmiy ish qog'ozlari, ilmiy uslublar uchun bunday so'zlarning ishlatilishi xos emas. Publisistik uslubda ham ayrim vaqtlardagina tasviriy so'zlarga murojaat qilinadi. Badiiy uslubda so'zlarning bu turkumi ko'proq bolalar adabiyotida, dramatik asarlarda ko'zga tashlanishini muallif alohida ta'kidlaydi.

R.Qo'ng'urov taqlidiy so'zlar sinonimiyasiga ham e'tiborni qaratadi va *yig'lamoq* semasi ostida birlashadigan so'zlarni tahlil qiladi. Ular quyidagilar: *bag'-bug', big'-big', biq-biq, piq-piq, inga-inga*. Yoki doira ovozi – *baqa-bang, gijdang, gijbang, gijdang-gijdang, taka-tum-tak*; kulmoq – *xoxolamoq, gurr etib kulmoq, voh-ho-ho deb kulmoq, hirlinglamoq, irjaymoq, tirjaymoq, jilmaymoq*; karnay ovozi – *vahat-vaha, vahu-vaho, vot-vot, vot-vut*; bedananing sayrashlari – *vit, vag'-vag', bid-bildiq, vavag'* kabi elementlar sinonimiyasini keltiradi.

Shuningdek, muallif tasviriy so'zlar polisemiyasi haqida ham muhim fikrlar aytgan. Turli xil predmetlar chiqargan ma'lum darajada bir-biriga yaqin, o'xshash tovushlarni tasvirlash jarayonida tasviriy so'zlarda polisemiya hodisasi yuz beradi. Masalan: *vish (vish-vish): vishillagan moddalar, vishillatib pivo quymoq, ilonning vishillab yurishi, qilichni qinidan vish etib chiqarmoq, raketalarining vish-vish ovozi* kabi. Yoki *viz-viz: o'qning uchgan ovozi, arining uchishi, qishdagi qattiq*

⁴¹ Қўнғуров Р. Ҳозирги ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар. II қисм. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1980, 30-бет.

shamol ovozigaga nisbatan; *gup-gup*: yurakning qattiq urishi, issiq yolqinning yuzga urilishi, qorning qattiq yog'ish jarayoni; *vijir-vijir*: qushlar to'dasining sayrash, quyosh selida poyonsiz qirlarning tasviri, go'shtning olovda kuydirilgan holatini ifodalashda tasviriy so'zlar ma'nosida kengayish – polisemantizm yuz bergan.

R.Qo'ng'urov so'zlarning ko'chma ma'noda ishlatilishi (ma'nolar konnotatsiyasi) ham stilistik qiymat kasb etishini ko'rsatib o'tgan. Masalan, o'zbek tilida *vag'illamoq* tasviriy fe'l aslida kishining baland ovoz bilan to'xtovsiz gapirishi tasviri uchun ishlatiladi. Ammo daryoning tezlik bilan, baland ovoz chiqarib oqishiga nisbatan ham shu tasviriy fe'ldan foydalanish mumkin. *Akillamoq* itga nisbatan qo'llaniladi, badiiy va so'zlashuv uslublarida ba'zan kishiga nisbatan ishlatilishi ham mumkin: *Qirq ikki gradus, Gitler akkilar Bizning yengilishga qish bo'ldi sabab* singari.

R.Qo'ng'urov qayd etgan fikrlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, tasviriy so'zlar shunchaki tabiat va jamiyat, insonlar va jonivorlar harakati, holati va ovoz chiqarishiga taqlidni ifodalabgina qolmasdan, nutq jarayonida qo'shimcha ma'no ottenkalarini ham ifodalaydi va shu tarzda bu so'zlarning o'zining ham ma'no doirasi kengayib boradi.

Shuning uchun ham ularning leksik-grammatik va semantik-stilistik jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Shu o'rinda biz yana bir darslikda taqlidiy so'zlarga bildirilgan ayrim fikrlarga to'xtalib o'tishni lozim topdik. Yuqorida keltirilgan asarlarning ko'pchiligida aynan bir xil shaklda takrorlangan taqlidiy so'zlarni (*taq-taq, miyov-miyov* kabi) takroriy taqlidiy so'zlar, biror fonetik jihatdan o'zgarib takrorlangan taqlidiy so'zlarni juft taqlidiy so'zlar (*apil-tapil, g'ivir-shivir* kabi) deb qaralgan.

U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevning «Hozirgi o'zbek adabiy tili» asarida esa «Takroriy taqlidiy so'zlar shu so'zlarning takrorlanishi asosida tuziladi, bunda fonetik o'zgarish bo'lishi, so'z bir necha marta takrorlanishi mumkin: *piqir-piqir, paq-puq, tars-turs* kabi.

Juft taqlidiy soʻzlarda esa bir necha taqlidiy soʻz juftlashadi: *taka-tum-tak*, *pluq-qum-prr* kabi»⁴² deb izohlangan.

Biz ham mazkur ishimizda bugungi tilshunosligimizdagi ana shu qarashlarga tayandik. Garchi soʻzlarning ushbu turkumi tilshunosligimizda ham *taqlidiy soʻzlar*, ham *tasviriyl soʻzlar* deb nomlanib kelayotgan boʻlsa-da, ulardan *taqlidiy soʻzlar* atamasini qoʻllashni lozim topdik.

Ularning lugʻatlarda berilish xususiyatlarini oʻrganishdan avval taqlidiy soʻz borasida oʻzbek tilshunosligida taqlidiy soʻzlarning oʻrganilish tarixi, uning mavjud ilmiy va ilmiy-nazariy adabiyot va darsliklarda aks etishi kabi tomonlariga toʻxtaldik. Keyingi bobda esa bevosita izohli lugʻatlarda uchraydigan taqlidiy soʻzlar haqida mulohaza yuritiladi.

⁴² Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1992, 394-396-бетлар.

Ikkinchi bob

Taqlidiy so'zlarning o'zbek tili izohli lug'atlarida berilishi masalasi

O'zbek tili lug'aviy qatlamining sezilarli bir qismini taqlidiy so'zlar tashkil qiladi. Ular alohida leksik-grammatik, semantik-stilistik xususiyatlarga ega bo'lish bilan birga, ko'plab ot, sifat va fe'llarning yasashiga asos bo'ladi. Mazkur turkumga xos bo'lgan bu jihatlar uning tildagi o'ziga xos mavqeyini belgilaydi.

Taqlidiy so'zlar og'zaki nutqda, badiiy adabiyotda, folklorda faol ishlatilib, ular nutqqa badiiy bo'yoq, ekspressivlik beradi. Shu bilan birga, umuman, obyektiv borliqni aks ettiruvchi, kommunikativ aloqa bajaruvchi va tilda qurilish material sifatida ham ahamiyatga egadir.

Shuning uchun ham taqlidiy so'zlarga tarixiy kategoriya sifatida qaraladi. Uning paydo bo'la boshlashi jamiyatning odamlar o'z nutq organlarini ancha yaxshi boshqara olish qobiliyatiga ega bo'lgan davrlariga to'g'ri keladi. Qadim ibtidoiy davrlarda tasviriy so'zlar juda kam, hatto yo'q darajada bo'lgan. Bu borada B. M.Yunusaliyev quyidagicha fikr yuritadi: «Urxun-Yenisey yodgorliklari leksikasida tovushga taqlid so'zlar hech qanday ifodasini topmagan». Tadqiqotchining bu fikrlariga R. Qo'ng'urov ham qo'shilgan.⁴³

Haqiqatdan ham taqlidiy so'zlar eski o'zbek tili lug'at tarkibida juda kamdir. Folklor yozma badiiy adabiyotining taraqqiyoti natijasida, yozuvchining badiiylikka intilishlari, tabiat tasvirini iloji boricha aniqroq qilib tasvirlashga harakat qilishlari tufayli taqlidiy so'zlarning soni oshib borgan.

M. Koshg'ariyning lug'atida qirqaqa yaqin tasviriy so'zning izohi berilgan. Masalan:

aññiladi – hangradi. انكیلا دی اشیاك *Eshjāk aññiladi* – eshak hangradi (MK, 1-tom, 302).

⁴³ Қўнгуоров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар, 36-бет.

asurdī – aksa urdi. ار اسردی *Er asurdī* – odam aksirdi, chushkurdi, chuchkurdi (MK, 1-tom, 187).

og'rashdī – o'qrayishdi, tikilishdi. اکی یغی اغرشدی *ikki jag'i og'rashdī* – ikki dushman bir-biriga tikilishdi, bir-biriga qasd qilishdi (MK, 1-tom, 237-238).

badar-badar – patir-putir. بدر یکردی *badar-badar jyg'yrdi* – patir-putir chopdi. Chopganda patir-putir oyoq tovushlari eshitildi (MK, 1-tom, 341).

buldur-buldur – بلدر بلدر *tash quzuqqa to'shti, buldur-buldur ettii* – quduqqa tosh tushdi, buldur-buldur tovush chiqardi (MK, 1-tom, 425) singari.

M.Koshg'ariy keltirgan *gulf, dik, duk, jikir-jikir, jif, jur, jur-jur, zab-zab* (yurishda oyoqdan chiqqan tovushga taqlid), *kurt-kurt, sart-surt, taqir-taqir, taq-taq, tos-tos* (to's-to's), *ulig'u* (uvlamoq bilan bog'liq), *urpardi* (hurpaydi), *xalf-xulf, chab-chab* (*shap-shap* ma'nosida), *chaq-chaq, chaldir-chaldir, chalq-chulq, chars-chars, chat, chig'il-chig'il, chirt, chur-chur, shar-shar, o'hi* (ukki), *qar-qur, qars-qars, qart-qurt, qarch-qurch, qur-qur* kabi taqlidiy so'zlarni ham shu tarzda sanab o'tish mumkin.

Mahmud Koshg'ariyning buyuk xizmatlarini e'tirof etgan holda tasviriy so'zlarning o'zbek tili tarixida tutgan o'rnini o'rganishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelish mumkinligini ham ta'kidlashga to'g'ri keladi. Chunki eski o'zbek tilidagi yozma yodgorliklarning asosiy qismi shakl tomondan hech qanday o'zgarishsiz bir necha xil o'qish mumkin bo'lgan arab alifbesida yozilgan edi-ki, bu birgina tasviriy so'zlarni emas, umuman, til faktlarini tekshirishda katta qiyinchiliklardan hisoblanadi. Bu haqda R.Qo'ng'urov quyidagilarni yozgan: «M.Koshg'ariyning lug'atida arab alifbesi bilan berilgan: چب-چب (*chab-chab*) so'zining zer-zabarlari bo'lmasa, (odatda ilgari bu alifbeda zer-zabarlari qo'yilmasdan yozilgan) *chib-chib* yoki *chub-chub* deb o'qish ham mumkin. Shu kabi ضب-ضب (*zab-zab*) so'zini *zib-zib* yoki *zub-zub*, شر-شر (*shar-shar*) so'zini *shir-shir* yoki *shur-shur*, چرس-چرس (*chars-chars*) so'zini *chirs-chirs* kabi o'qish mumkin.

Bundan tashqari, eski o'zbek tilidagi tasviriy so'zlarning ko'plari forma va ma'nolari tomonidan o'zgargan. Masalan, «Devonu lug'otit turk» asarining 341-betida بَدَر - بَدَر (*badar-badar*) so'zi chopishdan chiqqan tovushga taqlid so'z sifatida ko'rsatiladi. Hozirgi o'zbek tilida esa u so'z ko'proq to'xtovsiz tez va qattiq gapirishga taqlidda qo'llanadi.

*Tash quduqqa tushti, **buldur-buldur** etish* (374-bet) misolidagi bu tovushga taqlid so'z sifatida qo'llangan bo'lsa, hozir biror narsaning uzoqdan qiyinchilik bilan ko'rinishini tasvirlovchi obrazli so'z sifatida ishlatiladi. (*Uzoqdan bir narsaning **bulduragan** qorasi ko'rindi*). Bular-semantik tomondan. Tasviriy so'zlarda fonetik har xilliklar ham uchraydi, ularda fonetik o'zgarishlar ham yuz bergan: M. Koshg'ariyda *sig'irchiq* (1- tom, 460-bet) bo'lsa, hozirgi o'zbek adabiy tilida u *chug'urchiq*; M. Koshg'ariyda *urpardi* (1- tom, 190-bet), hozirgi o'zbek adabiy tilida *hurpaydi*; M. Koshg'ariyda *og'rashdi* (I tom, 237-bet) hozirgi o'zbek adabiy tilida *o'qrayishdi* kabilar.⁴⁴

R.Qo'ng'urov o'zbek yozma adabiyoti tilini davrlar bo'yicha tekshirib, Alisher Navoiy va uning zamondoshlari tilida tasviriy so'zlar soni ancha oshganligini, Muqimiy, Zavqiy, ayniqsa, H. H. Niyoziy esa o'z asarlarida taqlidiy so'zlarga ko'proq murojaat qilganliklarini ta'kidlaydi.⁴⁵

Olim hozirgi o'zbek tilida taqlidiy so'zlarning salmog'i bilan qiziqib ko'rgan va buni aniqlash maqsadida lug'atlarga murojaat qilgan: «Hozirgi o'zbek adabiy tilining imlo lug'atida o'rtacha 13718 so'zning 600 tasi tasviriy so'z bo'lib, umumiy sonning 4,3 prosentini tashkil qiladi. Yoki o'zbekcha-ruscha lug'atdagi 40000 so'zning 1500 dan oshiqrog'ini tasviriy so'zlar tashkil qiladi»⁴⁶. Bu faktlar tahlilidan muallif taqlidiy so'zlar salmog'i o'zbek tilida ham son, ham sifat jihatdan oshgan, degan xulosaga keladi.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, taqlidiy so'zlar o'zbek tili lug'at boyligida salmoqli o'rin tutadi.

⁴⁴ Кўнгулов Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар, 38-39-бетлар.

⁴⁵ Кўнгулов Р. Юқоридаги асар, 37-38-бетлар.

⁴⁶ Кўнгулов Р. Юқоридаги асар, 39-бет.

Anglashiladiki, o'zbek tilida taqlidiy (tasviriy) so'zlar katta bir leksik guruhni tashkil qiladi. O'zbek tilshunosligida taqlidiy so'zlarning umumiy tavsifi, ba'zi leksik va fonetik xususiyatlari, semantik tasnifi, qurilishi, o'zbek tili so'z yasash tizimidagi o'rni, gapdagi sintaktik vazifalari va, shuningdek, ayrim uslubiy xususiyatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan bo'lsa-da,⁴⁷ taqlidiy so'zlarning mavjud lug'atlarda, xususan, «O'zbek tilining izohli lug'ati»da berilishi masalalari maxsus o'rganilgan emas.

O'zbek tilining izohli lug'atlarini tuzishda qiyin bo'lgan holatlardan biri taqlidiy so'zlarning berilishi, deb hisoblaymiz. Chunki, tabiat va jamiyatdagi turli xil tovushlar va obrazlarga taqlid sifatida yuzaga keladigan so'zlarni har kim har xil talaffuz qiladi va shunday yozishga harakat qiladi. Buning natijasida har xillik vujudga keladi: *baqir-buqur*, *baqir-buqir*, *baqir-biqir*, *biqir-biqir*; *vaqir-vaqir*, *vaqir-vuqur*, *vaqir-vuqir*, *vaqir-viqir*, *viqir-viqir*, *vaqur-vuqur* va hokazo. Aslida bu har xil yoziladigan va talaffuz etiladigan taqlidiy so'zlarning ma'nolari bir xil. Izohli lug'atlarda ularning biri berilsa, ikkinchisi qolib ketadi.

Taqlidiy so'zlarning izohli lug'atda berilgan boshqa til birliklari bilan omonimlik xususiyatini aniqlash va uni lug'atda aks ettirish masalasi ham muhim. Xuddi shu kabi muammolar lug'atlarda fe'l turkumiga oid so'zlarning berilishida ham mavjudligini A.Hojiyev «O'zbek tilining izohli lug'atlarida fe'llarning berilishi» nomli maqolasida ta'kidlab o'tgan.⁴⁸

Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, milliy qadriyatlarimiz, ayniqsa, ona tilimizni o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Shuningdek, o'zbek tilshunosligi sohasida ham keyingi yillarda salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi. Jumladan, o'zbek tili leksikografiyasi sohasida ham bir qancha ahamiyatga molik ishlar qilindi. Xususan, ko'p tomli «O'zbek milliy ensiklopediyasi» ning 14 jildidan iborat mukammal to'ldirilgan nashri, «O'zbek tili

⁴⁷ Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. - Т.:Фан, 1975; Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. - Т.: Фан, 1966; Қўнғуров Р. Ҳозирги ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар, II қисм. - Самарқанд:СамДУ нашри, 1980.

⁴⁸ Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг изоҳли луғатларида феълларнинг берилиши / Ўзбек тили ва адабиёти, 1962, № 5. –Б.27-31.

izohli lug'ati»ning 5 jildlik yangi nashri (2006-2008), Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan 2 jildlik «O'zbek tilining etimologik lug'ati» shular jumlasidandir.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»ning birinchi nashri⁴⁹ o'zbek tili lug'at boyligini imkon qadar o'zida mujassamlashtirgan lug'atdir. Unda oltmish mingta so'z va birikmalarning ma'nosi izohlangan. Xo'sh, bu lug'atda o'zbek tilida alohida guruhni tashkil qiluvchi taqlidiy so'zlarning berilishi qay darajada?

Dastlab lug'atning tuzilishi va undan foydalanish tartibi haqidagi ma'lumotlardan lug'atda taqlidiy so'zlarning qanday izoh bilan berilganligiga e'tiborimizni qaratamiz.

O'TIL ma'lumotnomasining «So'zlarning grammatik xarakteristikasi» qismida (85-bet), taqlidiy va tasviriy so'zlar *taql.s* va *tasv.s* belgisi bilan berilgan⁵⁰. Lekin *taq-taq*, *lip-lip* singari takror yo'li bilan yasalgan va ish-harakatning takroriyligini anglatadigan taqlidiy va tasviriy so'zlar ...*s.takr.* belgisi bilan berilib, takrorlanuvchi komponent maqolasiga havola qilingan. Masalan: ***taq-taq***, *taq.s takr.* *Taq-taq (qilib) eshik qoqmoq*»⁵¹ tarzida izohlanganligi mualliflar tomonidan bayon qilingan.

Yuqoridagi ma'lumotga tayangan holda O'TIL dagi taqlidiy va tasviriy so'zlarni o'rganib, ularni lug'atda berilishi jihatdan uch guruhga bo'lib, har bir guruh so'zlarini alohida-alohida o'rganish maqsadga muvofiq. O'TIL da 184 ta sodda, 102 ta juft va 170 ta takroriy taqlidiy va tasviriy so'zlarning izohi berilgan. Ma'lumotlarni jamlashtirib oladigan bo'lsak, O'TIL dagi 60 mingta so'z va birikmaning 500 ga yaqinini lug'atda ma'nosi izohlangan sof taqlidiy so'zlar tashkil etadi. Bu umumiy sonning 0,8 foiziga to'g'ri keladi.

⁴⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, Икки томлик. - Москва, 1981. Бундан кейинги ўринларда ЎТИЛ тарзида берилади.

⁵⁰ Луғат маълумотномасида тақлидий сўзлар ёрдамчи сўз сифатида берилган. Маълумки, бугунги тилшунослигимизда тақлидий сўзлар ўзига хос грамматик белгилари билан ёрдамчи сўзларга ҳам, шунингдек, мустақил сўзларга ҳам кирмайдиган алоҳида оралик сўз туркуми сифатида қаралади.

⁵¹ ЎТИЛ, 1-том, 17-бет.

Shu o'rinda olib borilgan kuzatishlar jarayonida vujudga kelgan ayrim fikr-mulohazalarni o'rta tashlamoqchimiz. Tadqiqot jarayonida O'TILda grammatik belgisi ko'rsatilmagan, lekin lug'aviy ma'nosining izohidan va badiiy adabiyotlardan keltirilgan misollardan taqlidiy yoki tasviriy so'z ekanligi ma'lum bo'lgan bir qator so'zlar berilgan. Biz quyida shunday so'zlarni alifbo tartibida keltiramiz:

ak-ak	lang	yilt-yilt
<i>alpi-salpi</i>	lim	zirq-zirq
alg'ov-dalg'ov	lim-lim	g'ala-g'ovur
ar-ar	pil-pil	g'arq
baqir-buqur	pitpildiq	g'idi-bidi
bag'-bug'	pitpiliq	g'idi-g'idi
bez-bez	pichir	g'imir-g'imir
bilang-bilang	pichir-pichir	g'ing'ir-g'ing'ir
dag'-dag'	qaldir-quldir	g'iring
gangur-gungur	qalt-qalt	g'iring-g'iring
gir-gir	qah-qah	g'iring-piring
hang-mang	qiy-chuv	g'ovur
hap-hap	qilt	g'ovur-g'ovur
hilp-hilp	suf	g'ovur-g'uvur
hil-hil	suf-kuf	g'uvur
ilang-bilang	tors	g'uvur-g'uvur
ipir-ipir	tors-tors	g'uj-g'uj
jilpang-jilpang	visir-visir	g'uldur-g'uldur
jimir-jimir	yum-yum	g'o'ldur-g'o'ldur
jiq-jiq	yalt	g'o'q-g'o'q
jiqqa-jiqqa	yalt-yalt	g'adir-budir
kuf	yarq	shalp

kuf-suf	yarq-yarq	chuvur
limmo-lim	yilt	chuvur-chuvur
		chuv-chuv

Fikrimizning isboti sifatida, shu xildagi soʻzlarning ayrimlarini OʻTILda berilgan izohi bilan birga keltirmoqchimiz. Masalan: *pil-pil* tez va yangi takrorlanadigan oniy harakatni bildiradi: *Oʻrtadagi katta tekis tosh ustida fonar pil-pil yonmoqda*. S.Anorboyev, Oqsoy (1,586); *gʻoʻq-gʻoʻq*: Choʻchqa, toʻngʻizlar tovushi haqida (2, 668); *zirq-zirq*: zirq-zirq qilmoq (yoki ogʻrimoq) zirqirab, qaqshab ogʻrimoq. *Oyoqlarim zirq-zirq ogʻriyapti. Yuragi zirq-zirq qiladi. Yuragi bezillaydi. Dori desa yuragim zirq-zirq qiladi* (1, 307).

OʻTILda ayrim taqlidiy soʻzlarning berilishida noaniqlikka, chalkashliklarga yoʻl qoʻyilganligini, baʼzi taqlidiy soʻzlarning grammatik xususiyati notoʻgʻri izohlanganligini ham kuzatish mumkin. Masalan, *xa-xa-xa*, *xe-xe-xe*, *xi-xi*, *vot-vot* soʻzlari lugʻatda quyidagicha izohlangan: **xa-xa-xa** und.s. Kulgini ifodalaydi. -*Xa-xa-xa, shamol sizdan oʻchimni oldi, qani gapiring!- dedi Raʼno Anvarga*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. -*Xa-xa-xa...-Fazliddin Nurining soʻzlaridan taʼsirlanib qattiq kuldi,- otangga pul kerak boʻlsa, bizdan qarz olsin*. Oybek, Qutlugʻ qon (2, 321); **xe-xe-xe** und.s. Xexelagan kulgi tovushini ifodalaydi. – *Pari yigitga oshiqmisan?-xe-xe-xe! –Nega kulasan, Gulshan opa?* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon (2, 322); **xi-xi** und.s. Sekin, bosiq. Tovush bilan kulishni ifodalaydi. –*Xi-xi-xi- bachkanacha kuldi chol*. Oybek, Qutlugʻ qon (2, 327); **vot-vot** und.s. Karnay ovozi haqida (1, 180).

Yuqoridagi soʻzlarning maʼnosiga berilgan izohlardan va keltirilgan misollardan ularning undov soʻz emas, balki taqlidiy soʻzlar ekanligi anglashilib turibdi. Chunki *xa-xa-xa*, *xe-xe-xe*, *xi-xi* soʻzlari turlicha holatdagi kulish, tovushni taqlidan ifodalasa, *vot-vot* soʻzi karnay chalganda chiqadigan tovushning taqlididir. Oʻzbek tilida uchraydigan tasviriy soʻzlarning R.Qoʻngʻurov oʻz kitobiga ilova

tarzida bergan qisqacha lug'atida ham *xa-xa-xa*, *xi-xi*, *vot-vot* so'zlari taqlidiy so'z sifatida o'rin olgan (3, 145)⁵².

Agar yuqoridagi kabi holatlarda masalaga to'g'ri yondashilganda edi, O'TILdagi taqlidiy so'zlar miqdori yanada ortgan bo'lar edi. Biz bu fikrlarimiz bilan o'zbek tilining lug'at boyligini o'zida aks ettirishga harakat qilgan amaldagi O'TILning qimmatiga putur yetkazmoqchi emasmiz. Maqsadimiz, bu kabi holatlarga kelajakda amalga oshiriladigan ishlarda aniqliklar kiritishdir. Bu esa o'z navbatida tilimiz lug'at boyligini tasvirlashda, lug'atdan foydalanuvchilar uchun aniqlik va yengilliklar yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu vazifa O'TILning yangi nashrida uddalandimi, degan savol tug'iladi. Savolga javob topish maqsadida O'TILning ikki nashrini, ya'ni 1981-yilda Moskvaning «Rus tili» nashriyotida chop etilgan ikki jildlik va 2006-2008-yillarda Toshkentda – O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyotida bosmadan chiqqan besh jildlik lug'atlarda taqlidiy so'zlarning berilishini o'zaro qiyoslaymiz.

O'TILning 1-nashrida	O'TILning 2-nashrida
Adi-badi: adi-badi aytishmoq s.t. <i>bahslashmoq, vajlashmoq, tortishmoq, bo'lar-bo'lmas gap talashmoq (I.27)</i>	Adi-badi: bir-biriga tegadigan gap-so'z, vaqtni behudaga o'tkazib aytishish, behuda tortishuv. <i>Adi-badi aytishmoq.</i> Bir-biriga tegadigan gap-so'z qilishmoq, behuda tortishmoq <i>Adi-badiga bormoq.</i> Janjallashishgacha bormoq, sen-menga bormoq. (I.40)
Apshu. Aksirish tovushi haqida (I.50)	Apshu. Aksirish tovushining yozuvdagi shartli ifodasi (I.91)
Ba-ba. Qo'ylarning ma'rashi haqida	Ba-ba. Qo'ylar ma'ragandagi tovushni

⁵² Кўнгулов Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар, 145-бет.

(I.70)	ifodalaydi (I.131)
Bitbildiq. Bedananing sayrashiga haqida. (I.121)	Bitbildiq. 1. Bedananing sayrashiga taqlid. 2. Laqab vazifasida keladi (I.282)
Dakang. Childirmaning ikki zarbda chiqargan ovozi haqida (I.206)	Dakang. Childirmaning ikki zarbda chiqargan ovozi haqida (I.546)
Dakir-dukur. Aynan do'pir-do'pir (I.206)	Yangi lug'atga kiritilmagan
Dik. Juda tez sodir bo'ladigan bir onli harakat haqida (I.224)	Dik. Yuqori tomon yo'nalgan va juda tez sodir bo'ladigan, bir onli harakat haqida (I.610)
Dikir. Dik-dik harakat haqida (I.224)	Dikir. Dik-dik harakat haqida. <i>Eslatma:</i> birinchi nashrda bu taqlid so'zdan hosil bo'lgan <i>dikirlatmoq</i> elementi ikkinchisida chiqarib tashlangan (I.611).
Ding'. Torni chertganda chiqadigan tovush haqida (I.228)	Ding'. Torni chertganda chiqadigan tovush haqida (I.623)
Ding'ir. «Ding'» tarzida eshitilgan uzluksiz ovoz haqida (I.228)	Ding'ir. «Ding'» tarzida eshitilgan uzluksiz ovoz haqida (I.623)
Dirk. Silkinib, tebranib turuvchi narsa, harakat haqida (I.228)	Dirk. Silkinib, tebranib turuvchi narsa, sapchib qilingan harakat haqida (I.626)
Dir / dir(r). Tebranish natijasida hosil bo'ladigan harakat va tovush haqida (I.228)	Dir. Silkinib qaltirash, titrash tufayli hosil bo'ladigan tovushga taqlid (I.625) Dir(r). Tebranish natijasida hosil bo'ladigan ana shunday harakat va tovush haqida (I.626) <i>Eslatma:</i> birinchi nashrda bir ma'no

	ostida izohlangan soʻzlar ikkinchi nashrda ajratilgan va har birining maʼnolari alohida izohlangan.
Dud. Bolalar surnayining ovozigacha oʻxshash tovushlar haqida (I.237)	Dud. Bolalar surnayining yoki avtomobil signalining ovozigacha taqlid soʻz (I.656)
Duk. Urilganda chiqadigan boʻgʻiq ovoz haqida (I.237)	Duk. Biror ogʻir narsa ikkinchisiga urilganda chiqadigan boʻgʻiq ovoz haqida (I.657)
Dukur. Dukurlagan ovoz haqida (I.238)	Dukur. Dukurlagan ovoz haqida. <i>Eslatma:</i> birinchi nashrda bu taqlid soʻzdan hosil boʻlgan <i>dukurlatmoq</i> elementi ikkinchisida chiqarib tashlangan (I.658)
Dup. Biror narsaning yerga yoki poʻk narsaga urilishidan chiqadigan tovushlar haqida (I.240)	Dup. Biror narsaning yerga yoki poʻk narsaga urilishidan chiqadigan tovushga taqlid (I.666)
Dupur. Dupurlagan tovush haqida (I.240)	Dupur. Dupurlagan tovush haqida (I.666)
Doʻngʻ. Yoʻgʻon tor, sim va sh.k chertilganda chiqadigan dagʻal tovush haqida (I.243)	Doʻngʻ. Yoʻgʻon tor, sim va sh.k chertilganda chiqadigan dagʻal tovush haqida (I.675)
Doʻp. Jarangsiz narsalarning urilishidan hosil boʻlgan tovush haqida (I.243)	Doʻp. Jarangsiz narsalarning qattiq narsaga urilishidan hosil boʻladigan tovush (I.676)
Doʻpir. Doʻppilagan ovoz haqida (I.243)	Doʻpir. Doʻppilagan ovoz haqida (I.676)
Doʻq. Jarangsiz narsalarning	Doʻq. Jarangsiz narsalarning

urilishidan hosil bo'lgan ovoz haqida (I.244)	urilishidan hosil bo'lgan ovoz (I.679)
Do'qir. «Do'q» tarzidagi uzluksiz ovoz haqida (I.244)	Do'qir. «Do'q» tarzidagi davomli ovoz (I.679)
Gijbang. Childirmaning baralla yangragan ovozi haqida (I.190)	Gijbang. Childirmaning baralla yangragani (I.500)
Guv. Shiddatli harakat, yonish va shu kabi paytlarda chiqadigan bo'g'iqlik tovush haqida (I.194)	Guv. Shiddatli harakat, yonish va shu kabi paytlarda chiqadigan bo'g'iqlik tovush (I.514)
Guldur. Guldur-guldur. Momaqaldiraq singari gulduragan tovush haqida (I.196)	Guldur. Momaqaldiraq singari gulduragan tovush haqida. <i>Eslatma:</i> birinchi nashrda berilgan guldur-guldur so'zi, shuningdek bu taqlid so'zdan hosil bo'lgan <i>gulduratmoq, guldurashmoq</i> elementlari ikkinchisida chiqarib tashlangan (I.518)
Gumbur. 1.Portlashga o'xshash kuchli va uzluksiz tovush haqida (I.198)	Gumbur. 1.Portlash chog'ida chiqadigan yoki portlashga o'xshash kuchli, davomli tovush haqida (I.523)
Gum-gum. Portlashga o'xshash bir-ikki topqir kuchli ovoz haqida (I.198)	Gum-gum. Ketma-ket portlashlar natijasida hosil bo'ladigan bo'g'iqlik ovoz (I.523)
Gup. Og'ir narsaning urilishi natijasida hosil bo'ladigan bo'g'iqlik ovoz haqida (I.199)	Gup. Og'ir narsaning urilishi natijasida hosil bo'ladigan bo'g'iqlik ovoz haqida (I.526)
Gur. Birdan boshlanadigan shiddatli harakat va undan chiqadigan tovush	Gur. Birdan boshlanadigan shiddatli harakat va undan chiqadigan tovush

haqida (I.200)	haqida <i>Eslatma:</i> birinchi nashrda berilgan gur-gur so'zi, shuningdek bu taqlid so'zdan hosil bo'lgan <i>gurillatmoq, gurkiratmoq</i> elementlari ikkinchisida chiqarib tashlangan (I.527)
Gurra. Aynan <i>gur</i> (I.200)	Gurra. Aynan <i>gur</i> (I.528)
Gurs. Zarb bilan urilgan og'ir narsa ovozi haqida (I.200)	Gurs. Zarb bilan urish, urilish natijasida chiqadigan bo'g'i ovoz. <i>Eslatma:</i> birinchi nashrda berilgan <i>gurs-gurs</i> va shuningdek, bu taqlid so'zdan hosil bo'lgan <i>gursillatmoq</i> elementlari ikkinchisida chiqarib tashlangan (I.528)
Hap. Og'izning tez ochib yopilishini ifodalaydi (II.685)	Hap. Hap-hap. Og'izning tez ochib yopilishini, shunda chiqadigan tovushni bildiradi (V.505) Hap-hap ning bu ma'nosi lug'atning birinchi nashrida berilmagan.
Hiq. Hiqichoq tutganda, hiqqillab xo'rsinganda hosil bo'ladigan uzuq qisqa tovush haqida (II.701)	Hiq. Hiqichoq tutganda, nafas tiqilganda hosil bo'ladigan uzuq, qisqa tovushni bildiradi (V.539)
Hi-hi. G'ayritabiiy kulgini ifodalaydi (II.701)	Hi-hi. G'ayritabiiy kulgida chiqadigan tovushni ifodalaydi (V.540)
Hov. It hurgandagi ovozni ifodalaydi (II.702)	Hov. It hurgandagi ovozni ifodalaydi (V.540)
Hu. Qumri, g'urrak kabi qushlarning sayrash haqida (II.708)	Hu. Qumri, g'urrak kabi qushlarning sayrashidagi tovushni ifodalaydi

	(V.555)
Hu-hu Musicha, qumri kabi qushlarning sayrashini ifodalaydi (II.714)	Hu-hu Musicha, qumri kabi qushlarning sayraganda chiqadigan tovushni bildiradi. (V.569)
Huyt. Sa'va, bulbul kabi qushlarning sayrashi haqida (II.710)	Huyt. Sa'va, bulbul kabi qushlarning sayrash ovoziga taqlidni bildiradi (V.558)
Huh. O'pkadagi havoni, nafasni zarb bilan chiqarishni ifodalaydi (II.714)	Huh. O'pkadagi havoni, nafasni og'izdan zarb bilan chiqarishda yuzaga keladigan tovushni bildiradi (V.569)
Ing. Chaqaloqning yig'isiga o'xshash ovoz haqida (I.326)	Ing. Chaqaloqning yig'isiga o'xshash ovoz haqida (II.207)
Inga. Inga-inga. Chaqaloq yig'isi haqida (I.326)	Inga. Inga-inga. Chaqaloq yig'isiga taqlidni bildiradi (II.)
Ix. Ix-ix. (I.340) <i>aynan. qix</i> (II.588)	Ix. Ix-ix. Yangi lug'atda berilmagan. <i>aynan. qix</i> (V.313)
Jaz. Qizib turgan narsaga sovuq narsa tekkanda, suvli narsa qizitilganda yoki qovurilganda va sh.k hollarda chiqadigan tovush haqida (I.270)	Jaz. Qizib turgan narsaga sovuq narsa tekkanda yoki biror narsa qovurilganda va sh.k hollarda chiqadigan tovush haqida (II.64)
Jarang. Metall, chinni, shisha buyumlarning urilishidan chiqadigan ohangdor tovush haqida (I.274)	Jarang. Metall, chinni, shisha buyumlarning urilishidan chiqadigan tovush haqida (II.73)
Jiz. 1.Jon achitadigan, lovullatadigan bexos og'riq haqida 2. <i>aynan jaz</i> (I.277)	Jiz. 1.Jon achitadigan, lovullatadigan bexos og'riq haqida 2. <i>aynan jaz</i> (II.83)
Jiring. Metall, chinni, shisha buyumlarning urilishidan chiqadigan	Jiring. Metall, chinni, shisha buyumlarning urilishidan chiqadigan

nozik tovush haqida (I.282)	nozik tovush haqida (II.94)
Jig’ . Qaynay deb turgan samovar, qumg’on va sh.k.dan chiqadigan tovush haqida (I.283)	Jig’ . Qaynay deb turgan samovar, qumg’on va sh.k.dan chiqadigan tovush haqida (II.96)
Likang-likang . Goh u tomonga, goh bu tomonga tashlanib, qimirlab, likillab turishni ifodalaydi (I.413)	Likang-likang . Goh u tomonga, goh bu tomonga tashlanib, qimirlab, likillab turishni ifodalaydi (II.497)
Liq. Liq-liq. Liqqa-liqqa . Liq etib yutib yubormoq (I.432)	Liq . <i>taql.s</i> belgisi qo’yilmagan. Tomog’idan o’tkazib yubormoq. Liq-liq . Boshqa ma’no berilgan, ammo taqlidiy so’z sifatidagi ma’nosi berilmagan. Liqqa-liqqa . Yangi lug’atda berilmagan. (II.502)
Liqang-liqang . <i>Aynan</i> likang-likang (I.432)	Liqang-liqang . Yangi lug’atda berilmagan.
Lip. Lip-lip . Tez va yengil harakatni bildiradi (I.432)	Lip. Lip-lip . <i>taql.s</i> belgisi qo’yilmagan. Lip etib – 1) tezlik bilan, bir on ichida; 2) ustalik bilan, tezda va osongina (II.499)
Lov. Lov-lov . Kuchli alanga hamda shu alangadan chiqayotgan tovushni bildiradi (I.433)	Lov . Kuchli alanga hamda shu alangadan chiqayotgan tovushni bildiradi. Lov-lov . Yangi lug’atda berilmagan (II.503)
Lop. Lop-lop . Birdan, bir onda, kutilmaganda yuz bergan harakatni ifodalaydi (I.435)	Lop . Birdan, bir onda bo’ladigan harakatni bildiradi (olov, alanga haqida). Lop-lop . Yangi lug’atda berilmagan (II.508)
Miyov. Miyov-miyov . 1. Mushukning	Miyov . 1. Mushukning ovozi

ovozi haqida. 2.bol.aynan mushuk (I.462)	bildiradi 2.bol.aynan mushuk Ana miyov (II.589) Miyov-miyov
Milt. Milt-milt. Kuchsiz nur, yaltirash haqida (I.464)	Milt. Kuchsiz, qisqa nur chiqarmoq, shu holatda ko'rinmoq (II.594) Milt-milt yangi lug'atda berilmagan. Birinchi nashrdagi <i>miltiratmoq</i> so'zi olib tashlangan
Parr. Uchayotgan parranda qanotidan, aylanayotgan parrak va sh.k.dan chiqadigan tovush haqida (I.575)	Parr. Uchayotgan parranda qanotidan, aylanayotgan parrak va sh.k.dan chiqadigan tovush (III.229)
Part. Keskin qanot qoqish paytida chiqadigan «parr» etgan tovush haqida (I.575)	Part. Keskin qanot qoqish paytida chiqadigan tovush (III.229)
Patir. Patir-patir. Keskin qanot qoqish, tez aylanish va sh.k. harakat va ulardan chiqadigan tovush haqida (I.579)	Patir. Patir-patir. Keskin qanot qoqish, tez aylanish va sh.k. harakat va ulardan chiqadigan tovush (III.238)
Patir-putur. Tez, keskin harakat va undan hosil bo'ladigan tovush haqida (I.579)	Patir-putur. Tez, keskin harakat va undan hosil bo'ladigan tovush (III.238)
Paq. Portlash, otilish va shu kabi hollarda eshitiladigan keskin tovush haqida (I.581)	Paq. Portlash, otilish va shu kabi hollarda eshitiladigan keskin tovush (III.244)
Pilch-pilch. Suyuq, yopishqoq loydan yurganda oyoq ostidan chiqadigan tovushlar haqida (I.586)	Pilch-pilch. Suyuq, yopishqoq loydan yurganda oyoq ostidan chiqadigan tovushlar (III.260)
Pir. Pir-pir. Mayda qushlarning qanot qoqishidan, parrak va sh.k.ning	Pir. Pir-pir. Mayda qushlarning qanot qoqishidan, parrak va sh.k.ning

aylanishidan chiqadigan tovush haqida (I.587)	aylanishidan chiqadigan tovush haqida (III.262)
Pirs-pirs. Past, uzuq-uzuq tovush haqida (I.588)	Pirs-pirs. Past uzuq-uzuq eshitiladigan tovush (III.264)
Pirt. Igna, mix kabi narsalar sanchilganda yoki tortib olinganda, danak va shu kabi narsalar sitib chiqarilganda eshitiladigan tovush haqida (I.588)	Pirt. Igna, mix kabi narsalar sanchilganda yoki tortib olinganda, danak va shu kabi narsalar sitib chiqarilganda eshitiladigan tovush (III.265)
Pirq. Pirq-Pirq. Burun tortganda yoki yig'laganda dimog'dan chiqadigan uzuq-uzuq ovoz haqida (I.588)	Pirq. Pirq-Pirq. Burun tortganda yoki yig'laganda dimog'dan chiqadigan uzuq-uzuq ovoz (III.264)
Pis. Pis-Pis. Tor teshikdan havo, bug', gaz chiqqanda, cho'g'ga suv sepilganda eshitiladigan tovush haqida (I.588)	Pis. Pis-Pis. Tor teshikdan havo, bug', gaz chiqqanda, cho'g'ga suv sepilganda eshitiladigan tovush (III.264)
Pix. Mushukning o'z raqibini qo'rqitish uchun hurpayib olib tomoq qirib chiqaradigan tovushi haqida (I.589)	Pix. Mushukning o'z raqibini qo'rqitish uchun hurpayib olib tomoq qirib chiqaradigan tovushi (III.258)
Pish-pish. Burundan nafasning bo'g'ilib, siqilib o'tayotganida hosil bo'lgan tovush haqida (I.591)	Pish-pish. Burundan nafasning bo'g'ilib, siqilib o'tayotganida hosil bo'lgan tovush haqida (III.273)
Piq. Piq-piq. Kulganda yoki yig'laganda tomoqdan portlab chiqqan qisqa, bo'g'iq tovush haqida (I.591)	Piq. Piq-piq. Kulganda yoki yig'laganda tomoqdan portlab chiqqan qisqa, bo'g'iq tovush haqida (III.274)
Piqir. Piqir-Piqir. Kulgi yoki yig'idan o'zini tuta olmay qolganda	Piqir. Piqir-Piqir. Kulgi yoki yig'idan o'zini tuta olmay qolganda

chiqariladigan qisqa, past tovush haqida (I.591)	chiqariladigan qisqa, past tovush haqida (III.275)
Pov. Pov-Pov. Shiddatli jarayon, tez yonish va sh.k.da chiqadigan tovush haqida (I.593)	Pov. Pov-Pov. Shiddatli jarayon, tez yonish va sh.k.da chiqadigan tovush haqida (III.280)
Pop. Pop-pop. Biror narsaga yumshoqroq narsa bilan urilganda chiqadigan tovush haqida (I.598)	Pop. Pop-pop. Biror narsaga yumshoqroq narsa bilan urilganda chiqadigan tovush (III.295)
Puf. Ikki lab orasidan kuchli bosim bilan havo chiqarganda eshitiladigan tovush va shu harakatning o'zi haqida (I.607)	Puf. Nafas olish, o'tni o'chirish yoki alangalatish va issiq narsani sovutishda ikki lab orasidan kuchli bosim bilan havo chiqishida eshitiladigan tovush va shu harakatning o'zi haqida (III.323)
Po'k. Po'k-po'k. Ichi bo'sh yoki kavak narsani urganda, qizdirilmagan childirmani chertganda, yurak tepishi va shu kabi hollarda chiqadigan tovush haqida (I.608)	Po'k. Po'k-po'k. Ichi bo'sh yoki kavak narsani urganda, qizdirilmagan childirmani chertganda, yurak tepishi va shu kabi hollarda chiqadigan tovush haqida (III.327)
Po'rt. Igna, tikan va shu kabi o'tkir narsa kirganda, teshganda eshitiladigan tovush haqida (I.609)	Po'rt. Igna, tikan kabi o'tkir narsa kirganda, teshganda eshitiladigan tovush (III.329)
Qarr. Qarr-qarr. Qarg'a va ba'zi boshqa qushlarning tovushi haqida (II.557)	Qarr. Qarg'a va ba'zi boshqa qushlarning tovushini bildiradi (V.252) Qarr-qarr yangi lug'atda berilmagan.
Qars. Qars-qars. Qars-qurs. Narsalarning bir-biriga qattiq urilishidan, sinishidan va sh.k.lardan hosil bo'ladigan tovush haqida (II.557)	Qars. Narsalarning bir-biriga qattiq urilishidan, sinishidan va sh.k.lardan hosil bo'ladigan tovush (V.252) Qars-qars. Qars-qurs yangi lug'atda

	berilmagan.
Qasir. Qasira-qusur. Qasir-qusur. Yog'och va shunga o'xshash narsalarning chatnashidan yoki sinishidan hosil bo'ladigan tovush haqida (II.559)	Qasir. Yog'och va shunga o'xshash narsalarning chatnashidan yoki sinishidan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (V.257)
	Qasir-qusur. «Qasir» va shunga yaqin (o'xshash) tovushlarni bildiradi (V.257)
	Qasira-qusur. <i>Aynan qasir-qusur</i> (V.257)
Qaq-qaq. Tovuqlarning o'ziga xos qichqiriq ovozi haqida (II.567)	Qaq-qaq. Tovuqlarning o'ziga xos ovozini bildiradi (V.271)
Qag'. Qag'-qag'. Qag'-qug'. Qarg'a-zag'cha, quzg'un va sh.k.larning qag'illashidan chiqadigan tovush haqida (II.567)	Qag'. Qarg'a-zag'cha, quzg'un va sh.k.larning tovushini bildiradi (V.271) Qag'-qag'. Qag'-qug' yangi lug'atda berilmagan.
Qiyq. Tovuq, xo'rozlarning qiyqiriq ovozi haqida (II.)	Qiyq. Ayrim parrandalarning «qiyq»qa o'xshash ovozini bildiradi (V.288)
Qir. <i>Aynan qirr</i> (II.581)	Qir. <i>Aynan qirr</i> (V.297)
Qirr. Qirr-qirr. Notekis yoki yopishqoq narsalarning bir-biriga ishqalanishidan hosil bo'ladigan tovushlar haqida (II.582)	Qirr. Notekis yoki yopishqoq narsalarning bir-biriga ishqalanishidan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (V.300) Qirr-qirr yangi lug'atda berilmagan.
Qirs. Qirs-qirs. Mo'rt narsalarning sinishidan hosil bo'ladigan tovushlar	Qirs. Qirs-qirs. Ba'zi narsalarning sinishi, ochilib yopilishi va sh.k.dan

haqida (II.582-583)	hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (V.301)
Qirt. Qirt-qirt. Narsalarning bir-biriga ishqalanishidan, qirilishidan yoki ilinishidan hosil bo'ladigan tovushlar haqida (II.583)	Qirt. Qirt-qirt. Narsalarning bir-biriga ishqalanishi, qirilishi, uzilishi va sh.k.dan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (V.301)
Qisir. Qisir-qisir. Yog'ochning sinishidan, yog'och qismlarining qimirlab bir-biriga ishqalanishidan hosil bo'ladigan tovushlar haqida (II.585)	Qisir. Qisir-qisir. Yog'och va b. ba'zi narsalarning sinishidan, qismlarining qimirlab, bir-biriga ishqalanishidan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (V.306)
Qitir. Qitir-qitir. Quruq narsalarni tirnaganda, bir-biriga ishqaganda, kemirganda hosil bo'ladigan tovushlar haqida (II.587)	Qitir. Qitir-qitir. Quruq narsalarni tirnaganda, bir-biriga ishqaganda, kemirganda hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (V.311)
Qiqir. Qiqir-qiqir. Past tovush bilan tomoqdan kulganda chiqadigan kulgi tovushi haqida (II.590)	Qiqir. Qiqir-qiqir. Past tovush bilan tomoqdan kulganda chiqadigan tovushni bildiradi (V.317)
Qig'-qig'. Chug'urchuq, qarqunoq kabi qushlarning ovozi haqida (II.590)	Qig'. Chug'urchuq, qarqunoq kabi qushlarning ovozini bildiradi (V.316)
Qult. Qult-qult. Suyuqlikni yutganda yoki og'zi tor idishdan quyganda eshitiladigan tovushlar haqida (II.618)	Qult. Qult-qult. Suyuqlikni yutganda yoki og'zi tor idishdan quyganda eshitiladigan tovushni bildiradi (V.374)
Qur. Qur-qur. Baqaning, turnaning tovushiga o'xshash tovushlar haqida (II.620)	Qur. Qur-qur. Baqa, turna kabilarning sayrashiga o'xshash tovushni bildiradi (V.379)
Tak. Childirma, nog'ora kabi	Tak. Childirma, nog'ora kabi

narsalarni chertganda, cho'p bilan urganda chiqadigan tovush haqida (II.108)	narsalarni chertganda, cho'p bilan urganda chiqadigan tovushni bildiradi (III.643)
Taka-tum. Nog'ora tovushi haqida (II.109)	Taka-tum. Nog'ora tovushini bildiradi (III.645)
Takir-tukur. Takkillaydigan narsalardan ketma-ket chiqadigan tovushlar haqida (II.109)	Takir-tukur. «Tak», «tuk» va shunga yaqin ketma-ket chiqadigan tovushni bildiradi (III.645)
Tap. Tap-tap. Tap-tup. Ikki narsaning bir-biriga urilishi yoki biror narsaning yerga zarb bilan tushuvidan hosil bo'ladigan bo'g'iq tovush haqida (II.121)	Tap. Tap-tap. Ikki narsaning bir-biriga urilishi yoki biror narsaning yerga zarb bilan tushishidan hosil bo'ladigan bo'g'iq tovushni bildiradi (III.671)
	Tap-tup. Yangi lug'atda alohida so'z sifatida berilgan. «Tap», «tup» va shunga yaqin tovushlarni bildiradi (III.671)
Tapir-tupur. Ko'p va betartib tushayotgan qadam tovushi, «tap-tap» ovoz haqida (II.121)	Tapir-tupur. Ko'p va betartib tushayotgan oyoq yoki boshqa narsalardan chiqayotgan «tapir» va shunga yaqin tovushni bildiradi (III.671)
Tappa. Tappa-tappa. «Tap» etgan tovush chiqarib urilishni, tushishni ifodalaydi (II.121)	Tappa. <i>Taql.s.</i> belgisi qo'yilmagan. <i>Tashlamoq, bosmoq</i> kabi fe'llar bilan qo'llanib, shu fe'l anglatgan harakatning tezda, shartta bajarilishini bildiradi (III.) Tappa-tappa berilmagan.

Tar. Tarillagan ovoz haqida (II.122)	Tar. Ba'zi narsalarning yirtilishida yoki ba'zi asboblarning ishlatilishida chiqadigan tovushni bildiradi (III.672)
Taraq. Taraqa-turuq. Taraq-taraq. Taraq-turuq. Ikki quruq narsaning bir-biriga qattiq urilishidan chiqqan ovoz haqida (I.124)	Taraq. Ikki quruq narsaning bir-biriga qattiq urilishidan chiqqan tovushni bildiradi (III.677) Taraq-taraq. Taraq-turuq berilmagan.
	Taraqa-turuq. «Taraq» va shunga yaqin tovushlarni bildiradi (III.677)
Tarr. Gazmol yirtilganda, tartarak tarillaganda chiqadigan va shunga o'xshash ovoz haqida (II.128)	Tarr. Gazmol yirtilganda, tartarak tarillaganda chiqadigan va shunga o'xshash ovozni bildiradi (III.686)
Tars. Tars-tars. Tars-turs. Tarang yoki qattiq narsa yorilganda, singanda yoki urilganda chiqadigan ovoz haqida (II.128)	Tars. Tarang yoki qattiq narsa yorilganda, singanda yoki urilganda chiqadigan ovozni bildiradi (III.686) Tars-tars berilmagan.
	Tars-turs «Tars» va shunga yaqin tovushlar (III.686)
Tasir-tusur. Tasira-tusur. Ketma-ket takrorlanuvchi tasirlagan tovush haqida (II.132)	Ketma-ket takrorlanuvchi «tasir» va shunga yaqin tovushni bildiradi (IV.9)
Taq. Ikki qattiq narsaning bir-biriga zarb bilan urilishidan hosil bo'ladigan tovush haqida (II.144)	Taq. Ikki qattiq narsaning bir-biriga zarb bilan urilishidan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (IV.33)
Taqa-taq. Bir me'yordagi tez harakatdan, urilishdan hosil bo'ladigan ovoz, shovqin haqida (II.145)	Taqa-taq. Bir me'yordagi tez harakatdan, urilishdan hosil bo'ladigan ovoz, shovqinni bildiradi (IV.34)

Tiz. Tiz-tiz. Kuch bilan otilib chiqayotgan suyuqlik jarayoni va bunda eshitiladigan tovush haqida (II.170)	Tiz. Suyuqlik kuch bilan otilib chiqayotganda eshitiladigan tovushga taqlidni bildiradi (IV.83) Tiz-tiz berilmagan
Ting'. Ting'-ting'. Ting'ir-ting'ir. Torli muzika asboblari torini chertganda chiqadigan tovush haqida (II.182)	Ting'. Ting'-ting'. Ting'ir-ting'ir. Torli muzika asboblari torini chertganda chiqadigan tovushni bildiradi (IV.106)
Tir. Tir-tir. <i>Aynan tirr</i> (II.183) Tir-tir. (II.187)	Tir. Tir-tir. Yangi lug'atda berilmagan
Tirr. Latta, qog'oz yirtilganda chiqadigan tovush haqida (II.187)	Tirr. Latta, qog'oz yirtilganda chiqadigan tovushni bildiradi (IV.114)
Tirs. Tirs-tirs. Cho'g'dan uchqun otilganda, ip uzilganda chiqadigan keskin, kuchsiz tovush haqida (II.187)	Tirs. Cho'g'dan uchqun otilganda, ip uzilganda chiqadigan keskin, kuchsiz tovush haqida (IV.114) Tirs-tirs berilmagan
Tiq. Tiq-tiq. Narsalarning urilishidan hosil bo'ladigan bo'g'iqroq kuchsiz tovush haqida (II.190)	Tiq. Tiq-tiq. Narsalarning tegishi, urilishidan hosil bo'ladigan bo'g'iqroq kuchsiz tovush haqida (IV.120)
Tiqir-tiqir. Qattiq narsaga kuchsizroq urish yoki urilish natijasida hosil bo'ladigan qisqa-qisqa, keskin kuchsiz ovoz haqida (II.191)	Tiqir-tiqir. Qattiq narsaga kuchsizroq urish yoki urilish natijasida hosil bo'ladigan qisqa-qisqa, keskin kuchsiz ovoz haqida (IV.122)
Tuq. Qattiq narsalarning urilishidan hosil bo'ladigan bo'g'iq tovush haqida (II.240)	Tuq. Qattiq narsalarning urilishidan hosil bo'ladigan bo'g'iq tovushni bildiradi (IV.224)
To'p. To'p-to'p. Yumshoq narsaning yerga urilishidan chiqadigan kuchsiz	To'p. Yumshoq narsaning yerga urilishidan chiqadigan kuchsiz tovush

tovush haqida (II.)	haqida (IV.241) To’p-to’p berilmagan
To’q. To’q-to’q. Bo’shroq narsalarning urilishidan hosil bo’ladigan ochiq tovush haqida (II.257)	To’q. Bo’shroq narsalarning urilishidan hosil bo’ladigan tovush haqida (IV) To’q-to’q berilmagan
Uxu. Yo’tal tovushini ifodalaydi (II.285)	Uxu. Yo’tal tovushini ifodalaydi (IV.305)
Vavag’. 1.Bedananing sayrashi haqida. 2. Baqirib, vag’illab gapiradigan odam haqida (I.169)	Vavag’. 1.Bedana sayraganida eshitiladigan ovozni, unga taqlidni bildiradi. 2. Biron jihatiga (bedanaga ishqibozligi yoki boshqa xususiyatiga) ko’ra kishi nomiga qo’shib, laqab sifatida ishlatiladi (I.430)
Viz. Tez aylanuvchi va umuman tez harakat qiluvchi narsa hosil qiladigan tovush haqida (I.178)	Viz. Tez aylanuvchi va umuman tez harakat qiluvchi narsa hosil qiladigan tovush va unga taqlidni bildiradi (I.459)
Vit. Bedana va sh.k. qushlarning ovozi haqida (I.178)	Vit. Bedana va sh.k. qushlarning ovozi haqida (I.462)
Vish. Cho’ziq «sh» tarzidagi turli tovushlar haqida (I.179)	Vish. Cho’ziq «sh» tarzidagi tovush va unga taqlidni bildiradi (I.463)
Vov. Itning vovillashi, hurishi haqida (I.179)	Vov. It vovillaganda chiqaradigan tovushni va unga taqlidni bildiradi (I.464)
Zir. Zir-zir. Larzadan tebranuvchi	Zir. Zir-zir. Larzadan tebranuvchi

narsalarning harakati va tovushi haqida (I.307)	narsalarning harakati va tovushi haqida <i>Eslatma:</i> birinchi nashrda ushbu taqlid soʻzdan hosil boʻlgan <i>zirillatmoq</i> , <i>zirillashmoq</i> elementlari ikkinchisida chiqarib tashlangan (II.153-155)
O'ho' . Yo'tal tovushini ifodalaydi (II.530)	O'ho' . Yo'tal tovushini ifodalaydi (V.195)
G'ars. dial. Aynan qars (II.653)	G'ars yangi lug'atda berilmagan.
G'art. G'art-g'art. Keskin ishqalanish yoki urinishdan kelib chiqadigan yo'g'on, dag'al tovush haqida (II.653)	G'art. Keskin ishqalanish yoki urinishdan kelib chiqadigan yo'g'on, dag'al tovushni bildiradi (V.438) G'art-g'art yangi lug'atda berilmagan.
	G'art-g'urt. «G'art» va shunga yaqin tovushlarni bildiradi. (V.439)
G'arch. G'arch-g'arch. G'arch-g'urch. Mo'rt, kuvrak narsani chaynaganda, bosganda, sindirganda chiqadigan tovush haqida. (II.654)	G'arch. Mo'rt, kuvrak narsani chaynaganda, bosganda, sindirganda chiqadigan tovushni bildiradi (V.439) G'arch-g'arch yangi lug'atda berilmagan.
	G'arch-g'urch. «G'arch» va shunga yaqin tovushlarni bildiradi. (V.439)
G'arg'ara. 1. Suvni og'izda tutib, tomoqni chayilganda chiqadigan tovush haqida 2. O'lim oldidan tomoqdan chiqadigan xirqiroq tovush haqida (II.654)	G'arg'ara. 1.Suv yoki boshqa suyuq narsani og'izda tutib, tomoqni chayganda chiqadigan tovushni bildiradi. 2. O'lim oldidan tomoqdan chiqadigan xirqiroq tovush (V.440)
G'at. G'at-g'at. G'at-g'ut. Karnay,	G'at. Karnay, mashina signali

mashina signali kabilarning tovushi haqida (II.654)	kabilarning tovushini bildiradi (V.440) G’at-g’at. G’at-g’ut yangi lug’atda berilmagan.
G’aq. G’aq-g’aq. G’aq-g’uq. O’rdak yoki qarg’a-quzg’unlar tovushi haqida (II.655)	G’aq. O’rdak yoki qarg’a-quzg’unlar tovushini bildiradi (V.441) G’aq-g’aq yangi lug’atda berilmagan.
	G’aq-g’uq. «G’aq» va shunga yaqin tovushlarni bildiradi. (V.442)
G’ag’. G’ag’-g’ag’. <i>Aynan g’aq</i> (II.655)	G’ag’ yangi lug’atda berilmagan.
G’ijbang. Childirmaning jarangdor ovozi haqida (II.656)	G’ijbang. <i>Qarang gijbang</i> (V.443)
G’ijir. Qattiq narsalarning bir-biriga ishqalanishidan hosil bo’ladigan yoqimsiz tovush haqida (II.657)	G’ijir. Qattiq narsalarning bir-biriga ishqalanishidan hosil bo’ladigan yoqimsiz tovushni bildiradi (V.444) G’ijir-g’ijir. yangi lug’atda berilmagan.
G’ij-g’ij. <i>Aynin g’ijir-g’ijir.</i> (II.657)	G’ij-g’ij. <i>Aynin g’ijir-g’ijir.</i> (V.444) Ammo g’ijir-g’ijir yangi lug’atda berilmagan.
G’iz. G’iz-g’iz. Otilganda, tez uchishdan hosil bo’ladigan tovush haqida (II.657)	G’iz. 1. Juda tez yo’nalishdagi, uchayotgan narsaning tovushini bildiradi. 2. Tez, g’izillab (V.444) G’iz-g’iz yangi lug’atda berilmagan.
G’iyt. G’iyt-g’iyt. Yog’och, temir kabi narsalarning ishqalanishidan hosil bo’ladigan tovush haqida (II.657)	G’iyt. Yog’och, temir kabi narsalarning ishqalanishidan hosil bo’ladigan tovushni bildiradi (V.445) G’iyt-g’iyt yangi lug’atda berilmagan.

G'iych. <i>Aynan g'iyt</i> (II.657)	G'iych. <i>Aynan g'iyt</i> (V.445)
G'iyq. <i>Aynan g'iyt</i> (II.657)	G'iyq. <i>Aynan g'iyt</i> (V.445)
G'ilt. G'ilt-g'ilt. Suyuqlikni yutayotganda tomoqda hosil bo'ladigan tovush haqida (II.658)	G'ilt. Suyuqlikni yutayotganda tomoqda hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (V.446) G'ilt-g'ilt yangi lug'atda berilmagan.
G'ilq. G'ilq-g'ilq. <i>Aynan g'ilt</i> (II.658)	G'ilq. <i>Aynan g'ilt</i> (V.447) G'ilq-g'ilq yangi lug'atda berilmagan.
G'ing. G'ing-g'ing, g'ing-ping Pashsha, ari kabi qanotli hasharotlarning ovozi haqida (II.659)	G'ing. Pashsha, ari kabi qanotli hasharotlarning uchgandagi ovozini bildiradi (V.447) G'ing-g'ing, g'ing-ping yangi lug'atda berilmagan.
G'ir. G'ir-g'ir. Narsaning tez aylanishi yoki tez harakat qilishi tufayli hosil bo'ladigan tovush haqida (II.659)	G'ir. G'ir-g'ir. Narsaning tez aylanishi yoki tez harakat qilishi tufayli hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (V.448)
G'irt. G'irt-g'irt. Kesish, uzish yoki ishqalanishdan hosil bo'ladigan keskin tovush haqida (II.660)	G'irt. Kesish, uzish yoki ishqalanishdan hosil bo'ladigan keskin tovushni bildiradi (V.450) G'irt-g'irt yangi lug'atda berilmagan
G'irch. G'irch-g'irch. <i>Aynan g'irt</i> (II.660)	G'irch. <i>Aynan g'irt</i> (V.450) G'irch-g'irch yangi lug'atda berilmagan.
G'it. <i>Aynin g'iyt</i> (II.660)	G'it. <i>Aynin g'iyt</i> (V.451)
G'ichir. G'ichir-g'ichir. <i>Aynin g'irch.</i> (II.661)	G'ichir. <i>Aynin g'irch.</i> (V.450) G'ichir-g'ichir yangi lug'atda berilmagan.
G'iq. G'iq-g'iq. 1. Tomoqqa biror	G'iq. 1. Tomoqqa biror narsa

narsa tiqilganda, bo'g'ilganda, havo olish qiyin bo'lganda hosil bo'ladigan tovush haqida 2. <i>aynan g'iyt</i> (II.661)	tiqilganda, bo'g'ilganda, nafas olish qiyin bo'lganda hosil bo'ladigan tovushni bildiradi. 2. <i>aynan g'iyt</i> (V.451)
G'uv. G'uv-g'uv. Shamol yoki undan hosil bo'ladigan ovoz haqida (II.663)	G'uv. G'uv-g'uv. Shamol yelganda va ba'zi narsalar uchganda, aylanganda chiqadigan tovushni, shuningdek, ba'zi qushlarning tovushini bildiradi (V.456)
G'o'ng. G'o'ng-g'o'ng. Qo'ng'iz, qovog'ari kabi hasharotlar tovushi haqida (II.667)	G'o'ng. Qo'ng'iz, qovog'ari kabi hasharotlar tovushini bildiradi (V.464) G'o'ng-g'o'ng yangi lug'atda berilmagan.
Shalop. Shalop-shalop. Shalop-shulup. Biror narsaning suv, loy kabi suyuqlikka to'satdan tushib ketishidan hosil bo'ladigan tovushlar haqida (II.394)	Shalop. Katta va og'ir narsalarning suvga, loyga to'satdan tushishidan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (IV.539) Shalop-shalop. Shalop-shulup yangi lug'atda berilmagan.
Shalp. Shalp-shalp. Shalp-shulp. Yumshoq, ho'l narsaning yerga tushib urilishidan hosil bo'ladigan ovoz haqida (II.395)	Shalp. 1. Yumshoq, ho'l narsaning yerga yoki boshqa narsaga urilishidan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi 2. <i>aynan shalop</i> (IV.540) Shalp-shalp. Shalp-shulp yangi lug'atda berilmagan.
	Shapir-shupur. Suvga narsaning ketma-ket urilishi bilan chiqadigan bir-biriga yaqin tovushni («shapir» va shunga yaqin tovushlarni) bildiradi

	(IV.545)
	Shap-shup. «Shap» va shunga yaqin tovushni bildiradi (IV.545)
Shar. Shar-shar. 1.Gazmolning kuch bilan yirtilishidan hosil bo'ladigan tovush haqida. 2. Suyuqlikning shiddat bilan oqishidan hosil bo'ladigan tovush haqida (II.397)	Shar. 1.Gazmolning kuch bilan yirtilishidan hosil bo'lgan tovushni bildiradi. 2. Suyuqlikning shiddat bilan oqishidan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (IV.546) Shar-shar yangi lug'atda berilmagan.
Sharaq. Sharaq-sharaq. Sharaq-shuruq. Tosh, temir kabi qattiq narsalarning o'zaro yoki boshqa qattiq narsaga urilishidan hosil bo'ladigan ovoz haqida (II.398)	Sharaq. Sharaq-sharaq. Sharaq-shuruq. Tosh, temir kabi qattiq narsalarning o'zaro yoki boshqa qattiq narsaga urilishidan hosil bo'ladigan ovozni bildiradi (IV.546)
Shart. Shart-shart. Shart-shurt. 1.Keskin harakat yoki biror bir narsaning urilishi yoki uzilishidan hosil bo'ladigan ovoz haqida 2. <i>aynan shartta.</i> (II.400)	Shart. Shart-shurt. Biror bir narsaning urilishi yoki uzilishidan hosil bo'ladigan ovozni bildiradi (IV.551) Shart-shart yangi lug'atda berilmagan.
	Shart-shurt. «Shart» va shunga yaqin tovushni (tovushlarni) bildiradi (IV.551)
Shatir. Shatir-shatir. Shatir-shutur. 1. Quruq shox-shabba, qamish kabilarning harakatga kelishidan hosil bo'ladigan tovush. 2.O'ylab o'tirmay, dabdurustdan,	Shatir. Quruq shox-shabba, qamish kabilarning harakatga kelishi, suv, yomg'ir kabilarning urilishidan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (IV.554) Shatir-shatir yangi lug'atda

to'satdan (II.402)	berilmagan.
	Shatir-shutur. «Shatir» va shunga yaqin tovushlarni bildiradi (IV.554)
	Shatira-shutur <i>aynan</i> Shatir-shutur (IV.554)
Shaq. Shaq-shaq. Shaq-shuq. Qattiq urilishdan hosil bo'ladigan ovoz haqida (II.404)	Shaq. Qattiq urilishdan hosil bo'ladigan ovozni bildiradi (IV.559) Shaq-shaq yangi lug'atda berilmagan.
	Shaq-shuq. «Shaq» va shunga yaqin tovushni bildiradi (IV.560)
Shaqir-shaqir. Shaqir-shuqur. Toshlar, temir parchalari va sh.k.larning bir-biriga urilishi yoki suyuqlikning qattiq qaynashidan hosil bo'ladigan tovush haqida (II.405)	Shaqir-shaqir yangi lug'atda berilmagan.
	Shaqir-shuqur «Shaqir» va shunga yaqin tovushni bildiradi (IV.560)
Shivir. Shivir-shivir. Juda past ovoz bilan gapirish (II.408)	Shivir. So'zlayotganda, ayrim narsalarning yengil harakatida bir-biriga tegishidan chiqadigan kuchsiz tovushni bildiradi (IV.566) Shivir-shivir yangi lug'atda berilmagan.
Shildir. Shildir-shildir. Shildiragan ovoz haqida (II.411)	Shildir. Narsalarning yengil urilishidan yoki suv oqishidan chiqadigan tovushni bildiradi (IV.570) Shildir-shildir yangi lug'atda

	berilmagan.
Shilp. <i>Aynan shilt</i> (II.411)	Shilp. <i>Aynan shilt</i> (IV.571)
Shilt. Shilt-shilt. 1. <i>taql.s.</i> Yumshoq narsaga, mas. Badanga qamchi, novda va sh.k. bilan urganda hosil bo'ladigan tovush haqida 2. <i>tasv.s.</i> Tez, lip etib sodir bo'ladigan harakat haqida (II.411)	Shilt. Harakatning tez va keskin holatini bildiradi (IV.571) Shilt-shilt yangi lug'atda berilmagan.
Shilq. Shilq-shilq. Yumshoq narsa urilganda yoki yopiq idishdagi suyuqlik chayqalganda hosil bo'ladigan tovush haqida (II.412)	Shilq. Biror narsa urilganda yoki yopiq idishdagi suyuqlik chayqalganda hosil bo'ladigan ohista tovushni bildiradi (IV.572) Shilq-shilq yangi lug'atda berilmagan.
Ship. Ship-ship. Yengil qadam tashlab yurganda yoki qog'oz ishqalaganda hosil bo'ladigan kuchsiz uzuq tovush haqida (II.414)	Ship. Yengil qadam tashlab yurganda yoki qog'oz ishqalaganda hosil bo'ladigan kuchsiz uzuq tovushni bildiradi (IV.575) Ship-ship yangi lug'atda berilmagan.
Shir. Shir-shir. Yupqa gazmol yirtilganda hosil bo'ladigan tovush haqida (II.415)	Shir. Yupqa gazmol yirtilganda, suv oqqanda hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (IV.577) Shir-shir yangi lug'atda berilmagan.
Shiriq. Metall, shisha parchalari kabi narsalarning bir-biriga urilishidan hosil bo'ladigan tovush haqida (II.417)	Shiriq. Metall, shisha parchalari kabi narsalarning bir-biriga urilishidan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (IV.580)
Shirt. Shirt-shirt. Ip, barg kabilar uzilganda yoki qirqilganda hosil bo'ladigan qisqa tovush haqida (II.417)	Shirt. Ip, barg kabilar uzilganda yoki qirqilganda chiqadigan qisqa tovushni bildiradi (IV.581)

	Shirt-shirt yangi lug'atda berilmagan.
Shirq. Shirq-shirq. <i>Aynan shiriq</i> (II.417)	Shirq. <i>Aynan shiriq</i> (IV.581). Shirq-shirq yangi lug'atda berilmagan.
Shitir. Shitir-shitir. Quruq o't, shox-shabba, qog'oz va sh.k.ning qo'zg'alishidan hosil bo'ladigan tovush haqida (II.418)	Shitir. Shitir-shitir. Quruq o't, shox-shabba, qog'oz va sh.k.ning qo'zg'alishidan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (IV.581) Shitir-shitir yangi lug'atda berilmagan.
Shiq. Shiq-shiq. Mo'rt narsa singanda yoki ikki qattiq narsa bir-biriga urilganda hosil bo'ladigan tovush haqida (II.419)	Shiq. Mo'rt narsa singanda yoki ikki qattiq narsa bir-biriga urilganda hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (IV.585) Shiq-shiq yangi lug'atda berilmagan.
Shiqir. Shiqir-shiqir. <i>Aynan shiriq.</i> (II.419)	Shiqir. <i>Aynan shiriq</i> (IV.585) Shiqir-shiqir yangi lug'atda berilmagan.
Shov. Shov-shuv. Suyuqlikning shiddat bilan tez tushishida hosil bo'ladigan tovush haqida (II.420)	Shov. Suyuqlikning shiddat bilan tez tushishida hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (IV.587)
	Shov-shuv. «Shov» va shunga yaqin tovushni bildiradi (IV.588)
	Shovur. «Shov» va shunga yaqin aralash tovushni bildiradi (IV.588)
Shovur-shuvur. Har xil harakat tufayli hosil bo'ladigan tovush haqida (II.412)	Shovur-shuvur. Mazmuni noaniq bo'lgan gap - so'z tovushlarini bildiradi (IV.588)
Shuv. Bo'g'iq shippillovchi tovush haqida (II.430)	Shuv. Bo'g'iq shippillovchi tovushni bildiradi (IV.605)
Sho'lp. Og'ir narsa suyuqlikka	Sho'lp. Og'ir narsa suyuqlikka

tushganda, tashlanganda hosil bo'ladigan tovush haqida (II.434)	tushganda, shuningdek, suv qirg'oqqa yoki boshqa narsaga urilganda hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (V.11)
Sho'lq. Suyuqlik yopiq idish ichida chayqalganda hosil bo'ladigan tovush haqida (II.434)	Sho'lq. Suyuqlik yopiq idish ichida chayqalganda hosil bo'ladigan tovush (V.11)
Sho'p. <i>Aynan sho'lp</i> (II.434)	Sho'p. <i>Aynan sho'lp</i> (V.11)
Chak. Chak-chak. Tomchining urilishidan hosil bo'ladigan tovush haqida (II.350)	Chak. Chak-chak. Tomchining urilishidan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi (IV.446)
Chalp. Chalp-chalp. Chalp-chulp. Ovqat yeganda, loy kechganda chiqadigan va sh.k. tovushlar haqida (II.352)	Chalp. Chalp-chalp. Chalp-chulp. Ovqat chaynaganda, loy kechganda chiqadigan va sh.k. tovushlar haqida (IV.451)
Chap. <i>Aynan chalp</i> (II.355). chap-chap (II.356)	Chap. <i>Aynan chalp</i> (IV.458). chap-chap (IV.460)
Chars. Chars-chars. Chars-churs. Muz, oyna, chinni kabi narsalarning sinishidan chiqadigan tovushlar haqida (II.357)	Chars. Chars-chars. Chars-churs. Muz, oyna, chinni kabi narsalarning sinishidan chiqadigan tovushlar haqida (IV.461)
Chip. Chip-chip. Yalpoq narsalarning asta urilishida, yopishqoq narsalarning ko'chishida chiqadigan tovushlar haqida (II.370)	Chip. Chip-chip. Yalpoq narsalarning asta urilishida, yopishqoq narsalarning ko'chishida chiqadigan tovushlarni ifodalaydi (IV.489)
Chirk. Chirk-chirk. Chirqillaydigan qush va hashoratlarning ovozi haqida (II.371)	Chirk. Chirk-chirk. Chirqillaydigan qush va hashoratlarning ovozini bildiradi (IV.492)
Chirs. Chirs-chirs. Shisha, muz va	Chirs. Chirs-chirs. Shisha, muz va

sh.k.ning sinishidan, quruq o'tinning yonishidan chiqadigan kuchsiz tovushlar haqida (II.373)	sh.k.ning sinishidan, quruq o'tinning yonishidan chiqadigan kuchsiz tovushlarni bildiradi (IV.494)
Chirt. Chirt-chirt. Ip uzilishi, cho'pning sinishi va sh.k.dan hosil bo'ladigan keskin tovushlar haqida (II.373)	Chirt. Chirt-chirt. Ip uzilishi, cho'pning sinishi va sh.k.dan hosil bo'ladigan keskin tovushlarni ifodalaydi (IV.494)
Chirq. Chirq-chirq. Qushlarning chirqillashi, ba'zi mayda narsalarning urilishi va sh.k.dan hosil bo'ladigan tovushlar haqida (II.373)	Chirq. Chirq-chirq. Qushlarning chirqillashi, ba'zi mayda narsalarning urilishi va sh.k.dan hosil bo'ladigan tovushlarni ifodalaydi (IV.495)
Chitir. Chitir-chitir. Quruq xashak yonganda chiqadigan tovushga o'xshash kuchsiz tovush haqida (II.373)	Chitir. Chitir-chitir. Quruq xashak yonganda chiqadigan tovushga o'xshash kuchsiz tovushlarni bildiradi (IV.496)
Chiq. Chiq-chiq. Tomchining urilishi, ba'zi qushlarning sayrashi va sh.k.ga o'xshash tovushlar haqida (II.373)	Chiq. Chiq-chiq. Ba'zi qushlarning sayrashi, yengil narsalarning biror narsaga urilishidan chiqqan va shunga o'xshash tovushlarni ifodalaydi (IV.496)
Chiqir. Chiqir-chiqir. Mayda tosh, chinni yoki kichik metall buyumlarning bir-biriga urilishi va sh.k.ga o'xshash tovushlar haqida (II.374)	Chiqir. Chiqir-chiqir. Mayda tosh, chinni yoki kichik metall buyumlarning bir-biriga urilishi va sh.k.ga o'xshash tovushlarni ifodalaydi (IV.497)
Chig'. Chig'-chig'. Ba'zi qushlarning ovozi haqida (II.375)	Chig'. Chig'-chig'. Ba'zi qushlarning ovozini bildiradi (IV.501)
Churr. Qorovul hushtagi ovoziga o'xshash tovushlar haqida (II.383)	Churr. Hushtak ovoziga o'xshash tovushlarni ifodalaydi (IV.517)

Chug'ur. Chug'ur-chug'ur. Ba'zi qushlarning baravar sayrashidan chiqadigan qorishiq ovozlari haqida (II.384)	Chug'ur. Chug'ur-chug'ur. Ba'zi qushlarning baravar sayrashidan chiqadigan qorishiq ovozlarni ifodalaydi (IV.519)
Cho'lp. Cho'lp-cho'lp. Narsalarning suvga urilishi, bo'sa olish va sh.k. harakatlarda hosil bo'ladigan tovushlar haqida (II.387)	Cho'lp. Cho'lp-cho'lp. Narsalarning suvga urilishi, bo'sa olish va sh.k. harakatlarda hosil bo'ladigan tovushlarni bildiradi (IV.523)

O'TILning har ikkala nashrining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Har bitta taqlidiy so'zga baho berish ishimizning hajmini oshirib yuborishini hisobga olib, ularni umumlashtirishga harakat qilamiz.

Bizningcha, har ikkala lug'at o'rtasidagi xarakterli farqlar quyidagicha:

1. O'TILning 1-nashrida izoh birmuncha mavhum, uslubiy jihatdan g'aliz berilgan holatlar 2-nashrida tuzatilgan va to'ldirilgan. Masalan:

-adi-badi. 1-nashrda: *adi-badi aytishmoq*; 2-nashrda: *bir-biriga tegadigan gap-so'z, vaqtni behudaga o'tkazib aytishish, behuda tortishuv*;

-ba-ba. 1-nashrda: *Qo'ylarning ma'rashi haqida*; 2-nashrda: *Qo'ylar ma'ragandagi tovushni ifodalaydi*;

-bitbidiq. 1-nashrda: *Bedananing sayrashi haqida*. 2-nashrda:

1. *Bedananing sayrashiga taqlid*. 2. *Laqab vazifasida keladi*;

-vavag'. 1-nashrda: 1. *Bedananing sayrashi haqida*. 2. *Baqirib, vag'illab gapiradigan odam haqida*; 2-nashrda: 1. *Bedana sayraganida eshitiladigan ovozni, unga taqlidni bildiradi*. 2. *Biron jihatiga (bedanaga ishqibozligi yoki boshqa xususiyatiga) ko'ra kishi nomiga qo'shib, laqab sifatida ishlatiladi*;

-viz. 1-nashrda: *Tez aylanuvchi va umuman tez harakat qiluvchi narsa hosil qiladigan tovush haqida*; 2-nashrda: *Tez aylanuvchi va umuman tez harakat qiluvchi narsa hosil qiladigan tovush va unga taqlidni bildiradi*;

-vish. 1-nashrda: *Cho'ziq «sh» tarzidagi turli tovushlar haqida*; 2-nashrda: *Cho'ziq «sh» tarzidagi tovush va unga taqlidni bildiradi*;

-vov. 1-nashrda: *Itning vovillashi, hurishi haqida*; 2-nashrda: *It vovillaganda chiqaradigan tovushni va unga taqlidni bildiradi*;

-gurs. 1-nashrida: *Zarb bilan urilgan og'ir narsa ovozi haqida*; 2-nashrida: *Zarb bilan urish, urilish natijasida chiqadigan bo'g'iq ovoz*.

-do'q. 1-nashrida: *Jarangsiz narsalarning urilishidan hosil bo'lgan ovoz haqida*; 2-nashrida: *Jarangsiz narsalarning urilishidan hosil bo'lgan ovoz*;

-puf. 1-nashrida: *Ikki lab orasidan kuchli bosim bilan havo chiqarganda eshitiladigan tovush va shu harakatning o'zi haqida*; 2-nashrida: *Nafas olish, o'tni o'chirish yoki alangalatish va issiq narsani sovutishda ikki lab orasidan kuchli bosim bilan havo chiqishida eshitiladigan tovush va shu harakatning o'zi haqida*;

-tar. 1-nashrida: *Tarillagan ovoz haqida*. 2-nashrida: *Ba'zi narsalarning yirtilishida yoki ba'zi asboblarning ishlatilishida chiqadigan tovushni bildiradi*;

-chip. Chip-chip. 1-nashrida: *Yalpoq narsalarning asta urilishida, yopishqoq narsalarning ko'chishida chiqadigan tovushlar haqida*; 2-nashrida: *Yalpoq narsalarning asta urilishida, yopishqoq narsalarning ko'chishida chiqadigan tovushlarni ifodalaydi*;

-chirt. Chirt-chirt. 1-nashrida: *Ip uzilishi, cho'pning sinishi va sh.k.dan hosil bo'ladigan keskin tovushlar haqida*; 2-nashrida: **Chirt. Chirt-chirt.** *Ip uzilishi, cho'pning sinishi va sh.k.dan hosil bo'ladigan keskin tovushlarni ifodalaydi va hokazo*.

Darhaqiqat, 1-nashrda **bitbildiq** va **vavag'** so'zlarining izohi *bedananing sayrashiga* haqida; **do'q** so'zining izohi *jarangsiz narsalarning urilishidan hosil bo'lgan ovoz haqida*; **tar** ning *tarillagan ovoz haqida* tarzida izohlanishi bu taqlid so'zlarning ma'nosini to'laligicha qamrab ololmagan, mavhum ifoda qilingan. 2-nashrida bu jihatlarga aniqlik kiritilgan: **bitbildiq, vavag'** - *bedananing sayrashiga taqlid*, **do'q** - *Jarangsiz narsalarning urilishidan hosil bo'lgan ovoz*, **tar** - *Ba'zi*

narsalarning yirtilishida yoki ba'zi asboblarning ishlatilishida chiqadigan tovushni bildiradi tarzida izohlangani maqsadga muvofiq bo'lgan.

2. O'TILning birinchi nashrida muayyan taqlid so'zdan hosil bo'lgan birliklar ikkinchi nashrida chiqarib tashlangan. Masalan:

- guldur**: *gulduratmoq, guldurashmoq;*
- gur**: *gurillatmoq, gurkiratmoq;*
- gursi**: *gursillatmoq;*
- dikir**: *dikirlatmoq;*
- dukur**: *dukurlatmoq;*
- zir**: *zirillatmoq, zirillashmoq;*
- milm**: *miltiratmoq;*
- shaq**: *shaqillatmoq, shaqillashmoq, shaqirlatmoq;*
- qiyq**: *qiyqiratmoq kabi*

3. O'TILning birinchi nashrida bir ma'no ostida izohlangan so'zlar ikkinchisida ajratilgan va har birining ma'nolari alohida izohlangan. Masalan:

- 1-nashrida: **dir/dir(r)**. *Tebranish natijasida hosil bo'ladigan harakat va tovush haqida;*
- 2-nashrida: a) **dir**. *Silkinib qaltirash, titrash tufayli hosil bo'ladigan tovushga taqlid;* b) **dir(r)**. *Tebranish natijasida hosil bo'ladigan ana shunday harakat va tovush haqida.*

4. Yoki aksincha, O'TILning birinchi nashrida ma'nolari ajratib izohlangan taqlidiy so'zlar ikkinchi nashrida umumlashtirilgan. Masalan:

-**shatir**. 1-nashrida: 1. *Quruq shox-shabba, qamish kabilarning harakatga kelishidan hosil bo'ladigan tovush;* 2. *O'ylab o'tirmay, dabdurustdan, to'satdan;* 2-nashrida: *Quruq shox-shabba, qamish kabilarning harakatga kelishi, suv, yomg'ir kabilarning urilishidan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi kabi.*

5. O'TILning har ikkalasida ham izoh bir xilda berilgan. Masalan:

- vit**. *Bedana va sh.k. qushlarning ovozi haqida;*
- gijbang**. *Childirmaning baralla yangragan ovozi haqida;*

-guv. *Shiddatli harakat, yonish va shu kabi paytlarda chiqadigan bo'g'iq tovush haqida;*

-guldur. Guldur-guldur. *Momaqalldiroq singari gulduragan tovush haqida;*

-gur. *Birdan boshlanadigan shiddatli harakat va undan chiqadigan tovush haqida;*

-dakang. *Childirmaning ikki zarbda chiqargan ovozi haqida;*

-dikir. *Dik-dik harakat haqida;*

-ding'. *Torni chertganda chiqadigan tovush haqida;*

-ding'ir. *«Ding'» tarzida eshitilgan uzluksiz ovoz haqida;*

-do'pir. *Do'pillagan ovoz haqida;*

-jiring. *Metall, chinni, shisha buyumlarning urilishidan chiqadigan nozik tovush haqida;*

-jig'. *Qaynay deb turgan samovar, qumg'on va sh.k.dan chiqadigan tovush haqida;*

-zir. Zir-zir. *Larzadan tebranuvchi narsalarning harakati va tovushi haqida;*

-ing. *Chaqaloqning yig'isiga o'xshash ovoz haqida;*

-likang-likang. *Goh u tomonga, goh bu tomonga tashlanib, qimirlab, likillab turishni ifodalaydi;*

-lov. Lov-lov. *Kuchli alanga hamda shu alangadan chiqayotgan tovushni bildiradi;*

-pov. Pov-pov. *Shiddatli jarayon, tez yonish va sh.k.da chiqadigan tovush haqida;*

-po'k. Po'k-po'k. *Ichi bo'sh yoki kavak narsani urganda, qizdirilmagan childirmani chertganda, yurak tepishi va shu kabi hollarda chiqadigan tovush haqida;*

-to'p. To'p-to'p. *Yumshoq narsaning yerga urilishidan chiqadigan kuchsiz tovush haqida;*

-uxu. *Yo'tal tovushini ifodalaydi;*

-o'xo'. Yo'tal tovushini ifodalaydi;

-hov. It hurgandagi ovozni ifodalaydi kabi.

6. O'TILning ikkinchi nashriga taqlidiy so'z sifatida kiritilmagan birliklar.

Masalan: *ix, tir, shalp, g'ars, g'ag'* va boshqalar.

Bu so'zlar asosan taqlidiy so'zlarning takroriy shaklidir: *ix-ix, liq-liq, liqqa-liqqa, liqang-liqang, lov-lov, lop-lop, milt-milt, tappa-tappa, taraq-taraq, tars-tars, tiz-tiz, tir-tir, tirs-tirs, to'p-to'p, to'q-to'q, shalop-shalop, shalop-shulup, shalp-shalp, shalp-shulp, shar-shar, shart-shart, shatir-shatir, shaq-shaq, shaqir-shaqir, shivir-shivir, shildir-shildir, shilt-shilt, shilq-shilq, ship-ship, shir-shir, shirt-shirt, shirq-shirq, shitir-shitir, shiq-shiq, shiqir-shiqir, qarr-qarr, qars-qars, qars-qurs, qag'-qag', qag'-qug', qirr-qirr, g'art-g'art, g'arch-g'arch, g'at-g'at, g'at-g'ut, g'aq-g'aq, g'ijir-g'ijir, g'iz-g'iz, g'iyt-g'iyt, g'ilt-g'ilt, g'ilq-g'ilq, g'ing-g'ing, g'ing-ping, g'irt-g'irt, g'irch-g'irch, g'ichir-g'ichir, g'o'ng-g'o'ng* kabi. Ularning kiritilmasligi, bizningcha, lug'atning ikkinchi nashrini kambag'allashtirgan. Masalan, keyingi **taraq-taraq** juftligini olib qaraylik. Ikki quruq narsaning bir-biriga qattiq urilishidan chiqqan tovushni bildiradigan *taraq* taqlidiy so'zidan *taraqlamoq* fe'li yasaladi, *tarag'ingni yig'ishtir* tarzida ot yasab bo'lmaydi, uslubiy g'ilizlik kelib chiqadi. *Taraq-taraq* dan esa, *taraq-taraq qilmoq, taraq-taraq etmoq* tarzida fe'l, *taraq-tarag'ingni yig'ishtir* singari gaplar tarkibida ot yasalaveradi.

Ammo uning yangi O'TILda *taraq(a)-turuq* tarzida alohida so'z sifatida berilganligi va ««*taraq*» va shunga yaqin tovushlarni bildiradi», deb izohlanganligi maqsadga muvofiq bo'lgan. Bu taqlidiy so'zlar sirasiga *tars-turs, shap-shup, shaq-shuq, shov-shuv, g'art-g'urt, g'aq-g'uq* kabi birliklarni ham kiritish mumkin. chunki ular adohida so'z sifatida izohlangan.

7. O'TILning ikkinchi nashrida alohida birlik sifatida ajratib berilgan taqlidiy so'zlar. Masalan:

-**shapir-shupur** - suvga narsaning ketma-ket urilishi bilan chiqadigan bir-biriga yaqin tovushni («*shapir*» va shunga yaqin tovushlarni) bildiradi;

-shap-shup - «shap» va shunga yaqin tovushni bildiradi;
-shart-shurt - «shart» va shunga yaqin tovushni (tovushlarni) bildiradi;
-shatir-shutur / shatira-shutur - «shatir» va shunga yaqin tovushlarni bildiradi;

-shaq-shuq - «shaq» va shunga yaqin tovushni bildiradi;
-shov-shuv - «shov» va shunga yaqin tovushni bildiradi;
-shovur - «shov» va shunga yaqin aralash tovushni bildiradi;
-g'art-g'urt - «g'art» va shunga yaqin tovushlarni bildiradi;
-g'arch-g'urch - «g'arch» va shunga yaqin tovushlarni bildiradi;
-g'aq-g'uq. - «g'aq» va shunga yaqin tovushlarni bildiradi va boshqalar.

8. O'TILning ikkinchi nashrida taqlidiy so'z (taql.s) belgisi qo'yilmagan birliklar. Masalan:

-liq;
-lip. Lip-lip;
-tappa singari.

Ularning ko'lamini *ak-ak, alg'ov-dalg'ov, ar-ar, baqir-buqur, bag'-bug', bez-bez, bilang-bilang, visir-visir, gangur-gungur, gir-gir, dag'-dag', jilpang-jilpang, jimir-jimir, jiq-jiq, jiqqa-jiqqa, zirq-zirq, ilang-bilang, ipir-ipir, yilt, yilt-yilt, kuf, kuf-suf, lang, lim, lim-lim, limmo-lim, pil-pil, pitpildiq, pitpiliq, pichir, pichir-pichir, suf, suf-kuf, tors, tors-tors, chuvur, chuvur-chuvur, chuv-chuv, yum-yum, yalt, yalt-yalt, yarq, yarq-yarq, qaldir-quldir, qalt-qalt, qah-qah, qiy-chuv, qilt, g'adir-budir, g'ala-g'ovur, g'arq, g'idi-bidi, g'idi-g'idi, g'imir-g'imir, g'ing'ir-g'ing'ir, g'iring-g'iring, g'iring-piring, g'ovur, g'ovur-g'ovur, g'ovur-g'uvur, g'uvur, g'uvur-g'uvur, g'uj-g'uj, g'uldur-g'uldur, g'o'ldur-g'o'ldur, g'o'q-g'o'q, hang-mang, hilp-hilp, hil-hil* singari so'zlar hisobiga kengaytirish mumkin. Chunki bu so'zlar O'TILda aslida taqlidiy so'z deb emas, balki ulardan paydo bo'lgan hosila sifatida izohlangan.

9. O'TILning har ikki nashridagi izohga ham qo'shilib bo'lmaydigan birliklar. Masalan:

-apshu. 1-nashrda: *aksirish tovushi haqida*; 2-nashrida: *Aksirish tovushining yozuvdagi shartli ifodasi*. Bu izohlar o'rniga *aksirish tovushini ifodalaydi* tarzida berilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ma'lum bo'ladiki, O'TILning ikkinchi nashri birinchisiga qaraganda ancha mukammal tuzilgan. Izohlarning batafsilligi, ortiqcha hisoblangan takrorlarning olib tashlanganligi, ayrim taqlidiy so'zlarga alohida birlik sifatida izoh berilganligi ana shu mukammallikni ta'minlovchi omillar bo'lib hisoblanadi.

Biz bu o'rinda **R.Qo'ng'urovning «O'zbek tilida tasviriy so'zlar» asariga ilova tarzida berilgan tasviriy so'zlarning O'TIL da keltirilganlik darajasini** ham tahlil qilib ko'rmoqchimiz. Masalan:

-adi-badi – lug'atda bor, ammo *t.s.* belgisi qo'yilmagan.

-ajuvoz-ajuvoz, ba-bu, badar-badar, badir-badir, bam-bum – lug'atlarda yo'q.

-alang-alang, bilt-bilt – lug'atlarda yo'q. *Alanglamoq, biltanglamoq* fe'llari shu negizdan yasalgan.

bong – lug'atlarda yo'q. Lekin ushbu so'zning O'TILdagi izohiga uning *ovozga taqlid* ma'nosi kiritilmagan. Birinchi nashrda uning ma'nosi quyidagicha izohlangan: *f.* – baland ovoz, qattiq tovush; ikkinchi nashrida esa *f.* – qattiq qichqiriq, faryod, shovqin tarzida.

R.Qo'ng'urov bu so'zning taqlidiy so'z ekanligini to'g'ri belgilagan: **«Bong.** Bu ham qo'ng'iroq bo'lsa kerak: *radioning yomon ishlashi haqida respublika matbuoti ham bong urdi* («Qizil O'zbekiston»). Turkiy tillarning hammasida ham qo'ng'iroq so'zining o'zagi asosan tovushga taqlid bilan bog'langan bo'lib, ular substantivlashib ot kategoriyasiga o'tgan. Masalan, qirg'iz tilida u *shung*, turkman tilida *jang*, oltoy tilida ham *qongro* va b.» (RQ, 113-bet). Ushbu izohga quyidagicha qo'shimcha qilish mumkin: «Bu ham qo'ng'iroq bo'lsa kerak»ning o'rniga « Bu qo'ng'iroqning ovozi bo'lsa kerak», degan ma'qul. Taqlidiy so'z keyinchalik substantivatsiyalashgan – qo'ng'iroqning ovozi ma'nosini anglatish jarayonida uning semantikasida ikkinchi ma'no hosil bo'lgan. Shuning uchun

uning etimologiyasini *forscha*, deb izohlashdan ko'ra, taqlidiy so'z negizida paydo bo'lganligini aytish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin edi.

bul-bul – lug'atlarda yo'q. R.Qo'ng'urov uni lug'at qismida taqlidiy so'z sifatida keltirgan bo'lsa ham, uni biron bir misol yordamida asoslamagan.

buldur-buldur – lug'atlarda yo'q. R.Qo'ng'urov bu so'zni taqlidiy birlik sifatida qaraganda Mahmud Koshg'ariyga tayangan. Koshg'ariy «Devoni»ni 1-qismining 374-betida *buldur-buldur etmoq* tarzida tovushga taqlid so'z sifatida qo'llangan, hozir esa biror narsaning uzoqdan qiyinchilik bilan ko'rinishini tasvirlovchi obrazli so'z sifatida ishlatiladi, deb quyidagi *Uzoqdan bir narsaning bulduragan qorasa ko'rindi* misolini keltiradi. Bu taqqoslashlardan zamonlar o'tishi bilan ayrim taqlidiy so'zlar ma'nosida o'zgarish sodir bo'lishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish lozim bo'ladi.

bulq-bulq – lug'atlarda yo'q. R.Qo'ng'urovning o'zi ham uning ma'nosini izohlamagan. Botqoqlikning ustini qoplab turgan yuzani yoki muloyim narsani bosganda bo'ladigan harakatni shunday ifodalash mumkin.

burq-burq – lug'atlarda yo'q. R.Qo'ng'urov uni quyidagi misollar yordamida izohlaydi: *burq-burq: osh burq-burq qaynamoqda* (tovushga taqlid so'z). **Burq-burq** *tutun tarqaldi* (obrazli so'z) kabi. O'TILda keltirilgan *burqimoq, burqiramoq, burqsimoq* singari fe'llar ana shu taqlidiy so'z negizida shakllangan: *Uzoqda, ko'zga xira chalingan tepalikning orqasida qora, quyuq tutun burqib, havoda og'ir kezardi* (Oybek); *Telpagi tagidan qozon qaynayotganday bug' burqiraydi* (S.Anorboyev); *Oshxona tomondan burqirab somsa hidi keldi* (Oybek). *Xiyol narida oppoq to'zon buriqsib ko'tarildi* («Yoshlik»).

bu-u – lug'atlarda yo'q. R.Qo'ng'urov ham uning ma'nosini izohlamagan. Shevada *bu-u, desa yig'laydi*; aytgan gapidan tongan odamga qarata *mayli, bu-u de, men bergan narsamga rozi bo'laman*, tarzidagi gaplar ba'zan aytiladi.

bo'm-bo'm – lug'atlarda yo'q. R.Qo'ng'urov ham uning ma'nosini izohlamagan. Ammo *kallang bo'm-bo'm*, deyilganda kallang bo'sh, ichida hech

narsa yo'q, agar *kallang bo'm-bo'sh* deyilsa, *kallang mutlaqo bo'sh*, degan ma'no anglashiladi. Birinchisida obrazlilik kuchli.

vag'ir-shag'ir – lug'atlarda yo'q. R.Qo'ng'urov uning ma'nosini birmuncha keng izohlagan. «Agar juft tasviriy so'zlar undosh tovushlarning o'zgarishi bilan tuzilgan bo'lsa, ba'zan ularning har bir komponentidan ham boshqa juft so'zlar hosil qilish mumkin: *Qoq yarim kechada uy orqasida g'ivir-shivir bo'lib qoldi* («Mushtum»). *Hammasi Boysun-Qo'ng'irot elini tashlab, qalmoq yurtiga jo'nab ketmoqchi bo'lib dovirlashib, hammasi birdan katta-kichik, yosh-qari bir-biriga xabar berib, ko'cha ber deb vag'ir-shag'ir qilib, uylarini buzib tuyalarga ortib, ayollar ham o'z yukbog'ini, bo'g'ib,.. shovqun-g'alog'ul bo'lib qoldi* («Alpomish»).

Bu misollardagi *g'ivir-shivir*, *vag'ir-shug'ir* juft tasviriy so'zlarning har bir komponentidan *vag'ir-vug'ur*, *shag'ir-shug'ur* kabi bir necha juft tasviriy so'z yasash mumkin. Ammo bu hodisa doimiy emas. Xususan, bu metodni unlilar o'zgarishi bilan tuzilgan juft so'zlarga tadbiiq qilish ancha qiyin».⁵³

vajir-vajir – lug'atlarda yo'q. R.Qo'ng'urov ham uning ma'nosini izohlamagan. Uning ma'nosi ko'za g'imirlayotgandek, jimir-jimir qilayotgandek tuyuladigan va bir-biri bilan chatishib, tutashib, chaplashib ketgan mayda narsalar haqida (Yangi: I.254) aytilgan *bijir-bijir* so'ziga yaqinlashadi, odam terisining tashqi ta'sir natijasida jimirlashi ma'nosini beradi: *badanim vijir-vijir qildi* singari.

vaysaqi – lug'atlarda bor. Ammo ularda uning ma'nosi *hadeb vaysayveradigan*, *ko'p gapirishni yaxshi ko'radigan (odam)* tarzida izohlangan. (Yangi: I.436). R.Qo'ng'urov uni bekorga taqlidiiy so'zlar qatoriga kiritmagan bo'lishi kerak. Chunki *vaysamoq*, *vaysaqilik*, *vaysiramoq* singari so'zlarning asosida taqlid – *vay* yotgan bo'lishi kerak.

vaq-vuq – lug'atda yo'q. R.Qo'ng'urov ham uning ma'nosini izohlamagan. U *vaq-vaq* ning varianti bo'lishi mumkin.

⁵³ Кўнгулов Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар, 90-бет.

vaqur-vuqur – lug’atda yo’q. R.Qo’ng’urov ham uning ma’nosini izohlamagan. U *vaqir-vaqir*, *vaqir-vuqur* ning varianti hisoblanadi. (Yangi: I.448)

valaki-salang – lug’atda bor. Ammo u *valakisalang* tarzida berilgan va ma’noalari *o’taketgan beg’am*, *beparvo*; *ishyoqmas*, *xumpar*, *devona* tarzida izohlangan. R.Qo’ng’urov uning ma’nosini izohlamagan.

valdir – lug’atda yo’q. R.Qo’ng’urov u haqda *-a* affiksini tahlil qilganda so’z yuritgan: «Bu affiks yuqoridagi *-la* affiksining qisqarishidan tug’ilgan bo’lib (so’z tasviriy so’zlardan yasash haqida boradi) *r* tovushi bilan tugagan tasviriy so’zlarga qo’shilib, fe’llar yasaydi: *pir-pir+a*, *pildir+a*, *guldir+a*, *valdir+a*, *yaltir+a*, *jovdir+a*, *hilpir+a*, *yarqir+a*, *mo’ltir+a*: Davlatning ravnaqi bizning qilichimizga bog’liq, - o’zicha **valdiradi** bir bek (Oybek). (123-bet). *Valdir-valdir*, *valdirvoqye*, *valdirvosar*, *valdir-vuldur*, *valfajri* so’zlari ham lug’atlarda yo’q. R.Qo’ng’urov uning ma’nosini izohlamagan.

vang – lug’atda alohida uchramaydi, *vang-vang* tarzida keltirilgan va *ang-ang* ning varianti ekanligi aytilgan (Yangi: I.439).

vang’ir-vung’ur – lug’atda yo’q. R.Qo’ng’urov ham uning ma’nosini izohlamagan. Shovqinga taqlidni ifodalaydigan *vag’ur-vug’ur* ga variant bo’la oladi.

varang-varang – lug’atda yo’q. R.Qo’ng’urov uni *-(a)ng* affiksini haqida gapirganda keltirgan: «struktura elementi o’z variantlari bilan tovushga taqlid so’zlarga ham qo’shila oladi: *varang-varang*, *jarang-jarang*, *jiring-jiring*, *do’qong-do’qong*, *xiring-xiring*, *g’iring-g’iring*, *chirting-pirting*, *darang-durung* kabilar». (98)

varvar – lug’atda bu so’zning boshqa ma’nosi izohlangan, taqlidiy so’z sifatida berilmagan.

varvarak / **varrak** – lug’atda shamolda uchiriladigan o’yinchoq, deb izohlangan (I.442).

vij – lug’atda *vij-vij* juftligi izohlangan (I.459).

viq-viq, viqir-viqir – soʻzlari lugʻatlarda berilmagan. R.Qoʻngʻurov ularni *Shu yerning oʻzida, gulxanning bir chekkasida qumgʻoningiz viq-viq qaynayda.* (H.Gʻulom). *Yuqoridagi bir-biriga birlashib turgan, qoʻsh xarsang tagidan viqir-viqir qaynab suv chiqmoqda* (S. Anorboyev) misollarida asosida gazsimon predmetlar va suyuqliklar harakatidan paydo boʻlgan tovushlarga taqlid soʻzlar, deb izohlagan. (67)

vis-vis - lugʻatlarda berilmagan. R.Qoʻngʻurov: «Tasviriy soʻzlar tub soʻz holatida oʻzgarmaydigan soʻzlar qatoriga kiradi. Shuning uchun ular sof formada qaratqich yoki toʻldiruvchi funksiyasida qoʻllanmaydi. Ular kelishik qoʻshimchalarini olish uchun ham avvalo otlashadi. Substantivlashgan tasviriy soʻz otlar kabi hamma kelishik qoʻshimchalarini oladi. Ammo tushum, joʻnalish, chiqish kelishik qoʻshimchalari otlashgan tasviriy soʻzlarga koʻproq qoʻshiladi: *Agar soyobon aravada ketayotgan ikki xotinning visir-visiriga quloq solinsa, balki Teshaboyning sirini bilib olish mumkin boʻlar* (M. Ismoilij)».

vov-vov A.N.Kononov oʻzbek tilida taqlid soʻzlarning *tarsil-tarsil, vovul-vovul, poʻngʻul-poʻngʻul* kabi formalari haqida ham gapiradiki, bu albatta, shubhadan xoli emas. Avtor *vovul, poʻngʻul, tarsil* kabi taqlid soʻz formalari *vov, poʻng, tars* oʻzaklariga *-il* elementining qoʻshilishi asosida paydo boʻlganligini toʻgʻri koʻrsatadi. Lekin bu negizlar oʻzbek tilida mustaqil qoʻllanmaydi. Ular *vov-vov, tars-tars, poʻng* kabi boshlangʻich holatda yoki *vovulla, tarsilla, poʻngʻir-poʻngʻir, poʻngʻilla* kabi formalarda ishlatiladi⁵⁴.

vot-vot, vot-vut – lugʻatlarda berilmagan. R.Qoʻngʻurov ularni izohlamagan.

voh-ho-ho – lugʻatlarda *undov* soʻz tarzida berilgan va buni toʻgʻri deb hisoblaymiz. Chunki u gʻam, qaygʻu, alam, afsus yoki ogʻriqni ifodalaydi. Garchi R.Qoʻngʻurov mazkur soʻzni lugʻatida taqlidiy soʻz sifatida bergan boʻlsa ham, uning «Tasviriy soʻzlarda takroriy forma tovush yoki harakatni kuchaytirishdan tashqari, harakatning birdan ortiq boʻlganligini, davomlilikini ham bildiradi.

⁵⁴ Кўнгулов Р. Юқоридаги асар, 10-бет.

Undovlarda esa takror ko'proq emotsionallikni oshiradi, his-jayajonni kuchli qilib beradi: **-Voh-voh**, *peshonam! Qizil gulday...- Oxun peshonasiga shartta urib davom etdi* (Oybek)» fikri ushbu so'zning noo'rin kiritilganligini tasdiqlaydi.

Biz bu o'rinda R.Qo'ng'urov kitobning ilovasida keltirgan lug'atning «G» harfigacha bo'lgan taqlidiy so'zlar to'g'risida fikr yuritishga harakat qildik. Ilovadagi so'zlarning soni 250ga yaqin. Keyingilarini sanab o'tish bilan chegaralanamiz: *gij dang-gij dang, guvrana-guvrana, guvur, guvur-guvur, gum, guring, dag'dag'a, daqir-duqur, dang'ir-dang'ir, darang-darang, dar-dar, ding-ding, dingir-dingir, dirka-dirka, duvur-duvur, du-dut, do'k-do'k, do'ng-do'ng, do'p-do'p, do'r-do'r, jag'-jag', jaldir-juldur, jang-jang, jar-jur, jik-jik, jiqqa-jiq, jiktoq, jildir-jildir, jilpang, jingak, jing-jing, jirtak, juldur-juldur, jur-jur, zab-zab, zing-zing, ivir-ivir, ivir-chivir, iz-iz, ikir-chikir, ilang-bilang, imm..., ing'a, yilt-yilt, kakri-kakri, kappa-kappa, kusir-kusir, ku-u-uh, lak-lak, laq-laq, laq-luq, lang, lap-lap, lappa-lappa, liqqa-liqqa, lik-lik, limma-lim, luppi, lo'k-lo'k, lo'q-lo'q, lo'ppa-lo'ppa, lo'ppi-lo'ppi, ma-a-a, mavvv, mau, mil, mil-mil, ming'ir-ming'ir, mov, mo-o-o, mu, mu-mu, paqir-puqur, paq-puq, pal-pal, part-purt, pildir-pildir, pinqir, pippa-chippa, pirra, pirting-chirting, port-purt, pup, saqar-saqar, salang-salang, selk-selk, so'lq-so'lq, taka-puka, tak-tuk, tilka-tilka, ting-ting, tiriq-tiriq, toq-toq, toq-tuq, topir-tupur, top-top, top-tup, tors-turs, tuk-tuk, to's-to's, ubur, ukki, uru-ru-ru-ru, xa-xa-xa / xax-xax-xa, xa-xa-xov, xir, iring-xiring, xirqi, chaq-chaq, chah-chah, chev-chev / chiv-chiv, chik-chik, chiriq-chiriq, chig'ir-chig'ir, chirp, chirting-pirting, chirt-pirt, chir-chir, chit-chit, chu-fishsh, cho'p-cho'p, shag'-shug', shaqa-shuldir, sharq, shartta-shurt, shilting, shipir-shipir, shit-shit, shuldir-shuldir, shulp, shulp-shulp, shup, shup-shup, yaldir-bildir, o'-o'-o', qaqir-ququr, qaldir-quldir, qalt-qalt, qars-badabang, qars-qurs, qarch-qarch, qat-qat, qilt-qilt, quv-quv, quldir-quldir, qulk-qulq, g'a-g'u, g'aldir-g'uldir, g'ap, g'arq, g'ig', g'iji-biji, g'izza-g'izza, g'irich-g'irich, g'irra-g'irra, g'ovur-shuvur, g'o-g'o, g'uji-g'uji, g'ujur-g'ujur, g'um-g'um, hang-hang, hilpir-hilpir, hix-ha-hov, hu-g'u, hur-hur* kabi. Ushbu sanab o'tilgan so'zlarning ayrimlari, masalan, *guring*,

dag'dag'a, lak-lak, mil, sharq, g'arq singari so'zlar keltirilgan bo'lsa ham, ularning taqlidiy so'z sifatida izohi berilmagan.

Demak, bu kabi faktlar Izohli lug'atlarda keltirilgan taqlidiy so'zlar hali boyitilishi, to'ldirilishi lozimligini ko'rsatadi.

R.Qo'ng'urov «O'zbek tilida tasviriy so'zlar» asariga ilova sifatida bergan lug'at yana bir jihati bilan, unda taqlidiy so'zlardan yasalgan ayrim ot, sifat, ravish va fe'llarning keltirilganligi bilan ham qimmatlidir. Ularning soni yuzdan ortiq: *angraymoq, alpang-talpan, apil-tapil, apir-shapir, baddoslam, baqirmoq, baqraymoq, bezanglam, bidillam, bobillam, bujmaymoq, bo'zraymoq, bo'kirmoq, valaqlam, varqiram, galdirab, gangiraklam, ganderaklam, gijinglam, guras-guras, gurillab-varillab, gurkiram, dikkaymoq, dovdir, dovdiramoq, dovdir-jovdir, duduq, do'ldiroq, do'm-do'm, do'rillab, javramoq, jilviramoq, jilmaymoq, jimjima, juz, juldur, junjimoq, iljaymoq, imillamok, irjaymoq, irkillam, irshaymoq, ishqirmoq, ishshaymoq, kakku, kekirdak, kekirik, lakalov, laqillam, lalaymoq, langillam, lapashang, likildoq, liqirlam, lolovlashmoq, lo'mbillagan, mag'ramoq, miltiq, ming'aymoq, mullajiring, munkillam, mo'ltaymoq, mo'ngaymoq, ping'illam, pishqirmoq, po'ng'illam, po'rillab, serraymoq, silkillab, sirqiratmoq, so'ljaymoq, so'ppaymoq, taltaymoq, taltanglam, tizillam, tikraymoq, tirjaymoq, tumshaymoq, to'qillam, to'ng'illam, ulimoq, xiqildoq, chaqchaymoq, charillam, chimirmoq, ching'illamok, chinqirmoq, churvaqa, churillam, cho'qqaydi, cho'nqaydi, shaltoq, sharpa, shing'illamok, shovqin-suron, sho'ng'illam, sho'ppaymoq, yalanglam, yaltanglam, o'qraymoq, o'-o'-o', o'shqirmoq, o'shshaymoq, qaqqaymoq, qalqillab, qappaymoq, qarqillab, qilpillam, qilponglam, qurillam, qo'ldiram, qo'nqaygan, g'ijjak, g'ingshimoq, g'udunglam, g'uduramoq, g'o'daymoq, g'o'dirlam halloslab, hapillatib, hushtak, ho'mraydi, ho'mraymoq kabi. Agar Izohli lug'atlarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, taqlidiy so'zlardan kelib chiqqan yoki ularning negizida yasalgan so'zlar miqdori yana ham ko'payadi. Bu esa ushbu turkumdagi*

so'zlarning mavqei yuqori ekanligi to'g'risidagi fikrni tasdiqlash bilan birga, ona tilimiz taraqqiyotida ularning xizmatlarini ham ko'rsata oladi.

Taqlidiy so'zlarning izohi etimologik lug'atlarda ham berilgan.⁵⁵ Ularni ko'zdan kechirish ham taqlidiy so'zlar va ularning lug'aviy ma'nolari haqidagi tasavvurimizni kengaytiradi.

Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilib, 2000-yilda chop etilgan «O'zbek tilining etimologik lug'ati» (bundan keyin - O'TEL)ga so'zlik O'TIL bo'yicha tuzilgan bo'lsa-da, o'zbek adabiy tili lug'at boyligidagi turkiy qatlamga etimologik izoh berish maqsad qilib olinganligi tufayli ushbu izohli lug'atdagi boshqa tillardan olingan so'zlar, shu bilan birga o'zlashma so'zlar asosida yasalgan, tuzilgan so'zlar ham chegirib qo'yilgan.

Shunday chegirishlardan keyin ajratilgan turkiy so'zlarning juda katta qismi etimologik izohga muhtoj emas. Etimologik izoh berish lozim so'zlarning bir qismiga esa bugungi kunda shunday izoh berish uchun imkon yo'q. Xullas, yuqoridagi cheklanishlardan keyin ushbu lug'atda 2400 dan ortiq so'z qamrab olingan⁵⁶.

O'zbek tili lug'at boyligidagi ayrim turkiy so'zlarning kelib chiqishi va tarixiga izoh beruvchi mazkur lug'atdagi 2400 dan ortiq so'zdan atigi uchtasini taqlidiy so'z tashkil qiladi. Bular *dikang-dikang*, *lapang-lapang*, *likang-likang* so'zlaridir. Bu taqlidiy so'zlarga lug'atda quyidagicha izoh berilgan:

Dikang-dikang tez-tez sakrash harakatini ifodalovchi tasvir so'zi* (* - belgisi ostida tasviriy o'zakdan yasalgan so'zlar berilgan). *Bolalar bir pasda dikang-dikang sakrab kelib, qo'llaridagi tutam-tutam boychechakni o'qituvchisiga taqdim qila boshladi* (P. Tursun). Bu so'z *dik-dik* tasvir so'zi qismlarining – *äng* qo'shimchasini olib kengaygan shakliga teng: (*dik+äng*) - (*dik+äng*)=*dikäng-dikäng* (O'TEL,91); **lapang-lapang**. *Lap-lap* tasvir so'zining –(*ä*)ng

⁵⁵ Биз бу ўринда Н.Нарзиевнинг куйидаги мақоласидан фойдаландик: Қаранг: Нарзиева Н. «Ўзбек тилининг этимологик луғати»да тақлидий сўзларнинг лексикографик талкинига доир // Ўзбек тилшунослиги масалалари. Илмий мақолалар тўплами. - Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. Б. 115-120.

⁵⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар).-Тошкент: Университет, 2000, 4-бет. Бундан кейин фақат «ЎТЭЛ» деб ёзиб, унинг саҳифасини кўрсатиб борамиз.

qo'shimchasini olib kengaygan shakli (O'TEL,234); **likang-likang**. Lik-lik tasvir so'zining *-(ä)ng* qo'shimchasi bilan kengaygan shakli (*lik+äng*)-(*lik+äng*)=*likang-likang* (O'TEL,235).

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, O'TELda taqlidiy so'zlar juda oz miqdorni tashkil etsa-da, lekin lug'atda taqlidiy o'zaklardan yasalgan boshqa turkumiga oid so'zlar anchagina salmoqli o'rin egallaydi.

Ma'lumki, taqlidiy so'zlar boshqa so'z turkumlaridan yasalmaydi, ammo o'zbek tilidagi ko'pgina ot, sifat, fe'l va ayrim ravishlarning yasalişida taqlidiy so'zlar asos vazifasini o'taydi. Biz quyida O'TELda berilgan shunday so'zlarni turkumlar bo'yicha alohida-alohida keltiramiz:

I. Taqlidiy so'zlardan yasalgan otlar

varvarak (83)	kirkik (210)	sharshara (451)
varrak (83)	lakluk* (233)	sharsharak (451)
vizildoq (83)	pirildoq (268)	shilpildoq (454)
gursketdi (88)	tappak (321)	shiqildoq (456)
dardarak (90)	tupuk (361)	qarsak (528)
jizza (100)	tupurik (361)	qurbaqa (qurvaqa) (576)
zirak* (105)	xurrak (403)	qo'ng'iroq (587)
yulduz* (183)	childirma (426)	g'alva (592)
kakku (198)	chug'urchiq (441)	

II. Taqlidiy so'zlardan yasalgan sifatlar

bijildoq (49)	yapaloq* (140)	xirildoq (401)
bilqildoq* (50)	yapasqi* (141)	chiyildoq (424)
galdir* (84)	yiltiroq (156)	shaldirama (447)
gulduros (86)	yorqin* (173)	shang'i (449)

dang'illama (89)	likildoq* (235)	shartaki (451)
do'rildoq (99)	liqildoq* (235)	qaqildoq (536)
javdiroq* (99)	lorsildoq* (235)	qurildoq (576)
jizzaki (100)	pitrak (268)	quruldoq (577)
yaltiroq* (136)	so'lqildoq* (313)	hangi (595)

III. Taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llar

akillamoq (26)	izg'irmoq (110)	takillamoq (318)
aksirmoq (26)	ilviramoq* (113)	ting'illamoq (338)
balqimoq* (39)	iljaymoq* (114)	ting'irlamoq (338)
baqirmoq (41)	imillamoq* (117)	titramoq (342)
bezillamoq (42)	imirsimoq* (117)	tuplamoq (360)
bodramoq (56)	inqillamoq* (119)	tupurmoq (361)
bo'kirmoq (76)	ingramoq* (120)	uvlamoq (379)
vang'illamoq (83)	irjaymoq* (121)	uvullamoq (380)
vang'irlamoq (83)	ishshaymoq* (130)	ulumoq (387)
guvillamoq (85)	ishqirmoq (130)	chapimoq (413)
guvullamoq (85)	yangramoq* (139)	chaplamoq (414)
guvurlamoq* (85)	yaraqlamoq* (143)	chaqirmoq (418)
dildiramoq* (92)	yarqiramoq* (144)	chinqirmoq (428)
ding'illamoq (93)	yorimoq* (172)	chirmamoq (429)
ding'irlamoq (93)	kekirmoq (199)	chirpiramoq (430)
dirdiramoq* (93)	lapanglamoq* (234)	shang'irlamoq (449)
dingillamoq (93)	likanglamoq* (235)	sharqiramoq (452)
dingirlamoq (93)	mijimoq* (238)	shipshimoq (456)
javramoq (99)	ming'aymoq* (240)	g'ildiramoq (593)
jekirmoq (100)	mujimoq* (241)	g'ing'illamoq (593)
jikillamoq (101)	mung'aymoq* (242)	g'ing'irlamoq (593)

jikirlamoq (101)	munkimoq* (242)	g'inshimoq (593)
zirillamoq* (105)	munkillamoq* (242)	g'ingshimoq (594)
zirqiramoq* (106)	obdiramoq (246)	g'ulduramoq (594)
ivirsimoq (108)	pirpiramoq (268)	hangramoq (595)
izillamoq (109)	selkillamoq (281)	

IV. Taqlidiy so'zlardan yasalgan ravishlar

shappa (450)	sharros (451)	shartta (451)
--------------	---------------	---------------

Umumlashtirib oladigan bo'lsak, O'TELda taqlidiy so'zlardan yasalgan 26 ta ot, 27 ta sifat, 77 ta fe'l va 3 ta ravish bo'lib, ularning jami 133 tani tashkil etadi.

Yuqoridagi so'zlarning ko'pchiligi hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zak va qo'shimchaga ajratilmaydigan sodda tub so'zga aylangan. Hatto bunday so'zlarni etimologik izohsiz taqlidiy o'zakdan yasalganligini aniqlash qiyin. Masalan, *zirak*, *kirkik*, *g'alva*, *yapasqi*, *ivirsimoq*, *imirsimoq*, *yorimoq*, *mijimoq*, *munkimoq*, *chaplamoq*, *chaqirmoq* kabilarni shunday so'zlar jumlasiga kiritish mumkin. Misol tariqasida *zirak* so'zining O'TELda berilgan izohini keltirmoqchimiz:

Zirak «isirg'aning bir turi». Bu ot tebranishni ifodalovchi *zır* tasvir so'zidan -a qo'shimchasi bilan yasalgan fe'lga -k qo'shimchasini qo'shib yasalgan; keyinchalik *a* unlisi *ä* unlisiga almashgan, *ı* unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: (*zır*+*a*=*zıra*)+*k*=*zırak*>*ziräk* (O'TEL,105).

Bundan ko'rinadiki, tilimiz tarixini o'rganishda O'TELning ahamiyati beqiyosdir.

Shu o'rinda ayrim mulohazalarni ham o'rta tashlamoqchimiz. O'TELda *tuplamoq*, *tupurmoq*, *tupuk* so'zlari eski o'zbek tilida *tuf* tovushiga taqlid so'zidan yasalgan deb izohlangan. O'TIL da esa *tuf* so'zi undov so'z deb berilgan (O'TEL,235). Bizningcha, ham bu so'z tupurganda hosil bo'ladigan tovushni ifodalovchi taqlidiy so'zdir.

O'TELda taqlidiy so'zlardan yasalgan ba'zi boshqa turkumga oid so'zlarning taqlidiy yoki tasviriy so'zlardan yasalganligini izohlashda, bizningcha, ayrim chalkashliklar mavjud. Masalan, *yiltiroq*, *dingillamoq*, *yangramoq*, *obdiramoq*, *titramoq* so'zlarining o'zagi taqlidiy so'z deb izohlangan: *yiltiroq* «nur qaytarib turadigan». Bu sifat *yilt* taqlid so'zining $-(i)r$ qo'shimchasini olib kengaygan shaklidan $-ä$ qo'shimchasi bilan yasalgan fe'lga $-q$ qo'shimchasini qo'shib yasalgan; *q* undoshi oldidagi $-ä$ unlisi $\hat{a}$ unlisiga almashgan: $[(yilt+ir=yiltir)+ä=yiltirämoq] +q=yilti-räq>yiltirâq$ (O'TEL,156); *dingillamoq* «irg'ishlamoq», «shataloq otmoq». Bu fe'l *ding* taqlid so'zining *dingir* kengaygan shaklidan $-lä$ qo'shimchasi bilan yasalgan; *l* undoshi ta'sirida uning oldidagi *r* undoshi *l* undoshiga almashgan: $(ding+ir=dingir)+lä=dingirlamoq>dingillamoq$ (O'TEL,93); *yangramoq* «jaranglab eshitilmoq». Bu fe'l qadimgi turkiy tildagi «jaranglagan tovush»ni ifodalovchi *yang* tasvir so'zining $-(b)r$ qo'shimchasi bilan kengaygan shaklidan $-a$ qo'shimchasi bilan yasalgan; $-a$ qo'shimchasi qo'shilgandan keyin ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan; o'zbek tilida *a* unlisi $\ddot{a}$ unlilariga almashgan: $(yang+br=yangbr)+a=yangb-ramoq->yangramoq->yängrämoq$ (O'TEL,139); *obdiramoq* «gangimoq», «dovdiramoq». Bu fe'l qadimgi turkiy tilda «ikkilanish holati»ni ifodalovchi *ab* taqlid so'zining $-dbr$ qo'shib kengaygan shaklidan $-a$ qo'shimchasi bilan yasalgan; o'zbek tilida so'z boshlanishidagi *a* unlisi $\hat{a}$ unlisiga, uchinchi bo'g'indagi *a* unlisi $\ddot{a}$ unlisila almashgan, *b* unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: $(ab+dbr=abdbr)+a=abdbramoq->\hat{a}bdirämoq$ (O'TEL,246); *titramoq* «sovuqdan, hayajonlanishdan badani silkinmoq», «qaltiramoq». Bu fe'l silkinish holatini bildiruvchi *titir-titir* taqlid so'zidan $-ä$ qo'shimchasi bilan yasalgan, keyinroq ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan: $titir+ä=titirämoq->titrämoq$ (O'TEL,242).

Shuningdek, O'TELda *guvurlamoq*, *inqillamoq*, *ingramoq* so'zlarining o'zagi tasviriy so'z sifatida izohlangan: *guvurlamoq* «guvur-guvur etgan tovush chiqarmoq». Bu fe'l o'zbek tilida noaniq (bo'g'iq) tovushni ifodalovchi *guvur-*

guvur tasvir so'zidan *-lä* qo'shimchasi bilan yasalgan: *guvur+lä= guvurlämoq* (O'TEL,85); *inqillamoq* «og'riq, alam zo'ridan ingraganga o'xshash past tovush chiqarmoq». Bu fe'l qadimgi turkiy tildagi *ɣng* tasvir so'ziga kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi *-q* qo'shimchasini va tasvir so'zining kengaygan shaklini hosil qiluvchi *-(ɣ)l* qo'shimchani qo'shib hosil qilingan *ɣnqɣl* so'zidan *-la* qo'shimchasi bilan yasalgan. Keyinchalik *ng* undoshi *n* undoshiga, *a* unlisi *ä* unlisiga almashgan, *ɣ* unlilarining qattqlik belgisi yo'qolgan: $[(ɣng+q=ɣngq)+ɣl=ɣngqɣl]+la=ɣngqɣllamoq->ɣnqɣllamoq->inqillämoq$ (O'TEL,119); *ingramoq* «og'riq- alam ta'sirida mungli tovush chiqarmoq». Bu fe'l qadimgi turkiy tildagi *ɣng* tasvir so'zining *ɣngɣr* kengaygan shaklidan *-a* qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan, *a* unlisi *ä* unlisiga almashgan, *ɣ* unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: $(ɣng+ɣr+ɣngɣr)+a =ɣngɣramoq->ɣngramoq-> ingrämoq$ (O'TEL,120).

R.Qo'ng'urovning «O'zbek tilida tasviriy so'zlar» monografiyasiga ilova tarzida berilgan lug'atda *angraymoq* so'zi taqlidiy so'zdan yasalgan fe'l sifatida keltirilgan⁵⁷. O'TILda *angraymoq* va uning so'zlashuv tilidagi *ag'raymoq* fe'li: 1. Es-hushini yo'qotgan kishiday parishonxotirlik bilan loqayd qarab turmoq; 2. Hayratda qolmoq, hayratdan og'zi ochilmoq deb izohlangan⁵⁸.

O'TELda bu so'zning lug'aviy ma'nosi «tushunib yetmay og'zi ochilib qarab turmoq» shaklida izohlanib, grammatik ma'nosi ochiq qoldirilgan.

Biz so'zga berilgan lug'aviy ta'riflardan R.Qo'ng'urovning fikriga qo'shilgan holda, bu so'zni holatga taqlid so'zdan, ya'ni tasviriy so'zdan yasalgan, degan fikr tarafdorimiz. Lug'atda bunday so'zlarning grammatik izohi aniq keltirilsa, o'quvchi uchun yanada qulayroq bo'lar edi.

O'TELda *bezanglamoq* (O'TEL,42), *bezillamoq* (O'TEL,42) fe'llariga lug'aviy ta'rif «zada bo'lganligi tufayli betoqat bo'lmoq» tarzida bir xil berilgan.

⁵⁷ Қўнғуров Р., Ўзбек тилида тасвирий сўзлар, 145-бет.

⁵⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик. - М.: Русский язык, 1981, 46-бет.

Lekin lug'atda bezanglamoq fe'li qadimgi turkiy tildagi «titramoq», «qaltiramoq» ma'nosini anglatgan *bezmoq* fe'lidan eski o'zbek tilida (-ä)ng qo'shimchasi bilan yasalgan otga -lä qo'shimchasini qo'shib yasalgan (*bezmoq+ang=bezang+lä=bezänglämoq*), *bezillamoq* fe'li esa, «titroq» ma'nosini bildirgan *bez* taqlid so'zidan -illä qo'shimchasi bilan yasalgan (*bez+illä=bezillämoq*) deb izohlangan. Demak, O'TEL bo'yicha bu ikki so'zning o'zagi ikki so'z turkumiga oid, ya'ni omonim so'zlardir. Lekin ularning lug'aviy ma'nolaridan bu fe'llar bitta so'zdek tuyuladi.

Yuqoridagi fikrlarimiz bilan mazkur lug'atning qimmatiga putur yetkazmoqchi emasmiz. Biz, muallif aytganidek: «kelgusi tuzuvchilar bundan-da to'liqroq va mukammalroq etimologik lug'at tuzish»da yuqoridagi holatlarga aniqlik bilan yondashadilar deb o'ylaymiz.

Badiiy adabiyot matnida taqlidiy so'zlar ona tilimizning tasviriy vositasi sifatida alohida badiiy-estetik qimmat kasb etadi. Ana shu mulohazaning qanchalik to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish maqsadida bu turkumdagi so'zlarning O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murod asarlarida qo'llanish xususiyatlari haqida fikr yuritamiz⁵⁹.

Tasviriy so'zlar gapda ifodalangan mazmunga aniqlik, tasviriylik kiritish uchun ishlatiladi. Ularning boshqa vazifasi yo'q. Gapning mazmuniga bir fikriy o'zgartirish kiritmaydi. Shu sababli gap tarkibidagi tasviriy so'zni tushirib qoldirsak, uning ma'nosida katta bir o'zgarish yuz bermaydi, balki tasviriylik yo'qoladi, xolos. Xuddi shuning o'zi, birinchi navbatda, tasviriy so'zlarning stilistik kategoriya ekanligini ko'rsatadi⁶⁰. Masalan, *Shunda, ona bolasiga boqib ho'ng-ho'ng yig'ladi* (II,8) *Misoli haykal bo'lib qoldi. Yerga shahodat barmoq o'ynatdi. Lik-lik o'ynatdi* (II,5) Misollardagi *ho'ng-ho'ng yig'ladi, lik-lik o'ynatdi* birikmalarini *yig'ladi, o'ynatdi* tarzida ishlatish mumkin. Bu holda ma'noda hech qanday o'zgarish yuz bermaydi. Lekin birinchi juft tasviriylik va ekspressivlikka

⁵⁹ Мисоллар Тоғай Муроднинг «Отамдан қолган далалар» ва «Бу дунёда ўлиб бўлмайди» асарларидан олинган. Биринчи асарни I ва иккинчисини II рақами остида бериб, саҳифаларини кўрсатиб борамиз.

⁶⁰ Қўнғуров Р. Ҳозирги замон ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар. II қисм, 30-бет.

ega, unda aniqlilik kuchli. Lekin shu o'rinda ta'kidlash joizki, bu holat barcha tasviriy so'zlar uchun ham birdek xos emas. Masalan: *Bola bor-yo'g'i ing-ing etib bordi* (II,8) *Mashinadan bir NKVDchi tap etib tushdi* (II,17) Bu gaplardagida taqlidiy so'zlar tushirib qoldirilsa, ma'no tamoman kelib chiqmaydi. Nimaningdir tushirib qoldirilganligi aniq sezilib turadi: *Bola bor-yo'g'i... etib bordi. Mashinadin bir NKVDchi ... etib tushdi* kabi.

Badiiy asar tilining ta'sirchan bo'lishi til birliklarining to'g'ri tanlanishi, matn mazmuniga mos kelishi va gapda yozuvchi ko'zlagan maqsadni amalga oshirishda muayyan uslubiy vazifani bajarishiga bog'liq⁶¹. Badiiy asar tilining leksik-semantik jihatdan rang-barang bo'lishi, muallif va personajlar tilida ma'lum bir me'yorning amal qilishi yozuvchining individual uslubi bilan bog'liq. Yozuvchi til birliklaridan foydalanishda asar mavzusidan kelib chiqadi, o'zi tasvirlayotgan shaxsning xarakter-xususiyati, harakat-holatini aniq ifodalaydigan, kitobxon ko'z o'ngida aniq gavdalantiradigan so'z va iboralarni qo'llashga intiladi. Badiiy asarda matn ruhiga mos keluvchi til birliklarining qo'llanishi esa asar tilining jozibador, ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

Tog'ay Murod asarlarida kishilar nutqi, ularning kayfiyati, ruhiy holati va qiyofasi, shuningdek, kishini o'rab turgan obyektiv borliqqa bo'lgan turli xil munosabatlarini tasvirlash jarayonida taqlidiy so'zlarga ko'p murojaat qilingan. Adib o'z asarlarida biror bir holatni ifodalash uchun bir necha taqlidiy so'zlardan mohirlik bilan foydalanganki, bu badiiy asarning yanada o'qimishli, ommabop bo'lishini ta'minlagan. Masalan, adib asarlarida birgina yig'lash holatini ifodalash uchun bir nechta sinonimik taqlidiy so'zlarga murojaat qilingan: *piq-piq, inga-inga, ing-ing, big'g'-big'g', ho'ng-ho'ng, uvv-uvv, ho'ngir-ho'ngir, chirr-chirr, uv-uv, hiq-hiq, iz-z-iz-z, yum-m-yum-m, duvv-duvv* kabilar. *Do'xtir ayol... badanlarimni qaradi-qaradi... piq-piq yig'ladi...* (I,250). *Ayolimiz piq-piq yig'ladi* (I,98). *Inson tug'lsa: «inga-inga – men keldim», deya ovoz beradi* (II,136). *Men*

⁶¹ Боймирзаева С. Бадий матнда луғавий бирликлар стилистик имкониятларининг намоён бўлиши // Ўзбек тилшунослиги масалалари (илмий мақолалар тўплами).- Самарқанд, 2007, 118-бет.

onamiz ketidan ergashib boraman. Ing-ing etib boraman (I,35). Bola bor-yo'g'i ing-ing etib bordi (II,8). Chaqalog'imiz shunda-da o'chmadi. Big'g'-big'g' yig'lay berdi (I,104). Botir firqa... ho'ng-ho'ng yig'lab qo'ya berdi. Botir firqa... o'kirib-o'kirib yig'lab qo'ya berdi! –Uv-uv-uv!... –deya yig'ladi (II,146). Mo'ltaydi-mo'ltaydi... ho'ngrab yig'ladi. Ho'ng-ho'ng yig'ladi (II,165). Shunda ona bolasiga boqib ho'ng-ho'ng yig'ladi. Bolasiga boqib uvv-uvv yig'ladi (II,8). Xayollar og'ushida o'tirdi-o'tirdi... tag'in yig'ladi. Ho'ngir-ho'ngir yig'ladi (II,167). Oshpaz qiz o'choq boshida hiq-hiq yig'lab o'tiradi (I,70). Bolalar duvv-duvv yig'laydi. Bolalar ho'ng-ho'ng yig'laydi (I,70). Ziyodni onasi betini bilaklariga bosadi. Ziyodni onasi iz-z-iz-z yig'laydi. Ziyodni onasi yum-m-yum-m yig'laydi (I,71). Ayolimiz yomon qiliq qildi-yov – chaqalog'imiz endi chirr-chirr yig'ladi (I,104).

Misollarning barchasida taqlidiy so'zlar yig'lash holatini izohlab ko'rsatish uchun qo'llangan. Ammo bu taqlidiy so'zlar ifodalagan hodisalarni tamoman bir xil deb qarab bo'lmaydi. Bir necha sinonimik so'zlar bir hodisani ko'rsatish uchun xizmat qilsa ham, har bir sinonimik so'z anglatgan ma'no o'zining ma'lum ma'no nozikligi bilan ikkinchisidan farq qiladi. Ya'ni ho'ng-ho'ng yig'lash paytidagi tovush bilan piq-piq yig'lash paytidagi tovushni yoki ing-ing yig'lash paytidagi tovush bilan chirr-chirr yig'lash paytidagi tovushni bir xil deb izohlab bo'lmaydi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, bir ma'no atrofida birlashgan taqlidiy so'zlar bir holatni yoki bir tovushni ifodalashga xizmat qilsa ham, o'zaro bir-biridan shu ma'noning turli qirralarini ko'rsatishi bilan farqlanadi.

Turli xil predmetlar chiqargan ma'lum darajada bir-biriga yaqin, o'xshash tovushlarni tasvirlash jarayonida taqlidiy so'zlarda polisemiya hodisasi yuz beradi. Masalan, o'zbek tilida suyuq jismning quyulishi, ilon chiqargan tovush, raketa otilganda chiqadigan tovush va qilichni qindan sug'urib olish jarayonida hosil bo'lgan tovushlarga nisbatan vish (vish-vish) taqlidiy so'zi; o'qning uchgan ovozi, arining uchishi, qishdagi qattiq shamol ovoziga nisbatan viz-viz; yurakning qattiq urishi, issiq yolqinning yuzga urilishi, qorning qattiq yog'ishi jarayoni tasviriga

nisbatan *gup-gup*; umuman qushlar to'dasining, jumladan, qaldirg'och sayrashiga, quyosh selida poyonsiz qirlarning tasviri, go'shtning olovda kuydirilishi holatlariga nisbatan *vijir-vijir* taqlidiy so'zidan foydalanish mumkin.

Biz tahlil obyektimiz bo'lgan adib asarlarida ham polisemantik xarakterga ega bo'lgan taqlidiy so'zlarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan: *jimir-jimir: Odam oqar suvdan ichsa badani jimir-jimir etadi* (I,79). *Shunda ko'z oldim jimir-jimir etadi* (I,72). *Ayolimiz dalalar uzra jimir-jimir etmish hilga termuldi* (I,187).

Duv-duv: *G'o'zalarimni qoqib-da bo'lmadi – g'o'zalarim qirs-qirs sinadi, ko'saklarim duv-duv to'kiladi* (I,216). *Botir firqa asal choy ichdi. Peshonasidan duv-duv ter to'kildi* (II,105). *Barmoqlarim orasidan dardlarim duv-duv to'kiladi* (I,177).

Yilt-yilt: *Mayda-mayda ko'lmak suvlar yilt-yilt etadi* (I,170). *Yuzlaridan yilt-yilt ter sizildi* (II,105).

Kishilarning turli xil psixo-fiziologik holatlarini, organizmda paydo bo'lgan har xil sezgilarni ifodalashda ham ba'zan taqlidiy so'zlardan foydalaniladi. Bunday taqlidiy so'zlar aslida tovushga taqlid yoki holatga taqlid so'z sifatida paydo bo'lgan bo'lsa ham shu jarayonda ularning ma'nosida mavhumlikka tomon siljish seziladi. Obrazli so'zlar ifodalagan hodisalarga tovush orqali taqlid qilish mumkin bo'lmasa ham, kishida u ifodalagan hodisa haqida ma'lum taassurot paydo bo'ladi. Metaforik xarakterdagi tasviriy so'zlar subyekt bilan bog'langan. Ma'lumki, tovushga taqlid so'zlar eshitish bilan, holatga taqlid so'zlar ko'rish bilan bog'langan hodisalarni ifodalaydi. Metaforik taqlidiy so'zlar ifodalagan taqlidiy so'zlarni ko'ra olmaymiz ham, eshita olmaymiz ham. Taqlidiy so'zlar kishi organizmida paydo bo'lgan sezgilarni, ichki kechinmalarni ifodalash uchun yoki ko'chma ma'noda qo'llanilganda metaforik xarakterga ega bo'ladi: *Yuragim shuv etdi* (I,244). *Ammo... kunduzgi uyqudan keyingi vaziyat! Odam tars yorilib ketay deydi* (II,160). *Yuzlarim lov-lov yonib turaman* (I,64).

Xulosa

Magistrlik dissertasiyasini yozish jarayonida olib borilgan kuzatishlar, mavzu doirasidagi o'rganilgan manbalar tahlili va ishda bildirilgan fikr-mulohazalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Taqlidiy (tasviriy) so'zlar hozirgi o'zbek tilida katta leksik-semantik guruhni tashkil qiluvchi kategoriyadir.

2. O'tgan asrning 60-yillarigacha o'zbek tili grammatik adabiyotlarida va shu kabi ayrim tilshunos olimlarining ilmiy asarlarida taqlidiy so'zlar undovlarning bir ko'rinishi sifatida talqin qilib kelindi. Faqat keyingi yillardagina ular alohida-alohida so'z turkumi ekanligi e'tirof etildi.

3. Mavjud o'zbek tili darsliklarida, o'zbek tili grammatikasiga oid qo'llanmalarda taqlidiy so'zlarga, ularning grammatik xususiyatlariga doir qarashlarda mushtaraklik mavjud.

4. O'zbek tilshunosligida taqlidiy so'zlar R.Qo'ng'urov tomonidan maxsus o'rganilgan.

5. Taqlidiy so'zlar tarixiy kategoriyadir. Davrlar o'tib borishi bilan birga tilimizda taqlidiy so'zlar miqdori ham orta borgan.

6. O'TIL ning ma'lum bir qismini taqlidiy so'zlar tashkil qiladi. Lug'atda yakka, juft va takroriy shakldagi sof taqlidiy va tasviriy so'zlar 500ga yaqin bo'lib bu umumiy sonning 0,8 foiziga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, O'TIL da belgisi ko'rsatilmagan taqlidiy yoki tasviriy so'zlar ham uchraydi.

7. O'TELda tilimizdagi 3ta sof taqlidiy so'zning etimologik izohi keltirilgan. Bular *dikang-dikang*, *lapang-lapang*, *likang-likang* so'zlaridir. Lekin lug'atda 26 ta ot, 27 ta sifat, 76 ta fe'l va 3 ta ravish turkumiga oid so'zlarning taqlidiy o'zaklardan yasalganligi etimologik jihatdan asoslab berilgan.

8. Tarixan boshqa shaklda yoki boshqa ma'no bo'lgan ayrim taqlidiy so'zlar hozirgi tilimizda ham shakliy, ham ma'no jihatidan o'zgarishlarga yuz tutgan: *sig'irchiq* – *chug'urchiq*, *urpardi* – *hurpaydi*, *og'rashdi* – *o'qrayishdi* kabi.

9. O'zbek tilidagi ko'pgina ot, sifat, fe'llar taqlidiy o'zaklardan yasalgan.

10. O'TILning har ikki nashri o'ziga xos yutuq va kamchiliklarga ega.

Jumladan:

-izohlar O'TILning ikkinchi nashrida birinchisiga qaraganda batafsil va o'quvchiga tushunarli tarzda berilgan;

-birinchi nashrda muayyan taqlid so'zdan hosil bo'lgan birliklar ikkinchi nashrda chiqarib tashlangan;

- birinchi nashrda bir ma'no ostida izohlangan so'zlar ikkinchisida ajratilgan va har birining ma'nolari alohida izohlangan;

-yoki aksincha, birinchi nashrda ma'nolari ajratib izohlangan taqlidiy so'zlar ikkinchi nashrda umumlashtirilgan;

-birinchi nashrda birmuncha mavhum, uslubiy jihatdan g'aliz berilgan izohlar ikkinchi nashrda tuzatilgan;

-ba'zi izohlar har ikkala nashrda ham bir xilda berilgan;

-birinchi nashrdagi ayrim taqlidiy so'zlar ikkinchi nashrga taqlidiy so'z sifatida kiritilmagan;

-har ikki nashrda *taqlidiy so'z (taql.s)* belgisi qo'yilmagan, ammo mazmunan taqlidiy so'z bo'lgan birliklar mavjud. Bu esa ushbu so'zlar turkumi doirasini toraytirgan;

-har ikki nashrda ham qo'shilib bo'lmaydigan izohlar uchraydi;

-ayrim taqlidiy so'zlarning grammatik izohi noto'g'ri berilgan (*xa-xa-xa und.s*, *vot-vot und.s*. kabi).

11. T.Murod asarlaridagi taqlidiy so'zlar tahlili ularning matnda muhim uslubiy vosita bo'la olishini ko'rsatadi. Ularning badiiy asarda ma'noni kuchli, ta'sirli ifodalash, ekspressivlikni bildirish kabilarda roli kattadir. Taqlidiy so'zlar turli xil lug'aviy ma'nolarga, shuningdek, polesemantik va sinonimiya xususiyatlarga ega bo'lib, badiiy matnda uslubiy vazifa bajarar ekan, ularning ma'nodaridagi xilma-xillik Izohli lug'atlarda ham o'z ifodasini topishi lozim.

12. Taqlidiy soʻzlar badiiy adabiyotda, ogʻzaki nutqda, folklorda juda koʻp ishlatilib, ular nutqqa badiiy boʻyoq, ekspressivlik beradi. Shu bilan birga, umuman, obyektiv borliqni aks ettiruvchi, kommunikativ aloqa bajaruvchi va tilda qurilish material sifatida ular katta ahamiyatga egadir.

13. Izohli lugʻatlardagi taqlidiy soʻzlarning tahlili shuni koʻrsatadiki, hozirgi oʻzbek tilida ularning salmogʻi yanada oshib bormoqda, qoʻllanish koʻlami kengaymoqda. Bu esa taqlidiy soʻzlarning ideografik lugʻatini tuzishni taqozo etadi.

14. Ushbu kichik bir tadqiqot ham oʻzbek lugʻatchiligini rivojlantirish va takomillashtirish yoʻlida qilinishi kerak boʻlgan ishlar hali koʻp ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. **Каримов И.А.** Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида.-Тошкент: «Ўзбекистон», 1998.
2. **Каримов И.А.** Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: «Маънавият», 2008. 176-бет.
3. **Бобожонов Ш.Х.** Семема, унинг нутқий воқеланиши ва изоҳли луғатдаги талқини: Филол.фан.номз. ...дис.автореф. – Тошкент, 2004. – 23 б.
4. **Боймирзаева С.** Бадий матнда луғавий бирликлар стилистик имкониятларининг намоён бўлиши // Ўзбек тилшунослиги масалалари. Илмий мақолалар тўплами.- Самарқанд: СамДУ нашри, 2007.
5. **Замонавий ўзбек тили.** – Т.: «Mumtoz so'z», 2008. – 468 б.
6. **Маҳмудов Н.** Ўктам ва ўлмас тилимиз / Тафаккур, 2010, №4,
7. **Муталлибов С.** Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк, Тошкент, 1959.
8. **Мухаммадиев Э.** Подача парных и непарных по виду глаголов движения в русско-узбекских словарях: Автореф.дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986.
9. **Нарзиева Н.** «Ўзбек тилининг этимологик луғати»да тақлидий сўзларнинг лексикографик талқинига доир // Ўзбек тилшунослиги масалалари. Илмий мақолалар тўплами. - Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. Б. 115-120.
10. **Омонтурдиев А.** Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Т.: Фан, 2006. -136 б.
11. **Rahmatullayev Sh.** Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 464 b.
12. **Юсупхўжаева Ҳ.** Ўзбек тили изоҳли луғатида феълларнинг ишланиши. – Тошкент: «Фан», 1988.

13. Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. - Т.:Фан, 1975. –612 б.
14. **Қўнғуров Р.** Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. - Т.: Фан, 1966. –156 б.
15. **Қўнғуров Р.** Ҳозирги ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар, II қисм. - Самарқанд:СамДУ нашри, 1980. – 56 б.
16. **Ҳамидов З.** Луғатшунослик тарихи ва қўлёзма луғатлар. – Т.:Адолат, 2004. – 36 б.
17. **Ҳамраева Ё.Н.** Ўзбек тилининг идеографик луғатини тузиш тамойиллари: Филол.фан. номзод. ..дис. автореф. – Тошкент, 2010. -26 б.
18. **Ҳожиёв А.** Ўзбек тилининг изоҳли луғатида феълларнинг берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1962, №5, Б.27-31.

Lug'atlar

1. **Алишер Навоий** асарлари тилининг изоҳли луғати, I том.– Тошкент: Фан, 1983. -656 б.
2. **Алишер Навоий** асарлари тилининг изоҳли луғати, II том.– Тошкент: Фан, 1983. -644 б.
3. **Алишер Навоий** асарлари тилининг изоҳли луғати, III том.– Тошкент: Фан, 1984. -624 б.
4. **Алишер Навоий** асарлари тилининг изоҳли луғати, IV том.– Тошкент: Фан, 1985. -636 б.
5. **Бегматов Э., Улуқов Н.** Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. -104 б.
6. **Жуманазарова Г.У.** Фозил Йўлдош ўғли «Ширин билан Шакар» достонининг изоҳли луғати. - – Т.: Фан, 2007. -56 б.
7. **Мирзаев Т., Эшонқул Ж., Фидокор С.** «Алпомиш» достонининг изоҳли луғати. – Т.: «Elmus-Press-media»? 2007. -164 б.

8. **Нафасов Т.** Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1988. -288 б.
9. **Раҳматуллаев Ш.** Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. -468 б.
10. **Раҳматуллаев Ш.** Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар).-Тошкент: «Университет», 2000. -600 б.
11. **Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Н.** Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Т.: «Ўқитувчи», 1980. – 232 б.
12. **Раҳматуллаев Ш.** Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: «Ўқитувчи», 1984. – 216 б.
13. **Раҳматуллаев Ш.** Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I том. – М.: Рус тили, 1981. -632 б.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, II том.–М.: Рус тили, 1981. -715 б.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I том. – Т.: ЎзМЭ, 2006. -680 б.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, II том. – Т.: ЎзМЭ, 2006. -672 б.
18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, III том. – Т.: ЎзМЭ, 2006. -688 б.
19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, IV том. – Т.: ЎзМЭ, 2008. -608 б.
20. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, V том. – Т.: ЎзМЭ, 2008. -592 б.
21. **Ҳожиёв А.** Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Т.: «Ўқитувчи», 1974. – 308 б.

O'TIL da berilgan sodda taqlidiy va tasviriyl so'zlar

A	33.do'p	60.patir
1. apshu	34.do'pir	61.paq
	35.do'q	62.pilch
B	36.do'qir	63.pir
2. ba..		64.pirt
3. bitbildiq	J	65.pirq
	37.jaz*	66.pis
V	38.jaz	67.pix
4. vavag'	39.jarang	68.piqir
5. viz	40.jiz*	69.pov
6. vit	41.jiz	70.pop
7. vish	42.jiring	71.puf
8. vov	43.jig'	72.po'k
		73.po'rt
G	Z	T
9. gijbang	44.zir	74.tak
10.guv		75.tap
11.guldur	I	76.tappa
12.gumbur	45.ing	77.tar
13.gup	46.inga	78.taraq
14.gur*	47.ix	79.tarr
15.gur		80.tars
16.gurra	K	81.taq
17.gurs	48.kart	82.tiz*
	49.kuh	83.ting'
D	L	84.tir
18.dakang	50.lik*	85.tirr
19.dik*	51.lip*	86.tirs
20.dikir*	52.liq	87.tiq
21.ding'ir	53.lov*	88.tuq
22.dir(r)*	54.lop	89.to'p
23.dir(r)	55.lup	90.to'q
24.dir		
25.dirk*	M	U
26.ding'	56.miyov	91.uxu
27.dud	57.milt	
28.duk		Ch
29.dukur	P	92.chak
30.dup	58.parr	93.chalp
31.dupur	59.part	94.chap
32.do'ng'		

95.chars
96.chip
97.chirk
98.chirs
99.chirq
100.chitir
101.chiq
102.chiqir
103.chig'
104.churr
105.chug'ur
106.cho'lp

Sh

107.shalop
108.shalp
109.sharaq
110.shang'i
111.shap
112.shar
113.shart
114.shatir
115.shaq
116.shivir
117.shildir
118.shilp
119.shilt
120.shilt*
121.shilq
122.ship
123.shir
124.shiriq
125.shirt

126.shirq
127.shitir
128.shiq
129.shiqir
130.shov
131.shuv
132.sho'lp
133.sho'lq
134.sho'p

O'

135.o'ho'

Q

136.qarr
137.qars
138.qasir
139.qag'
140.qiyq
141.qir
142.qirr
143.qirs
144.qirt
145.qisir
146.qitir
147.qig'
148.qiqir
149.qult
150.qur

G'

151.g'ars
152.g'art

153.g'arch
154.g'arq
155.g'arg'ara
156.g'art
157.g'iq
158.g'ag'
159.g'ijbang
160.g'ijir
161.g'iz
162.g'iyt
163.g'ich
164.g'iyq
165.g'ilt
166.g'ilq
167.g'ing
168.g'ir
169.g'iring
170.g'irt
171.g'irch
172.g'it
173.g'ichir
174.g'iq
175.g'uv
176.g'o'ng

H

177.hap
178.hiq
179.hov
180.hu
181.huyt
182.huh

O'TILda berilgan takroriy taqlidiy va tasviriy so'zlar:

V

1. viz-viz
2. visir-visir
3. vit-vit
4. vish-vish

G

5. guv-guv
6. guldur-guldur
7. gup-gup
8. guppa-guppa
9. gur-gur
10.gur-gur*
11.gurs-gurs

D

12.dakir-dakur
13.dik-dik*
14.dikang-dikang*
15.ding'ir-ding'ir
16.dir-dir

17.dir-dir*
 18.dirk-dirk*
 19.duv-duv
 20.dud-dud
 21.duk-duk
 22.dukur-dukur
 23.dup-dup
 24.dupur-dupur
 25.do'pir-do'pir
 26.do'q-do'q
 27.do'qir-do'qir

J

28.jaz-buz
 29.jaz-jaz
 30.jaz-juz
 31.jarang-jurung
 32.jiz-biz

Z

33.zir-zir

I

34.inga-inga
 35.ix-ix

L

36.likang-likang
 37.liqang-liqang
 38.lip-lip*
 39.liq-liq
 40.lov-lov*
 41.lop-lop
 42.liqqa-liqqa

M

43.miyov-miyov
 44.milt-milt*

P

45.par-par
 46.parr-parr
 47.patir-patir

48.pir-pir
 49.pirq-pirq
 50.pis-pis
 51.piqir-piqir
 52.piq-piq
 53.pov-pov
 54.pop-pop
 55.po'k-po'k

T

56.tak-tak
 57.tappa-tappa
 58.tappa-tappa
 59.tap-tap
 60.tap-tup
 61.taraq(a)-taraq
 62.taraq-taraq
 63.tars-tars
 64.tars-turs
 65.ta-q-taq
 66.ta-q-tuq
 67.tiz-tiz
 68.ting'ir-ting'ir
 69.ting'-ting'
 70.tirs-tirs
 71.tir-tir
 72.tiq-tiq
 73.to'p-to'p
 74.to'q-to'q

Ch

75.chak-chak
 76.chalp-chalp
 77.chalp-chulp
 78.chap-chap
 79.chars-chars
 80.chars-churs
 81.chip-chip
 82.chirk-chirk
 83.chirs-chirs
 84.chirt-chirt
 85.chirq-chirq
 86.chitir-chitir

87.chiq-chiq
 88.chig'-chig'
 89.chug'ur-chug'ur
 90.cho'lp-cho'lp

Sh

91.shalop-shalop
 92.shalop-shulup
 93.shalp-shalp
 94.shalp-shulp
 95.shap-shap
 96.shap-shup
 97.sharaqa-shuruq
 98.sharaq-sharaq
 99.sharaq-shuruq
 100.shart-shart
 101.shart-shurt
 102.shar-shar
 103.shatira-shutur
 104.shatir-shatir
 105.shatir-shutur
 106.shaq-shaq
 107.shaq-shuq
 108.shivir-kichir
 109.shivir-shivir
 110.shildir-shildir
 111.shilt-shilt
 112.shilq-shilq
 113.ship-ship
 114.shirt-shirt
 115.shir-shir
 116.shirq-shirq
 117.shitir-shitir
 118.shiqir-shiqir
 119.shiq-shiq
 120.shov-shuv
 121.sho'lq-sho'lq

Q

122.qarr-qarr
 123.qars-qars
 124.qars-qurs
 125.qasira-qusur

126. qasir-qusur
127. qag'-qag'
128. qag'-qug'
129. qir-qir
130. qir(r)-qir(r)
131. qirs-qirs
132. qirt-qirt
133. qir-qir
134. qisir-qisir
135. qitir-qitir
136. qix
137. qix-qix
138. qiqir-qiqir
139. qult-qult
140. qur-qur

G'

141. g'ars-g'urs
142. g'art-g'art
143. g'art-g'urt
144. g'arch-g'arch
145. g'arch-g'urch
146. g'at-g'at
147. g'at-g'ut
148. g'aq-g'aq
149. g'aq-g'uq
150. g'ag'-g'ag'
151. g'ijir-g'ijir
152. g'iz-g'iz
153. g'iyt-g'iyt

154. g'iyq-g'iyq
155. g'ilq-g'ilq
156. g'ing-g'ing
157. g'irra-g'irra
158. g'irt-g'irt
159. g'irch-g'irch
160. g'ichir-g'ichir
161. g'uv-g'uv
162. g'ult-g'ult
163. g'o'ng-g'o'ng

H

164. hiq-hiq
165. huv-huv

O'TILda berilgan juft taqlidiy va tasviriy so'zlar:

A

1. ang-ang

B

2. baka-bang
3. bidir-bidir
4. bij-bij*
5. bijir-bijir*
6. biz-biz
7. bilch-bilch
8. bilq-bilq*
9. biqir-biqir
10. big'-big'
11. biq-biq

V

12. vang-vang
13. varaq-varaq
14. vaq-vaq
15. vaqir-vaqir
16. vag'-vag'
17. vag'ir-vug'ur
18. vij-vij
19. vijir-vijir*
20. vijir-vijir

G

21. gum-gum

D

22. dang'-dung'
23. dang'ir-dung'ur
24.arang-durung
25. diring-diring*

J

26. jangir-jungir
27. jarang-jurung
28. jaraq-jaraq*
29. jivir-jivir

Z

30. zuv-zuv

I

31. ivir-shivir

K

32. kakir-kakir
33. kars-kurs

34. kasir-kasir
35. kasir-kusur
36. kirt-kirt
37. kuk-ku
38. kurs-kurs
39. kurt-kurt

L

40. lapang-lapang
41. lors-lors

M

42. ming'ir-ming'ir

P

43. patir-putur
44. pat-pat
45. pilch-pilch
46. pirs-pirs
47. pitir-pitir*

T

48. taka-tum
49. takir-tukur
50. tapira-tupur

51. tapir-tupur
52. tasira-tusur
53. tasir-tusur
54. taqa-taq
55. taqir-tuqur
56. tipir-tipir*
57. tiqir-tiqir

X

58. xir-xir
59. xur-xur
60. xo'r-xo'r

Ch

61. charaq-charaq*
62. chatir-chutur
63. chag'ir-chug'ur
64. chag'-chag'
65. chag'-chug'
66. chiyov-chiyov
67. chiy-chiy
68. chilp-chilp

Sh

69. shaldir-shuldur
70. shapir-shupur
71. shaqir-shaqir
72. shaqir-shuqur
73. shovur-shuvur

Q

74. qart-qurt
75. qaq-qaq
76. qag'-qag'
77. qig'-qig'
78. quldur-quldur
79. qul-qul
80. qulq-qulq
81. qu-qu
82. quq-quq

G'

83. g'ajir-g'ujur
84. g'ivir-shivir

85. g'ivir-g'ivir
86. g'id-g'idlamoq
87. g'it-g'idok
88. g'ij-g'ij
89. g'ich-g'ich
90. g'ijur-g'ijur
91. g'o'ng'ir-
g'o'ng'ir
92. g'o'rq-g'o'rq

H

93. hars-hars
94. hars-hurs
95. hye-hye-hye
96. hingir-hingir
97. hiring-hiring
98. hi-hi
99. hu-hu
100. ho'ngir-ho'ngir
101. ho'ng-ho'ng

O'TIL da grammatik belgisi berilmagan, lekin ma'no izohidan va keltirilgan misollardan taqlidiy yoki tasviriyy so'z ekanligi ma'lum bo'lgan so'zlar:

A

1. ak-ak
2. alg'ov-dalg'ov
3. ar-ar

B

4. baqir-buqur
5. bag'-bug'
6. bez-bez
7. bilang-bilang

G

8. gangur-gungur
9. gir-gir

D

10. dag'-dag'

J

11. jilpang-jilpang
12. jimir-jimir
13. jiq-jiq
14. jiqqa-jiqqa

Z

15. zirq-zirq

I

16. ilang-bilang
17. ipir-ipir

Y

18. yilt
19. yilt-yilt

K

20. kuf
21. kuf-suf

L

22. lang
23. lim
24. lim-lim
25. limmo-lim

P

26.pil-pil
27.pitpildiq
28.pitpiliq
29.pichir
30.pichir-pichir

S

31.suf
32.suf-kuf

T

33.tors
34.tors-tors

Ch

35.chuvur
36.chuvur-chuvur
37.chuv-chuv

Yu

38.yum-yum

Ya

39.yalt
40.yalt-yalt
41.yarq
42.yarq-yarq

Q

43.qaldir-quldir
44.qalt-qalt
45.qah-qah
46.qiy-chuv
47.qilt

G'

48.g'adir-budir
49.g'ala-g'ovur
50.g'arq
51.g'idi-bidi
52.g'idi-g'idi

53.g'imir-g'imir

54.g'ing'ir-g'ing'ir
55.g'iring-g'iring
56.g'iring-piring
57.g'ovur
58.g'ovur-g'ovur
59.g'ovur-g'uvur
60.g'uvur
61.g'uvur-g'uvur
62.g'uj-g'uj
63.g'uldur-g'uldur
64.g'o'ldur-g'o'ldur
65.g'o'q-g'o'q

H

66.hang-mang
67.hap-hap
68.hilp-hilp
69.hil-hil

Izoh: Tasviriy so'zlar * belgisi ostida berildi.

Taqlidiy so'zlardan yasalgan otlar**V**

1. varvarak (83)**
2. varrak (83)
3. vizildoq (83)

G

4. gursketti (88)

D

5. dardarak (90)

J

6. jizza (100)

Z

7. zirak* (105)

Y

8. yulduz* (183)

K

9. kakku (198)
10.kirkik (210)

L

11.lakluk* (233)

P

12.pirildoq (268)

T

13.tappak (321)

14.tupuk (361)

15.tupurik (361)

X

16.xurrak (403)

Ch

17.childirma (426)
18.chug'urchiq (441)

Sh

19.sharshara (451)
20.sharsharak (451)
21.shilpildoq (454)
22.shiqildoq (456)

Q	24.qurbaqa (qurvaqa)	
23.qarsak (528)	(576)	G'
	25.qo'ng'iroq (587)	g'alva (592)

****Bu so'z lug'atda sifatga ko'chgan deb izohlagan.**

II. Taqlidiy so'zlardan yasalgan sifatlar

B	10.yapaloq* (140)	
1. bijildoq (49)	11.yapasqi* (141)	Ch
2. bilqildoq* (50)	12.yiltiroq (156)	20.chiyildoq (424)
	13.yorqin* (173)	
G		Sh
3. galdir* (84)**	L	21.shaldirama (447)
4. gulduros (86)	14.likildoq* (235)	22.shang'i (449)
	15.liqildoq* (235)	23.shartaki (451)
D	16.lorsildoq* (235)	
5. dang'illama (89)	P	Q
6. do'rildoq (99)	17.pitrak (268)	24.qaqildoq (536)
		25.qurildoq (576)
J	S	26.quruldoq (577)
7. javdiroq* (99)	18.so'lqildoq* (313)	
8. jizzaki (100)		H
	X	27.hangi (595)
Y	19.xirildoq (401)	
9. yaltiroq* (136)		

****Bu so'z lug'atda sifatga ko'chgan deb izohlagan.**

III. Taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llar

A	V	14.ding'illamoq (93)
1. akillamoq (26)	8. vang'illamoq (83)	15.ding'irlamoq (93)
2. aksirmoq (26)	9. vang'irlamoq (83)	16.dirdiramoq* (93)
		17.dingillamoq (93)
B	G	18.dingirlamoq (93)
3. balqimoq* (39)	10.guvillamoq (85)	
4. baqirmoq (41)	11.guvullamoq (85)	J
5. bezillamoq (42)	12.guvurlamoq* (85)	19.javramoq (99)
6. bodramoq (56)		20.jekirmoq (100)
7. bo'kirmoq (76)	D	21.jikillamoq (101)
	13.dildiramoq* (92)	22.jikirlamoq (101)

Z

23.zirillamoq* (105)

24.zirqiramoq* (106)

I

25.ivirsimoq (108)

26.izillamoq (109)

27.izg'irmoq (110)

28.ilviramoq* (113)

29.iljaymoq* (114)

30.imillamoq* (117)

31.imirsimoq* (117)

32.inqillamoq* (119)

33.ingramoq* (120)

34.irjaymoq* (121)

35.ishshaymoq* (130)

36.ishqirmoq (130)

Y

37.yangramoq* (139)

38.yaraqlamoq* (143)

39.yarqiramoq* (144)

40.yorimoq* (172)

K

41.kekirmoq (199)

L

42.lapanglamq* (234)

43.likanglamq* (235)

M

44.mijimoq* (238)

45.ming'aymoq* (240)

46.mujimoq* (241)

47.mung'aymoq* (242)

48.munkimoq* (242)

49.munkillamoq* (242)

O

50.obdiramoq (246)

P

51.pirpiramoq (268)

S

52.selkillamoq (281)

T

53.takillamoq (318)

54.ting'illamoq (338)

55.ting'irlamoq (338)

56.titramoq (342)

57.tuplamoq (360)

58.tupurmoq (361)

U

59.uvlamoq (379)

60.uvullamoq (380)

61.ulumoq (387)

Ch

62.chapimoq (413)

63.chaplamoq (414)

64.chaqirmoq (418)

65.chinqirmoq (428)

66.chirmamoq (429)

67.chirpiramoq (430)

Sh

68.shang'irlamoq (449)

69.sharqiramoq (452)

70.shipshimoq (456)

G'

71.g'ildiramoq (593)

72.g'ing'illamoq (593)

73.g'ing'irlamoq (593)

74.g'inshimoq (593)

75.g'ingshimoq (594)

76.g'ulduramoq (594)

H

77.hangramoq (595)

IV. Taqlidiy so'zlardan yasalgan ravishlar

1. sharros (451)

2. shartta (451)